

UO'K: 325.575.1
BBK: 71.05(5Y)
F82

O'quv-uslubiy qo'llanma institut Ilmiy Kengashi tomonidan (bayon № 5. 29. 01. 2014 y.) muhokama etilib chop etishga va o'quv jarayoniga tatbiq etishga tavsiya etildi.

Farrux Aqchayev.

Tarix fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Ma'sul muharrir: A.Amanlayev. «Sangzor» nashriyoti. Jizzax – 2014. 160 bet.

UO'K: 325.575.1
BBK: 71.05(5Y)

O'quv-uslubiy qo'llanmada tarixni o'qitishda innovatsion texnologiyalar fani bo'yicha ma'ruzalar matni, interfaol pedagogik texnologiyalar, mavzular yuzasidan test savollari, izohli lo'g'at, mustaqil ta'lim mavzulari va uni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar o'z ifodasini topgan. Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma tarix yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalarining tarixni o'qitishda innovatsion texnologiyalar fani bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv-uslubiy qo'llanma barcha yo'nalish bakalavriat bosqichi talabalari va Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tarix fani o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

TAQRIZCHILAR:

A.Pardaev

- Jizzax Davlat pedagogika instituti Akademik litsey va KHK bilan ishlash bo'yicha prorektori t.f.n. dotsent.

N. Kushvaktov

- Jizzax Davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi fakul'teti, Umumiy pedagogika kafedrasida dotsenti., p.f.n.

BBK: 71.05(5Y)
F82

ISBN: 978-9943-358-90-2

© «Sangzor» nashriyoti – 2014.
© Farrux Aqchayev.

KIRISH

Yurtimizda amalga oshirilgan islohotlar tufayli barcha, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida, shuningdek, ta'lim tizimida ham keskin o'zgarishlar yuz bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 - yil 28 - maydagi "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, bugungi kunda o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida o'quv jarayoni tegishli darajada tashkil qilinishi, mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim texnologiyalariga tayangan holda o'tkazilishi lozimligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlanishi zarurligidan kelib chiqib, tarix fanlarini maqsadli, samarali va kafolatlangan natijali o'qitish davr talabidir. Xususan, bugungi kunda xorijiy davlatlarda samarali qo'llanilayotgan "Keys-study", "Loyiha", hamkorlikda o'qitish texnologiyalari, "T-sxema", "Blits-so'rov" va boshqa interfaol usullar haqida ma'lumot, hamda ularni dars jarayoniga tatbiq etish mexanizmini yoritib berishga harakat qilinoqmda.

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talaba (yoki o'quvchi) larni faqat tayyor bilimlarni egalashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul talaba (yoki o'quvchi) larda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndiradi. Endi o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi.

Boshqacha qilib aytganda zerikarli darslar o'rniiga zamonaviy darslarni tashkil etishga ma'suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma'suliyatli, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularni ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya-faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, proyektor yoki boshqa texnik vositalar bilan bog'liq. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o'qituvchi yoki talabning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi yoki talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlarini xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlarini uchun imkoniyat va sharoit

yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu – o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlitlik bo'lib, u talabning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Tarixni o'qitishda innovatsion texnologiyalarining maqsadi ham bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, pedagogik tafakkorini kengaytirish, ularda fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikmalarni shakllantirishdir.

O'quv fanining vazifalariga:

- "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida aks etgan vazifalarni amalga oshirish;

- Didaktika nazariyasi bilan ta'lim amaliyoti aloqasini ta'minlash;

- talabalarni ta'lim - tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llashga o'rgatish orqali ularni zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqarish olish va prezentsiyasi daralarini yuqori saviyada o'tkaza olishni o'rganish;

- talabalarda tarix fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bo'lgan nazariy va uslubiy bilimlarni shakllantirish, ko'nikmalarni tarkib toptirish;

- talabalarining pedagogik faoliyatga o'z tayyorgarligini tahlil qilishga o'rgatish, tahliliy – tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha dars ishlanmalarini loyihalash ko'nikmalarini tarkib toptirish;

- tarix fani o'qituvchisining innovatsion faoliyatini loyihalash ko'nikmalarini tarkib toptirish;

- tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samaradorlik va kafolatlangan natijaga erishtirish kerak.

Pedagogik maqsadning amalga oshirishi ham kafolatlangan natijaga erishishi o'qituvchi va talabning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, vosita, shaklga ya'ni texnologiyaga bog'liqdir.

O'qituvchi va talabning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda talabalarining bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film(yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'lar. Bularning hammasi o'qituvchi va talabalarga bog'liq.

Shu bilan birga o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayon da o'quv predmetining o'ziga xos tomoni, joy va sharoitini, eng asosiy, talabning imkoniyati va ehtiyojini hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundaygina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqacha aytganda, talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

Shu nuqta nazardan kelib chiqib, ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma tayyorlandi. Aytish mumkin-ki, hozirda tarix fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar fani bo'yicha birorta darslik va o'quv-qo'llanma yo'q. Albatta,

mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma muallif tomonidan bu sohadagi dastlabki ish bo'lganligi sababli kamchiliklar bo'lishi tabiiy.

Respublikamizning yangi pedagogik texnologiyalar sohasidagi yetakchi uslubchi olimlari, professor-o'qituvchilari B.Xodiyev, L.Golish, R.Ishmuhammedov, A.Abdugodirov, S.Usmonov, G.Fuzailova, J.Yo'ldoshev, R.Hamraqulov, E.Jumayevlarning pedagogik texnologiyalarga oid kitoblari, o'quv qo'llanmalari ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmani tayyorlashda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qildi.

O'quv-uslubiy qo'llanma yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalarni keyingi ishlarimizda albatta inobatga olamiz.

I-Mavzu: Tarix fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanining mazmun-mohiyati

REJA:

1. Tarixni o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanining maqsad va vazifalari
2. Ta'limda innovatsion va texnologik yondashuvning mazmun-mohiyati
3. Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari
4. Tarix fani o'qituvchisining innovatsion faoliyati

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim, tarbiya, ta'lim mazmuni, o'qitish uslublari, dars, o'qitish vositalari, innovatsiya, texnologiya, pedagogik texnologiya, interfaol ta'lim, an'anaviy ta'lim, pedagogik mahorat.

Mavzuni va alohida savollarini o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: Ma'naviyat, 2008. – B. 173.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Malakali pedagog kadrlar hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida. // Xalq so'zi. 2012. 29 may, № 10.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
4. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomdagi TDPU, 2009.
5. A.Abdugodirov, R.Ishmuhammedov. «Ta'limda innovatsion texnologiyalar» T.:2008
6. S.Usmonov. «Pedagogik texnologiya asoslari» T.:2004
7. Fuzailova G.S, Rahmatullaeva O.R. «Tarix fanini kasbiy sohalariga yo'naltirib o'qitish metodikasi». Uslubiy qo'llanma. – T., TDPU, 2012.
8. Xodiyev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-studi - iqtisodiy oliy o'quv yurtidagi zamonaviy ta'lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo'llanma // «Zamonaviy ta'lim texnologiyalari» turkumi. - T.: TDIU, 2009.
9. J.Yo'ldoshev, F.Yo'ldosheva, G.Yo'ldosheva. «Interfaol ta'lim sifat kafolati». - T.:2008

1. Tarix o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanini o'qitishning maqsad va vazifalari

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talaba (yoki o'quvchi) larni faqat tayyor bilimlarni egalashga o'rgatib kelingandi. Bunday usul talaba (yoki o'quvchi) larda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. Endi o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi.

Boshqacha qilib aytganda zerikarli darslar o'miga darslarni tashkil etishga ma'suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma'suliyatli, zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda.

Innovatsiya (inglizcha innovation)-yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalgam oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol ("Inter"- bu o'zaro, "ast"- harakat qilmoq) - o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyatlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladi, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Interfaol darslarda o'qituvchining o'mi qisman talabalarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

- talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;
- talabalarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiylikni ta'minlanishi;
- talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;
- pedagog va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari mumkin.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalar)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayishi tabiiy. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o'zlarid qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahtli qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlar keltirib chiqishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida

Nega o'qitamiz?

Nimani o'qitamiz?

Qanday o'qitamiz?

savollarga javob izlash bilan bir qatorda qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin? - degan savoliga ham javob qidirdilar.

Bu esa, olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan pedagogik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keladi.

Bunday fikrning tug'ilishi fanda yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzishi va bu jarayon kechishini nazorat qilishga ega bo'lgan texnologik zanjiri oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talabdan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda talabani kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganligiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim xayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlar tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning

o'mi va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularni ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya- faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, proektor yoki boshqa texnik vositalar. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyani eng asosiy negizi o'qituvchi yoki talabani belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq. Har bir dars mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma–ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talabani ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishishi o'qituvchi va talabani hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'lyan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, vosita, shaklga ya'ni texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va talabani maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda talabalar bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film(yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bular. Bularning hammasi o'qituvchi va talabalariga bog'liq.

2. Ta'limda innovatsion va texnologik yondashuvning mazmun-mohiyati

Yangi munosabatlarning o'ziga xos jihati an'anaviy ta'limdagi darajalar farq qilib, o'quvchi-talabalarining mustaqilligi va o'quv faoliyatini taqiqlamasdan, balki belgilangan maqsadga yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish, ularni faoliyatga ong'li ravishda yo'llash, biror-bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirmasdan, balki samarali tashkil etish orqali o'quvchi-talabalarida fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi va imkoniyatlarini chegaralamasdan erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Pedagogik texnologiya texnologik yondashuvga asoslanadi. Texnologik yondashuv deganda tayyor mahsulot (ishlab chiqarish texnologiyasiga o'xshash) olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar to'plami tushunilib, qo'yilgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalarni kafolatlaydigan usul metodlari majmuasi tushuniladi. Agar metod bilish yo'li, tadqiqot yo'li yoki biror faoliyatdagi ma'lum amaliyot va nazariy bilimlar sohasini egallashni harakatlar, usullar majmuasi deb tushunsak, pedagogik texnologiyani ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakli va metodlari majmuasini anglatadi.

Pedagogik texnologiyani an'anaviy o'qitish metodikasidan farqlovchi belgilari ko'p. Pedagogik texnologiya an'anaviy metodikadan, avvalo

maqsadlarning qo'yilishi va unga erishishi bilan farqlanadi. Pedagogik texnologiya usuli tarkibiy qismiga ta'limning umumiy maqsadlari (o'qituvchi va talabani maqsadlari)ni ishlab chiqish, ta'lim maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlarida o'tkazish, maqsadga erishish usullari kiradi.

Loyihalashtirish faoliyati o'quvchi-talabalar bilan ishlashni tashkillashtirishning eng ommabop shakllaridandir. Loyihalash metodi – o'qitishning tashkillashtirishi bo'lib, o'quvchi-talabalar rejalashtirish va amaliy vazifalarni bajarishlari orqali loyiha ko'rinishida bilim oladi. Loyihalashtirish metodini qo'llash natijasida loyiha (proyekt) ko'rinishidagi bilim o'zlashtiriladi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi hamkorlik pedagogikasiga tayanib, talabalarining birgalikda ta'lim olishlari amalga oshiriladi. Talabalarini hamkorlikda ta'lim olishlari, ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish, talabalar bilan ishlashni loyihalashtirish kabilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy metodlari hisoblanadi.

O'quv-tarbiya jarayonida vujudga kelgan yangi pedagogik munosabatlarni mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Pedagogika fani va amaliyotida turli xil yondashuvlar qo'llaniladi. Ular og'zaki, ko'rgazmali, tadqiqiy, izlanuvchan, tizimli, funksional, kompleks, texnologik, faoliyatli yondashuvlardir.

O'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish pedagogdan ijobiy ishlashni talab etadi. Pedagog o'zida unga yordam beruvchi tashqi imkoniyatlar, ya'ni, nazariy-amaliy, o'quv qurollari va vositalari mavjudligi haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Pedagog o'zidagi mavjud ma'lumot va imkoniyatlar asosida qaralayotgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha ma'lumotlar hamda ilg'or o'qitish usulbularini ko'zlagan maqsadga yo'naltirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Pedagogda shakllangan bilim, ko'nikma, malaka, o'qitish vositalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar imkoniyatlarini maqsadga muvofiq yo'naltirish qobiliyatlarini mavjud bo'lib, u davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim oluvchiga aniq maqsadini belgilab beradi. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik texnologiyalarni qo'llash rejasini ishlab chiqishga, ya'ni vazifalarini belgilab olishga olib keladi. Belgilangan maqsad va vazifalarni e'tiborga olgan holda ta'limning harakatchan modeli yaratiladi. Modelni ishlab chiqish asosan tizimli yondashuv uslubini, maqsadlar tizimini yaratish va unga erishish ketma-ketligiga asoslangan holda olib boriladi. Ta'lim modelini yaratish zamonaviy ta'lim texnologiyasining asosiy talablaridan biridir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» pedagogga raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yuzasidan zamonaviy talablar majmuini belgilab beradi. Bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarining majmuini, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq asosiy talablar quyidagilardan iborat, ya'ni:

- pedagogning ta'lim berish mahorati;
- pedagogning tarbiyalay olish mahorati;
- ta'lim-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxs fazilati;

- ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Bugungi kunda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topmoqda. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar tarkibi o'zgarib boshqacha munosabatlar, pedagogik mentalitetlar o'rnatilmoqda. Ta'lim tizimi yangi axborotlar bilan ishlash qobiliyati ijodiy yechimining ta'lim dasturini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

Ta'lim – pedagogik jarayonning muhim tarkibi bo'lib, o'quvchi-talaba bilan o'qituvchi (pedagog) ning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan takomillashuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan ifodalanaadi:

- o'quvchi-talabani yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o'tishi, ya'ni
- o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tishi;
- o'rtaacha o'quvchi-talabaga yo'naltirilganlikdan o'qitishning tabaqalashgan
- va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish;
- o'quvchi-talabani tashqi motivatsiyasidan ichki ma'naviy tartibga o'tish.

Ta'limda zamonaviy didaktika va ta'lim tarkiblarining samaradorligini oshirish, yangi g'oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishiga o'tilmoqda. Bunda har xil pedagogik tizim bilan o'qitish texnologiyalari o'rtasida bog'liqlik, amaliyotda davlat ta'lim tizimining yangi shakllarining aprobatsiyasi, hozirgi zamon sharoitida o'tmishning pedagogik tizimlarini qo'llash muhim hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya paydo bo'lgunga qadar boshqa masalalar qatorida murakkab qurilma va jarayonlar o'rganilgan ta'lim tizimi doirasida aynan ta'lim jarayonini yetarlicha samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmadi. Bu bo'shliqni pedagogik texnologiya pedagogning loyihalashtirilgan o'quv jarayoniga ijodiy yondashuvi uchun keng o'rin qoldirgan holda to'ldirdi. Pedagogik texnologiyani o'ziga xos tomoni shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga so'ssiz erishish o'quv jarayonida loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzakilikda emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmalii sxemada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, jarayon natijalarining tashxisli tekshiruv i o'quv jarayonining barcha qirralarini qayta ishlab chiqish davriga mujassamlashtirish imkonini yaratadi. U asosan o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;

- o'quvchi-talabalarining bilim darajalarini dastlabki (tashxisli) baholash;
- bajariladigan o'quv ishlari majmuasi (bu bosqichda teskari bog'lanish asosida zudlik bilan ta'lim jarayoniga tuzatish kiritish bo'lishi lozim);
- natijani baholash.

O'quv maqsadlarining to'liq standartlashtirilishining me'yori quyidagicha bo'lishi mumkin:

- a) yuqori, ammo mutlaq emas;
- b) mutlaq.

Birinchi holatda maqsadning murakkabligi tufayli uni to'liq kuzatuvchan xatti-harakatlar turiga aylantirish imkonini bermaydi, davr to'raligicha qayta ishlab chiqilmaydi. Ikkinchi holatda konveyrli jarayon bo'lgan ta'limning reproduktiv turi bilan ish yuritiladi.

O'quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik jihati – o'quv jarayonining so'nggi natijalariga yo'naltirilganligini kuzatish mumkin.

Umumiy ko'rinishda pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

- identifikatsiyalangan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish;
- o'quv maqsadlari taksonomiyasi;
- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga aylantirish;
- maqsadga erishish usullari;
- erishilgan o'quv maqsadlarini baholash.

Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab oladi. O'qituvchi (pedagog) o'z oldiga o'quvchi-talabalar o'quv materialining mazmunini tushunib, o'zlashtirib, ma'lum bilimlarni egallab, amaliyotda qo'llashga o'rgansin degan maqsadni qo'yadi. Pedagogik maqsadga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo'lgandagina, o'qituvchi (pedagog) o'zining mehnati samarali ekanligiga va tanlangan metodlari maqsadga muvofiqligiga yoki aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin.

M.V.Klarin fikri bo'yicha o'qituvchi (pedagog)lar tomonidan maqsadlarni belgilashning o'ziga xos usullari quyidagicha:

1. O'quv materialining rejasidan kelib chiqib, maqsadni belgilash.
 2. Maqsadni o'qituvchi (pedagog) faoliyati orqali aniqlash.
 3. O'quvchi-talabani intellektual, emosional, shaxsiy rivojlanish ichki jarayonlari va qonuniyatlari orqali o'quv maqsadini qo'yish.
- O'qitishning maqsadi ta'lim mazmuni, o'qituvchi (pedagog)ning yoki o'quvchi-talabani faoliyati orqali belgilash ta'limda kutilayotgan natijalar haqida aniq taassurotga ega bo'lishga imkon bermaydi.
- Umuman olganda, ta'lim jarayonida vazifalarni o'chash, aniqlash, o'qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo'lish uchun har bir maqsadga erishish mezonini bilish kerak, ya'ni ta'lim maqsadi shunday qo'yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo'lsin.

Mashg'ulot mazmuni deganda, talaba o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi hamda xarakteri tushuniladi. Mashg'ulot mazmunini loyihalashga kirishilganda pedagogik tizimning birinchi elementi - maqsad bilan o'zaro farqlanadigan tomonlarini hisobga olish kerak bo'ladi.

Pedagogik tizimning maqsadini belgilashda, uning talabalar o'rganishi lozim bo'lgan ro'yxati keltiriladi va ular mashg'ulot maqsadini aniqlash uchun xizmat qiladi. Mashg'ulot mazmunini saralashda ma'lumotlarning umumiy hajmidan asosiy qismi ularga yetkaziladi. Dasturda mashg'ulot materiallari tushunarli tarzda berilishi muhim. Buning uchun u ma'lum murakkablik darajasida bayon etiladi. Shu boisdan didaktikada "oddiydan murakkablikka" qoidasi mavjud. Bu qoidaga mashg'ulot mazmunini izchil va ketma-ket yoritishda rioya qilinadi.

Dastur o'qitish darajasi ilmiy-nazariy va siyosiy jihatdan qanday bo'lish kerakligini, talabalarda dunyoqarashning qaysi qirralarini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi, darslik bu muammolarni aniq tushuntirib beradi. Mashg'ulot mazmuni ma'lum qonuniyatlar asosida didaktik tayyorlanmas ekan, uni belgilagan vaqt davomida egallash murakkab kechadi, ba'zan bu mazmun talabalarining o'zlashtirish qobiliyatiga mos kelmay qoladi. Shuning uchun ularning bilimlarini egallashini osonlashtirish maqsadida mashg'ulot mazmuniga nimadir kiritish yoki pedagogik texnologiya to'plagan boshqa bir usullarni taklif etish kerak bo'ladi.

3. Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari.

Ta'limda moddiy ba'za, standart, o'qish rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o'zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga, pedagogik mahoratiga bog'lanib qolaveradi, o'quv-biluv markazida esa o'quvchi turmushini taqozo etadi.

Har qanday ta'lim o'quvchi shaxsiga, uning qiziqish, xohish istagiga, ehtiyojiga qaratilmo'g'i kerak. Ya'ni ta'limni individuallashtirishga qaratilmo'g'i talab etiladi.

Endi ta'limni individuallashtirish nima? Degan savolga javob beraylik:

- ta'lim jarayonini individuallashtirish shunday o'qitish usuliki, bunda har bir o'quvchi o'quv jarayonida faol ishtirok etib, o'quv-biluv jarayoniga shaxsiy hissa qo'shishi hisobga olinadi;

- ta'lim jarayonini tashkil eishda o'qituvchining uslubiy yondashuvi, tezkorligi, o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olinadi;

- o'quv-metodik, psixologik, pedagogik tashkiliy boshqaruv ishlarini olib borishda o'quvchi shaxsi o'quv-biluv markazida bo'ladi.

• Individual yondashuv nima?

1. Guruhlarda ishlaganda, o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etganda har bir o'quvchi bilan yakkama-yakka ishlaganda ularning shaxsiy xususiyatlarini doimo o'qituvchi diqqat markazida turmo'g'i, hisobga olinmo'g'i kerak.

2. O'quvchi bilan muloqot olib borganda ham, uning o'ziga xosliklari diqqat e'tiborda tutilishi kerak.

3. Ta'lim jarayonida ham, uning qobiliyati, imkoniyatlari nazarda tutilishi kerak.

4. Pedagogik psixologik jarayonlarni olib borishda o'quvchining shaxsiy rivojlanish darajasini ko'zda tutish zarur.

Individuallashtirish ta'lim prinsiplari:

• Individuallashtirish - O'quv jarayonining bosh strategiyasidir.

• O'quv jarayonini individuallashtirish orqali shaxsni rivojlantirish ta'minlanadi.

• Har bir o'quv predmetini o'qitishni individuallashtirish orqali amalga oshirish kutilgan natijani kafolatlaydi.

• O'qitish shakllarini individuallashtirish bilan integratsiyalash sharoiti yaratiladi.

• Individuallashtirish ta'lim o'quv jarayoni sifat va samaradorligini ta'minlaydi.

• Individuallashtirish ta'limda ko'nikma, malaka, bilim olish o'quvchining qiziqish asosida kechadi.

• Mustaqil ishlay olish o'quvchining umumiy o'quv ko'nikmasini rivojlantiradi, taraqqiy ettiradi.

Demak, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligi o'quvchining o'quv mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil mutolaa bilan samarali shug'ullanishi, mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyati bilan bog'liq.

• Interfaol metodlarda dars jarayonini olib borishda o'quvchilarda quyidagi xususiyatlarning rivojlanishini ko'rsatish mumkin.

• O'quvchi o'qitilmaydi, uni mustaqil o'qish, o'rganish ishlashga o'rgatiladi.

• Bunda o'quvchilar mustaqil ravishda tahlil qilish orqali o'zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar asosida erkin fikr yuritishga o'rgatiladi. Bizga yot fikrlarga qarshi fikr yuritish olish, o'z pozitsiyasini himoya qila olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

• O'quvchiga bilimlar tayyor holda berilmasdan, bilimlarni darsliklardan, internetdan, turli boshqa manbalardan izlash, topish, qayta ishlash orqali uning bilim olish malakasi shakllantiriladi. Olgan bilimlari orqali ijodiy mulohaza yuritish, imkoniyati yaratiladi. O'quvchini darsliklar bilan ishlash, o'qish, o'rganish, konspekt yozish, qo'shimcha adabiyot, savrochniklardan foydalanib mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini egallashga o'rgatiladi.

• Sinfdagi barcha o'quvchilarning o'z qobiliyatlarini darajasida albatta o'zlashtirishlari kafolatlanadi. Bunda o'quvchining o'zlashtirganligi olgan bilimlarini hayotda, amaliy faoliyatda foydalana olish ko'nikma va malaka larni bilim belgilanadi.

• Barcha o'qituvchi o'quvchilar interfaol metodlar asosida ishlashni o'rganib, uni o'z o'quv-biluv faoliyatlariga olib kira olsalar barcha o'quvchilar bir xil natijalarga erisha oladilar.

• Interfaol asosda dars jarayonini tashkil etilganda:

1. O'quvchining o'zaro faolligi oshadi, hamkor, ijodkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

2. O'quv reja, dastur, darslik, standart me'yor, qo'llanmalar, mavzu mazmuni bilan ishlash malakalari shakllanadi.

3. Ta'lim mazmunini, matnini mustaqil mutolaa qilish, ishlash, o'zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi.

4. O'quvchi erkin fikr bildirish, o'z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi.

5. Eng muhimi o'quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi. Ya'ni o'quvchining ehtiyoj, xohish, istagi qondiriladi. O'quv-biluv jarayonida o'quvchining manfaatdorligi oshadi. Bu holat o'quvchini o'quv maqsadlariga erishishda yuqori bosqichga ko'taradi.

Darsni interfaol metodlarda tashkil etishning qanday afzalliklari mavjud:

• O'qitish mazmuni yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;

• O'z vaqtida o'quvchi-o'qituvchi-o'quvchilar orasida ta'limiy aloqalar o'rnatiladi;

• O'qitish usullari ta'lim jarayonida turli xil ko'rinishlarda kechadi. (yakka, juft, guruh, katta guruhlar).

• O'quv jarayoni o'quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo'ladi.

• O'zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o'quv materialini yaxshi esda qoladi.

• O'quvchida o'zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr almashinish ko'nikmalari shakllanadi.

• O'quv jarayonida o'quvchining o'z-o'ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi.

• O'quvchi uchun dars qiziqarli o'qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi, o'qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo'ladi.

• Har bir o'quvchini o'zi mustaqil fikr yurita olishga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi.

• Interfaol usulda o'tilgan darslarda o'quvchi faqat ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi. Albatta, interfaol darslarni tashkil etishning ham o'ziga yarasha kamchiliklari mavjud.

1. O'quv-biluv jarayoni ko'plab vaqt sarflashni talab qiladi.

2. Interfaol mashg'ulotlarda barcha o'quvchilarni kerakligicha nazorat etib borishning imkoniyati bo'lavermaydi.

3. Juda murakkab materiallar o'rganilayotganda o'quvchilar muammoli to'laonli, aniq yecha olmaydilar, bunday sharoitlarda o'qituvchining roli past bo'lishi hollari kuzatiladi.

4. Guruhlarda o'quv jarayoni kechayotganda kuchsiz o'quvchilarning ishtiroki tufayli kuchli o'quvchilar ham past ball yoki baho olish hollari kuzatiladi.

Xulosa shuki, bunday sharoitda o'qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo'yicha mushohada yuritishga, muammolarni o'z vaqtida yecha oladigan qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Interfaol usullarda darsni tashkil etishda o'quvchi shaxsini rivojlantirishni o'ziga o'zi zamin yaratishdan boshlash kerak.

Ya'ni o'quvchi:

• O'zi mustaqil mutolaa qilish, o'qish asosida bilim olishga;

• O'zini-o'zi anglab yetishga, anglab tarbiya topishga;

• O'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga;

• O'quv mehnatiga mas'uliyat hissi bilan qarashga;

• O'z faoliyatini mustaqil tashkil etish, har bir minutni g'animat bilishga;

• O'quv mehnatiga o'zida xohish-istak uyg'ota olishga;

• Har qanday vaziyatda faollik ko'rsata olishga;

• Ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishni asosiy va bosh maqsad qilib olishga o'rganmog'i zarur.

Shuning uchun ham hozirgi kunda o'quvchining o'z-o'zini rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogika, didaktika fani o'ldida o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardandir.

Keyingi vaqtlarda o'qituvchilar orasida shaxsga qaratilgan ta'lim nima, interfaol usulda o'qitish nima uchun zarur? Bu usul qachondan o'quv jarayoniga kirib kelgan? Uning qanday turlari mavjud? Tarkibiy tuzilishi qanday? Uni o'quv jarayoniga qanday olib kirish kerak, uni avvalgi usullardan farqi nimada kabi savollarga duch kelamiz.

Buning uchun shu kunlarda maktablarimizda olib borilayotgan an'anaviy darslarni yana bir marotaba eslab o'tish joizdir. An'anaviy o'qitish XVII asrda Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy tomonidan taklif etilgan.

U o'qitishning yagona klassik tizimini ishlab chiqib, uni sinf - dars sistemasi deb yuritadi. Keyinchalik bu sistema pedagogikada keng tarqalgan. An'anaviy maktab sinf-dars tizimi nomini olish u quyidagicha o'ziga xos an'analariga ega:

• Taxminan bir xil yoki yaqin yoshli bolalar tayyorgarlik darajasi yaqin bolalar sinfini tashkil etadi.

• Sinf yagona reja, dastur, dars jadvali asosida ishlaydi.

• Asosan mashg'ulot turi yagona dars hisoblanadi.

• Dars ma'lum o'quv predmeti, temaga bir xil material ustida ishlaydi.

• O'quvchilar faoliyatini o'qituvchi boshqaradi, har bir o'quvchining bilim darajasini baholaydi, yil oxirida o'quvchini sinfdan-sinfga ko'chirishni ham u hal qiladi.

• Darsliklar asosan uy ishini bajarishda, uyda qo'llaniladi.

An'anaviy dars sxemasi quyidagicha ko'rinishga ega.

Yangi mavzuni → Mustaxkamlash — Nazorat — Baholash - O'rganish

An'anaviy darsning konseptual holati

- Ilmiylik
- O'quvchi tabiatiga mosligi
- Ketma-ketlik, tizimliliigi
- Tushunarililigi
- Ko'rgazmalilik
- Nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, amalda qo'llay bilish.

An'anaviy darsning kamchiliklari:

- Darsning bir qolipdaligi, bir killigi;
- Boshlang'ich ma'lumot berilib, uni o'zlashtirish jarayoni uyiga reja, vazifa orqali amalga oshadi;
- O'quvchilar passiv eshituvchi va mustaqilligi yo'q.
- O'quvchilar bir-biri bilan fikr almashadilar, nutqiy fikr almashuv amalga oshmaydi;
- Qayta aloqalar yo'lga qo'yilmaydi;
- Har bir faoliyat o'rta qo'quvchiga yondashuv asosida kechadi;
- Ta'lim mazmuni asosan o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

4. Tarix fani o'qituvchisining innovatsion faoliyati.

Hozirgi kunda tarix fanlarini o'qitishning muhim muammolaridan biri bu - maqsadli ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yishdir. Ushbu dolzarb masala xususida Prezidentimiz I.A. Karimovning "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalanish borasida ilgari surilgan vazifalar bugungi kunda ta'limni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tarix fanlarini o'qitishda tarixiy bilim, tushuncha va tasavvurlarni egallash, ularni izohlash, ko'nikma va malakani shakllantirish orqali o'quvchilar intellektual qobiliyatlarini jadal o'tirishni maqsad qilish olinadi. Tarix fanini o'qitishda quyidagi innovatsion faoliyatga e'tibor berish tavsiya qilinadi:

Mashg'ulot vositalari

Pedagog uchun;

O'quv-metodik qo'llanma, metodik tavsiya, metodik ishlanma, o'quv dasturi, dars rejas, ma'ruza matni.

Talaba uchun;

Darslik, o'quv qo'llanma, javdallar, tarqatma materiallar, yo'l-yo'riqli texnologik xaritalar, tipik xatolar xaritasi, topshiriq varaqasi, interfaol usullar.

Mashg'ulot o'tkazish uchun;

Plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual, texnik va real vositalar bo'lishi mumkin.

O'quv maqsadlari

Fanning o'quv maqsadlari tarmoq standartining har bir ixtisoslik bo'yicha kasbiy tavsifnomada keltirilgan kasb faoliyat turlari, maxsus talablar, ko'nikma

va bilimlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilishi lozim, ya'ni tarmoq standart bilan standartlashtirilgan o'quv dasturlari to'la mos kelishi kerak. O'qitishda o'quv maqsadlarini qo'yish uslubi o'ziga xos xususiyatga ega. Bu talablar harakatida foydalanadigan va aniq ko'rinadigan natijalar orqali belgilanadi. O'quv maqsadlarini aniqlash, o'qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo'lish uchun har bir maqsadga erishish mezonini bilish kerak, ya'ni ta'lim maqsadi shunday qo'llanishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo'lsin.

Maqsadlarning qo'yilishi...

Umumiy maqsadlar - DTS, o'quv dasturidan o'tiladigan mavzu yuzasidan talabalar qanday bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish muhimligi aniqlashtirilib, shu asosida mashg'ulot maqsadlari belgilab olinadi.

Pedagog maqsadi;

1-ta'limiy mashg'ulot jarayonida talabalarda dunyoqarashni kengaytirish, bilish faoliyati, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ma'lum ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

2-tarbiyaviy mashg'ulot jarayonida talabalarda mustaqillik, o'zaro munosabat, axloqiy o'nalishlarni, mustaqil faollikka asos bo'luvchi motivlarni shakllantirish;

3-rivojlantiruvchi mashg'ulot jarayonida talabalarda diqqat, nutq, taqqoslash, refleksiya, aniq yechimlarni izlab topish ko'nikmalarini, mashg'ulotga nisbatan qiziqishni rivojlantirish bilan belgilanadi.

O'quv maqsadlarini aniqlashtirishning ahamiyati

O'quv maqsadlarini, ularni alohida qismlarga ajratib aniqlashtirish jahon pedagogikasida keng omalalashgan. Bunday yondashuvga asosan o'quv maqsadlariga erishilganlikni yaqqol aniqlash mumkin. Bunda o'quv maqsadlari tizimi yaratilib, o'zaro bog'liqlik ketma-ketligida joylashtiriladi, ya'ni ularning taksonomiyasi tuziladi. O'quv maqsadlarining bu tizimi xalqaro miqyosda mashhur bo'lib, Blum taksonomiyasi deb nomlanadi.

"**Taksonomiya**" tushunchasi grekcha - tartib bilan joylashtirish bo'lib, biologiya fanidan olingan. U obyektlarni, ularning o'zaro bog'liqligiga asoslanib va to'falari murakkablashib boradigan ketma-ketlikda joylashtirib turkumlash va tizimlashtirishdir. Blum taksonomiyasini qo'llash, o'qitish maqsadlarini umumlashtirish holda bayon qilish imkoniyatini beradi. Undan foydalanilganda pedagog maqsadlarini ajratadi va aniqlashtiradi hamda tartibga soladi. Bu taksonomiya yordamida pedagog nafaqat o'quv maqsadlarini aniqlashtirishga, balki ularni o'zaro bog'liq bo'lgan qat'iy kema-ketlikda joylashtirishga muvaffaq bo'ladi.

O'quv maqsadlari sohalari

Kognitiv - bilishga oid soha. O'rganilgan materialni eslab qolish va uni takroran aytil berish, o'zlashtirilgan bilimlarni mustaqil to'la anglash, ularni o'z o'rganilgan uslub, usullar bilan uyg'unlashtirilib tasavvur etishgacha bo'lgan muammolarni hal etilishini o'z ichiga oladi.

Affektiv - hissiyotga oid soha. Oddiy idrok qilib, qiziqish, qadriyat yo'nalish va munosabatlarini o'zlashtirishga tayyor bo'lish, talabani uyg'un

muhitga nisbatan hissiy-shaxsiy munosabatda bo'lishini shakllantiruvchi maqsadlar kiradi.

Psixomotor-harakatga oid soha. U yoki bu harakat faoliyatida, harakat yo'nalishlarini tez o'zgartirish, asab-muskullarni muvofiqlashtirib boshqarishni shakllantirishga oid maqsadlar kiradi.

Talaba maqsadlari

Kognitiv o'quv maqsadlari sohasida – talabalar nazariy bilimlarni oladi.

Psixomotor o'quv maqsadlari sohasida – olgan nazariy bilimlarini turli mashqlarni bajarish orqali mustahkamlaydi.

Affektiv o'quv maqsadlari sohasida – ularda kelajakka umidvorlik hissi uyg'onadi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari nimalardan iborat?
2. O'quv jarayonida yangilangan dastur va standartlarga javob beradigan zamonaviy darslarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad nima?
3. Interfaol darslarni tashkil etishda o'qituvchining vazifasi nimalardan iborat?
4. Bugungi kunda pedagogik faoliyatda yuzaga keluvchi: Nega o'qitamiz? Nimani o'qitamiz? Qanday o'qitamiz? kabi savollarga to'liq ravishda qanday javob berish mumkin?
5. Pedagogik texnologiya asosida o'tilgan darslarni ana'naviy darslardan ustunlik jihatlari qanday?
6. Ta'limni individuallashtirishda qanday jihatlarga ahamiyat qaratiladi?

2-Mavzu: Tarix darslarini zamonaviy talabalar asosida tashkil etish texnologiyasi

Reja:

1. Innovatsiya tushunchasi va innovatsion texnologiyalar.
2. Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning aspektlari.
3. Pedagogik texnologiyani ilmiy asoslari.
4. Zamonaviy darslarni tashkil etish shakllari.
5. Tarix darslarini tashkil etishda innovatsion yondashuv.
6. Darsning texnologik xaritasi.
7. Prezentatsiya darslarini tashkil etishga qo'yiladigan talablar.

Tayanch tushunchalar:

Innovatsiya, texnologiya, pedagogik texnologiya, aspekt, zamonaviy dars, ana'naviy dars, innovatsion yondashuv, asos, pedagogik texnologiyani falsafiy, ijtimoiy va iqtisodiy asosi, ko'rgazmatilik, texnologik xarita, prezentatsiya, slayd, test, tarqatma materiallar, aqliy hujum.

Mavzuni va alohida savollarini o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: Ma'naviyat, 2008. – B. 173.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Malakali pedagog kadrlar hamda o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida. // Xalq so'zi, 2012. 29 may, № 10.
3. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
4. Lafasov M. Jahon tarixi. (1918-2008). – T.: Turon-igbol, 2011.
5. Ochilov M. «Yangi pedagogik texnologiyalar» /Qo'llanma. -Qarshi: Nasaf, 2000.
6. Fuzailova G.S, Rahmatullayeva O.R Tarix fanini kasbiy sohalarga yo'naltirib o'qitish metodikasi. Uslubiy qo'llanma. – T., TDPU, 2012. – 140 b.
7. Fuzailova G.S, Rahmatullayeva O.R Tarix fanidan o'quv qo'llanma. – T., TDPU, 2012. – 200 b.
8. Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Akademik litsey va kasb-hunar kolejlari uchun darslik. –T.: Sharq, 2002, 2003, 2011.
9. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. Milliy istiqlol davri. Akademik litsey va kasb-hunar kolejlari uchun. –T.: O'qituvchi, 2003.
10. Xodiyev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-studi – iqtisodiy oliy o'quv yurtidagi zamonaviy ta'lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo'llanma // "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari" turkumi. – T.: TDIU, 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Akademik litseylarning ijtimoiy-gumanitar fanlar va xorijiy filologiya yo'nalishidagi tarmoq ta'lim standarti va chuqurlashtirilgan fanlar o'quv dasturlari. T.: 2005.
2. www.pedagog.o'z
3. www.Ziyonet.o'z

1. Innovatsiya tushunchasi va innovatsion texnologiyalar.

Innovatsiya (inglizcha innovation)-yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda yosh avlodga chuqur bilim beradigan, fikrlash doirasi keng, kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan, huquqiy demokratik jamiyat a'zolarini ozod va erkin yashashga, mustaqil fikr yuritishga o'rgata oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifa qilib belgilangan. «Ilgari biror bir mamlakatning taraqqiyoti va kuch-qudratini ifodalash va baholash uchun uning mavjud bo'lgan tabiiy boyliklari va iqtisodiy salohiyati haqida so'z yuritiladi edi. Bugun dunyo taraqqiyotning shunday bosqichiga qadam qo'yidiki, har qanday millat va davlat

imkoniyatlarining hal qiluvchi belgisi bu- ma'rifat, insonlarning intellektual, kasbiy va ma'naviy salohiyatidir»-deb ta'kidlaydi prezidentimiz I.A.Karimov.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi asosiy tamoyillardan biri - bu ta'lim tizimini tuzilish va mazmun jihatidan isloh qilish uchun o'qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash, yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni, pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish hisoblanadi.

Ammo ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar o'z-o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq jarayon. O'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib uning mas'uliyati va faolligini oshirmasdan ta'limdagi bari qadam oldinga siljib bo'lmaydi. Akademik A.N. Leontev «Dunyoni idrok qilishning birinchi sharti -faoliyat, ikkinchi sharti -tarbiyadir. Faoliyat jarayonida; kishilarning qobiliyati, bilim va malakalari shakllanadi, demak, faoliyat ijtimoiy hodisa bo'lib, hayotiy kurashning asosiy shartidir.

Pedagogik faoliyat, uning tuzilishi va tarkibiy qismlari haqida juda ko'p olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, S.L.Ko'zmina o'z tadqiqotlarida pedagogik faoliyatning genezeologik (bilish), loyihalash, tashkilotchilik, kommunikativ tarkibiy qismlari mavjud ekanligini bayon etib o'tgan.

Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish - pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarning paydo bo'lishi natijasida o'qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish «o'qituvchining innovatsion faoliyati» tushunchasi paydo bo'ldi.

Pedagogikada **innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta'limda innovatsion jarayonlarni** bosqarish kabi tushunchalar XX asrning 60-yillarida dastlab, AQSH va g'arbiy Yevropa mamlakatlarida «ta'lim texnologiyasi» tushunchasi e'tirof etilgan vaqtida paydo bo'ldi. Usha vaqtdayoq Yevropada pedagogik innovatsiyalar markazi va instituti tashkil etildi. Bu tushunchalarning paydo bo'lishi va innovatsion ta'lim nazariyasining yaratilishi to'g'risida ma'lumot beruvchi manbalar taxlil shuni ko'rsatadiki, bu tushunchalar ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga kiritish orqali ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta'lim jarayonida bolaga do'stona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida vujudga keldi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida o'tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmida pedagogik faoliyat bu — ijodiy jarayon va pedagogik innovatsiyalar birlashmasi, degan yangi ilmiy yo'nalish tarkib topdi. Bu esa o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish imkonini berdi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining umumiy va alohida jihatlarini K.Angelovskiy, G.I.Gorskaya, V.A.Kan-Kalik, S.L.Ko'zmina, V.A.Slastenin, L.M.Fridman kabi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib berdilar. Mamlakatimizda pedagogik innovatsiyani rivojlantirish muammolari ustida

pedagog olimlardan N.Azizxo'jayeva, B.Farberman, U.Nishonaliyev, N.hayidaxmedov, M.Ochilovlar ilmiy izlanishlar olib bormokdalar.

I.Shumpater va N.Kondratyevlar «**Innovatsiya**» tushunchasining ilk va ulkan nazariyehchilari hisoblanalar, K.Angelovskiy, V.A.Slastenin va V.I.Slobadchikovlar o'z ilmiy tadqiqotlarida innovatsion faoliyat pedagogik faoliyatning alohida shakli ekanligini isbotlashga harakat qildilar hamda bu borada muayyan natijalarga erishgan olimlar, deb tan olinadilar. Jumladan, V.I.Slobadchikov shunday yozadi: «Avvalo, innovatsion faoliyatni ilmiy ijodiyot sohasidagi faoliyatga o'xshatib bo'lmaydi, chunki bunday o'xshatish «Innovatsion faoliyat» termini ma'nosini sayozlashtirib yuboradi. Chunki har qanday ilmiy-texnikaviy faoliyat o'z tabiatiga ko'ra innovatsion hisoblanadi. Shuning uchun innovatsion faoliyatni ma'lum bir ijtimoiy amaliyot maydonida ko'rib chiqish zarur. Bu amaliyotni konkret subyekt nukatyi nazardan va amaldagi an'anaga nisbatan jiddiy o'zgarishlarga olib keladigan har qanday faoliyatni innovatsion deb hisoblash mumkin».

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, 80-yillarda pedagogik faoliyatni avvaldan puxta ishlab chiqilgan dastur g'oyalarga muvofiq amalga oshirish va dasturlashtirilgan mustaqil malaka oshirishni tashkil etish tashabbusi ko'tarildi. Natijada, o'qituvchilarning masofadan malaka oshirish tizimini yaratish kun tartibidagi asosiy masalaga aylandi.

«Innovatsion faoliyat» tushunchasini tahlil qilar ekanmiz: G.A.Mkritichyaning bu haqdagi fikri diqqatga sazovar: - «Pedagogik tajribasizov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajribasizov hali, o'qituvchining innovatsion faoliyati. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko'p bo'lsa, o'qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi»

Innovatsion faoliyat - pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida qarorlar va hammanga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e'tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta'limga yo'natirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o'rtasidagi qiyinchilik bilan yangib o'tiladigan uzilishlardir. Yana muhimroq sabab esa ta'limiy bilim va usuliy pedagogik faoliyat o'rtasidagi uzilishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatning subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo'llash hamda amalalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an'analardagi o'zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak.

Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli bu tushunchalar mazmunini izohlamasdan turib, innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas.

Innovatsiya - amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo'natirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir. Bu g'oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo'lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlar. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi, shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya — ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldindan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma'qullanmoqda:

- Faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi).
- Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan).
- O'zgarishlar ko'lamiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli).
- Kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Innovatsiyaning maqsadi - sarflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli — tuman o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangiliklardan farqli o'laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.

Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli «novatsiya» va «innovatsiya» tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohat faoliyatining aniq shakli, mazmuni ko'lami asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'rgan bo'lsa, u holda biz **novatsiya** bilan muuloqot qilayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib kelsagina **innovatsiya** deya olamiz.

Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: novatsiya amaldagi nazariy doirasida amalga oshiriladi, ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi, metodlari yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimni yaxlit va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo'nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifati natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi.

Innovatsion jarayon deb innovatsion o'zgarishlarga tayyogarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi.

Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, ta'lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atrofchiga o'rganilgan. Ta'lim tizimida

innovatsiyalar, ularni amaliyotga kiritish, innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta'riflash imkoniyati paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat - pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir.

Innovatsion faoliyat — bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi, yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining mavjud me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir,- deb ta'kidlaydi V.I.Slobadchikov. Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekti sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo'lib, u ma'lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatiga emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo'lisdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatning markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'qituvchi innovatsiya faoliyatga tayyor bo'lib, darsga eng so'ngi yangiliklarni olib kirib, o'quvchiga qiziqarli va uni ehtiyojiga mos ravishda tashkil etsagina, sifat va samaradorlikni kafolatlashi mumkin.

2. Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning aspektlari.

Texnologiyaga ta'riflar:

1) Ensiklopedik lug'atda texnologiya so'ziga shunday ta'rif beriladi: texnologiya — bu "biror bir material, yarimfabrikat, yoki xomashyoni qayta ishlash, tayyorlash, uning holatini o'zgartirish, xususiyatlarini boshqacha qilishga yo'naltirilgan metodlar majmuasidir".

2) V. Dal lug'ati: "har qanday ish, faoliyat, mohorat va san'atda ishlatiladigan usulbar majmuasidir".

3) S.I.Ojegov lug'atida texnologiya biror bir ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan turli metodlar majmuasi sifatida qaraladi, texnologiya deb ishlab chiqarishning ilmiy bayoniga aytiladi: "Texnologiya — bu bilim, malaka, ko'nikma, metodlar va faoliyat turlarining majmuasi bo'lib, har qanday muammolarning ilmiy yechilishi algoritmi hisoblanadi".

4) "Texnologiya — bu turli xil metodlar majmuasiga bo'lib qolmay, u texnologiyada biror bir konkret maxsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur" (S.A.Smirnov).

5) "Texnologiya deganda avvalgi holatdagi har qanday maxsulotning yangi tarzda qayta shakllantirilishi bo'lib, mahsulot sifatida odamlar, axborot, jismoniy va moddiy boyliklar qaralishi mumkin, ularning barchasi yangi mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltiriladi" (M.X.Melson).

Bugungi kunda ishlatiladigan barcha texnologiyalar ikki turga bo'linadi:

I-Ishtab chiqarish texnologiyalari: xomashyoni hamda uning asosidagi polufabrikatlarini ishlab va qayta ishlash (neft, ruda, yog'och) va uning asosidagi polufabrikatlar (metall, prokat, tarket, gipsokarton v.b.).

2-Ijtimoiy texnologiya: xomashyo va uni qayta ishlash mahsuloti sifatida inson omili turadi. Unda qayta ishlashga yo'naltiruvchi narsa inson omili va undagi xususiyatlar o'zgarishlari bo'ladi (masalan, o'qitish texnologiyalarining o'zgarishi).

Ta'lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakli va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini yaratuvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda

Pedagogik texnologiyaning mazmuni esa o'qituvchi, tarbiyachi tomonidan o'quvchi (ta'lim oluvchi)ga aqliy, ruhiy, axloqiy jihatdan turli usulda ta'sir o'tkazishdan iboratdir. Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'ldi va turli rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda.

Dastlab bu tushuncha 1940-yillardan 50-yillar o'rtasigacha „ta'lim texnologiyasi“ deb qo'llanilib, o'quv jarayonida **audio-vizual texnika vositalaridan foydalanishni** ifoda qilgan. Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o'rtalarida AQShda qo'llana boshlagan. Bunda „pedagogik texnologiya“ va „ta'lim texnologiyasi“ atamaları faqat **texnika vositalari yordamida** o'qitishga nisbatan qo'llangan edi.

O'tgan asrning 50-yillari o'rtasidan 60-yillargacha „ta'lim texnologiyasi“ atamasi qo'llanilib, bunda **dasturlashtirilgan ta'lim** nazarda tutilgan.

70-yillarda „pedagogik texnologiya“ atamasi qo'llanilib, u avvaldan **loyihalashtirilgan va aniq belgilangan** maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini ifodalagan.

1979-yilda AQShning Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif berilgan edi: „Pedagogik texnologiya bilimlarni o'zlashtirishning hamma jihatlarini qamrab oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalashtirish, muammoning yechimini baholash va uni boshqaruvchilar, g'oyalay, vositalar va faoliyatni tashkil qilish usullarini o'z tarkibiga oladigan **kompleks integrativ jarayondan** iborat...“.

80- yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb ta'limning **kompyuterli va axborot texnologiyalarini** yaratishga aytilgan.

2. Pedagogik texnologiyaning har turli ta'riflari mavjud bo'lib, ulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

Texnologiya — biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi. (*Izoxli lug'at*).

Pedagogik texnologiya — o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lgan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir. (V.P. *Bespalko*).

Pedagogik texnologiya — ta'limning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti. (I.P. *Volkov*).

Ta'lim texnologiyasi — didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi. (M. *Choshanov*).

Pedagogik texnologiya — o'quv jarayonining o'quvchilar va o'qituvchi uchun o'zlashtirish sharoitlar ta'minlashni loyihalash, tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha hamma detallari o'yab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli. (V. M. *Monaxov*.)

Pedagogik texnologiya — texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratash, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi (*YuNESKO*).

Pedagogik texnologiya — bu tizimli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir tizimga keltirishdir.

Pedagogik texnologiya — bu o'qitishga o'ziga xos yangicha (*innovatsion*) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi. (B. L. *Ferberman*.)

Pedagogik texnologiya — turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta'riflari mazmunini o'zida mujassam etuvchi umumlashtirishdan iborat. (G. K. *Selevko*.)

Hozir ta'lim-tarbiya sohasida rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri — **zamonaviy pedagogik texnologiyalarni** o'quv jarayonida qo'llash bo'lib, uni amalga oshirish dolzarb vazifalardir. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o'z bilim va tajribalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu jarayonda, asosan, inson hayoti uchun zarur axborotlarni avlodlar-avlodga uzatish amalga oshiriladi.

Insoniyat hayoti axborotlar bilan chambarchas bog'liq. Boshqacha aytganda, insonning har bir harakati axborot olish va uzatish yoki undan foydalanish, uni o'rganish, o'zlashtirish, saqlash va boyitishdan iborat. Shuning uchun ham hozirgi insoniyat sivilizatsiyasini *axborot sivilizatsiyasi* deb ataladi.

Zamonaviy „*texnologiya*“ iborasi umumlashma ibora bo'lib, u o'z mazmunida **uch asosiy aspektni qamrab oladi:**

1-Ilmiy aspekti — texnologiya - ma'lum bir muammoning ilmiy asoslangan yechimi hisoblanadi. Mazkur yechim ilg'or tajriba va psixo-pedagogik nazariya natijalariga asoslanadi.

2-Shakl va bnyon aspekti — texnologiya — bu rejalashtirilgan jarayondagi ishlatiladigan maqsadlar, metodlar, vositalar, jarayonlar majmuasi hisoblanadi. Mazkur jarayonlar ma'lum shakl va bayon orqali o'zini namoyon qiladi.

3-Jarayon va faoliyat aspekti — texnologiya — faoliyatni namoyon etish jarayoni hisoblanadi. Mazkur faoliyat yuqoridagi ta'kidlangan maqsadlar, metodlar, vositalar, jarayonlardan iborat bo'ladi. Ularning ketma-ketligi, o'zaro muvofiqlashuvi va amal qilish qonuniyatlari texnologik faoliyat jarayoni va faoliyatini keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, texnologiya - biror bir ishlab chiqarish va yoki ijtimoiy muammoni yechimga keltirish, uni amalga oshirish bo'yicha qilmadigan qadamlar va faoliyat ketma-ketligi, ilmiy asoslangan holda hal etilishi jarayoni, mana shu jarayonni tashkil etishning muvofiqlashuvi va tartibidir.

3. Pedagogik texnologiyani ilmiy asoslari.

Asos, substansiya-mantiqiy tafakkurning muhim shakli hisoblangan xulosa chiqarishning tarkibiy qismlaridan biri. Narsa va hodisaning asosan sababiyat qonuni orqali nomoyon bo'ladi. Tabiat va jamiyat hodisalarini o'rganish, bilish tadqiq etish ko'p jihatdan asos va asoslash jarayoniga bog'liq... Umuman ilmda turmushda, har qanday munozara va muhokamada, biror fikrni isbotlash yoki biror xulosaga kelish uchun foydalanadigan fikr asos deb yuritiladi. (M. Ens)

Asos – mantiqiy tafakkurning muhim shakli hisoblangan xulosa chiqarishning tarkibiy qismlaridan biri. Chinligi amaliyotda tekshirilgan va isbotlangan ma'lum fikrni – ifodalaydi. Undan noma'lum fikrni – xulosalan keltirib chiqarish uchun foydalaniladi. Asosning chinligi xulosa yoki tezisning chin bo'lishi uchun muhim shartlaridan biridir, lekin bundan tashqari hukmlar bir-biri bilan to'g'ri bog'langan va tartib bilan keltirilgan bo'lishi lozim. Aks holda to'g'ri asodan noto'g'ri xulosa chiqishi mumkin

Pedagogik texnologiya bir qancha asoslarga ega. Bularndan eng ahamiyatli turlari ijtimoiy, falsafiy, metodologik, didaktik, pedagogik, psixologik, fiziologik, gigenik, mafkuraviy huquqiy-me'yoriy, iqtisodiy, tarixiy, nazariy, amaliy va boshqa asoslar hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyani ijtimoiy asosi har bir shaxs jamiyat va davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va yoki ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini, tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi. U shaxsning, jamiyatning va davlatning rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyani falsafiy asosi uning maqsadlari hamda tashkiliy shakli va usullarining falsafiy jihatdan to'g'ri yo'nalishda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiya falsafiy yo'nalishi uning to'g'ri yoki noto'g'ri ilmini, jamiyatning ma'lum maqsadlariga muvofiq yoki zidligini ko'rsatadi. Bu pedagogik texnologiyaga baho berishda asos ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyani metodologik asosi uni amalga oshirish qanday metodlar asoslanishini belgilaydi.

Pedagogik texnologiyani didaktik asosi uning ta'lim-tarbiya qoida va tamoyillarga muvofiqligini belgilaydi. Pedagogik texnologiyani didaktik jihatdan to'g'ri bo'lishi uning yuqori samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyani pedagogik asosi zamonaviy pedagogika fanini ilmiy xulosalaridan kelib chiqadi. Bunda pedagogik texnologiyani umumiy tarkibiy tuzilishini, mazmuni shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonni tashkil qilinishi, olib borilishi, diagnostikasi, monitoringi, o'quv-mavzularining ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiyani psixologik asosi psixologiya fanining ilmiy xulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida psixologik bilimlardan o'z o'rnida, to'g'ri foydalanish orqaligina kutilgan natijaga erishish mumkin (diqqat, sezgi, qobiliyat, his – tuyg'u...)

Pedagogik texnologiyani fiziologik asosi bunda ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni o'qitishdagi fiziologik talablarni hisobga olishning lozim avlodini voyaga ekakizishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning turli yoshdagi fiziologik xususiyatini hisobga olinishi kerak (o'g'il-qiz bola).

Pedagogik texnologiyani gigenik asosi ta'lim-tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash ta'lablariga rioya qilishdan iborat unda turli zararli va zararli ta'sirlarni bartaraf qilish, o'quv sharoiti: Yoritilganlik, harorat, havoning tozaligi, o'qituvchi va o'quvchining ish o'rnini, jixozlar, o'quv yuklamalar me'yori, sharoiti, tabiat fiziologiya, ekologiya talablariga insonparvarlik va salqparvarlik g'oyalarga muvofiq bo'lgan ilmiy asoslarda belgilab boriladi.

Pedagogik texnologiyani mafkuraviy asoslari bunda milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi tamoyillarini o'zida mujassam etishi va ularni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Pedagogik texnologiyani huquqiy-me'yoriy asoslari bu ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil qilish bilan belgilanadi.

o' Ta'lim to'g'risida» qonuni

o' KTMD

o' DTS

o' o'quv reja va dasturlar

o' prezidentning ta'lim-tarbiyaga oid farmonlari, V.M. qarori va buyruqlari, nizomlar...

Pedagogik texnologiyani iqtisodiy asosi ta'lim menejmenti xulosasiga va marketing tadqiqotlari natijalariga muvofiq belgilanadi. Pedagogik texnologiya ijtimoiy sohadagi faoliyat bo'lganligi bois uning iqtisodiy samarasi aniqlanadi va ta'limning masalalarini hal qilib boriladi. Pedagogik texnologiya iqtisodiy asosining mustahkam bo'lishi uchun amaliyotda davom ettirish uchun zaruriy sharti hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyani tarixiy asosi ta'lim-tarbiyaning shakllantirishni turli tarixiy davrlarda amalga oshirishning shakli va usullari, pedagogik nazariyalari asos bo'ladi.

Yuqoridagilar umumlashtirilsa har bir pedagogik texnologiyani o'z nazariy va amaliy asosi kelib chiqadi.

4. Zamonaviy darslarni tashkil etish shakllari.

Dars jarayonini joriy etishda va uning strukturasi dan unumli foydalanishda o'quvchilarning faolligini tashkil etish muhim rol o'ynaydi. Zeroki, jarayon markazida o'quvchi shaxs turadi. Demak, ta'lim jarayoni o'quvchi shaxsiga qaratilgan zarur.

Pedagogik adabiyotlarda, metodik qo'llanmalarda va maktab amaliyotida qitilishicha o'quvchining o'quv-biluv faoliyatini olib borish uch yo'nalishda amalga oshiriladi.

1-umumiy, 2-guruhli, 3-yakka tartibda.

Umumiy yo'nalishdagi dars jarayoni faoliyatida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning xatti-harakatlari tushuniladi.

Guruhli o'quvni tashkil etishda o'quvchilar faoliyati guruh-guruhlarga bo'linib olib boriladi.

Yakka tartibdagi o'quv jarayonida o'quvchilar yakkama-yakka faoliyat olib boradilar.

Umumiy shakldagi faoliyatni tashkil etuvchi darslarda, o'quvchilar biluv qatnigini bir xil xilidagi topshiriqlarni sinf bo'yicha birgalikda muhokama etadilar. Fikr almashadilar, solishtiradilar, umumlashtirgan holda xulosalar chiqaradilar.

O'qituvchi, o'quvchilar birgalikda va bir vaqtda vazifani bajarishda hamkorlik qiladilar, hamijodkorlikda ish yuritadilar. O'qituvchi so'zlash, tushuntirish, ko'rsatish jarayonida barcha o'quvchilarni jalb qilgan holda masalani birga muhokama qiladi.

Bunday muloqotlar o'quvchilar ishonchini qozonishga, o'quvchilar bilan muloqotga kirishishga, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasining hosil bo'lishiga olib keladi.

Umumiy o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos kamchilik va yetishmovchiliklari ham mavjud.

Darsda faoliyat o'qituvchi tomonidan barchaga birdek qaratiladi, ya'ni bir o'z abstraktlik yuzaga keladi. Barchani qiziqish, qobiliyatlaridan qat'iy nazar bir xilda, bir maqsad yo'lida izlanish, fikrlash, ishlashga undaydi.

O'quvchilarning rivojlanish darajasi, tayyorgarligi bir xil bo'lganligi tufayli bilim va ko'nikmalarni qabul qilib olish, o'zlashtirish birdek natijani kafolatlamaydi. Dars sifati va samaradorligi pasayishi holatlarini kuzatiladi.

O'qish, o'zlashtirishlari sust bo'lgan o'quvchilar sekin ishlaydilar. O'quv materiallarini to'la o'zlashtira olmaydilar. Ular ko'proq o'qituvchining shaxsiy e'tiboriga muhtojlik sezadilar.

Lekin ayrim o'quvchilar murakkabroq, qiyinlik darajasi yuqoriroq bo'lgan materialarni o'zlashtirishga moyil bo'ladilar.

Ayrimlari esa ko'proq mustaqil izlanish, ijodiy yondashuv asosida ishlashga qiziqish bilan qaraydilar.

Shuning uchun umumiy yo'nalishli darslarda savol-javoblar, laboratoriy ishlari, mashqlar yechishi, masalalar yechishi iloji boricha o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash mumkinki, darslar bir xillik, umumiy yondashuv, bir xil qolipdagi ta'limiy faoliyatdan qochishni taqozo etadi.

Darslarda o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini guruhlarda tashkil etish:

Interfaol darslarda o'quv-biluv faoliyatni guruhlarda tashkil etishning o'ziga xosliklari mavjud. Bu shaklda sinfdagi o'quvchilar guruhlarga bo'linib, har bir guruhga alohida alohida vazifalar beriladi. Har bir guruh alohida (ya'ni bir xil yoki tabaqalashgan) topshiriqlar ustida ishlaydi. Topshiriq o'zaro muloqotga asoslanadi yoki biror yetakchi rahbarligida tashkil etiladi.

Guruhlarda topshiriq shunday amalga oshiriladi, mashg'ulot yakunida ham bir ishtirokchi yoki guruh a'zosi ning qanchalik hissa qo'shganligi hisobga olinadi. Guruhlar tarkibi doimiy bo'lmasligi mumkin, ular shunday tartibda

shakllantiriladi, topshiriqni bajarishda har bir guruh a'zosi g'zining maksimal hissasini qo'shish imkoniyati, muhiti yaratiladi.

Guruhlar turli kattalikda shakllantirilishi mumkin. Odatda guruhlarda 4-6 nafar a'zo ishtirok etadi. Uning tarkibiga beriladigan topshiriqlarning mazmuni va shakliga qarab o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Guruhni shunday shakllantirish kerakki, har bir guruh tarkibida mustaqil ishlash ko'nikmalariga ega bo'lgan o'quvchilarning bo'lishi kutilgan natijalar beradi.

Guruhli o'quv-biluv ishlarni tashkil etishda ayrim o'quvchilarning individual yordamga muhtojliklari seziladi. Shunday vaziyatlarda o'qituvchi tayyorlik darajasi yuqori bo'lmagan o'quvchilarga yordam berib borishi maqsadga muvofiq.

Guruhli o'quv-biluv faoliyati laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar, isbiy fanlarda tashkil etilgan amaliyot, nutq o'stirish mashg'ulotlari (dialog) manzari o'zlashtirish, tarixiy materiallarni o'rganish va mehnat darslarida juda qo'l keladi. Bu holatlarda guruhlarda o'zaro muloqot o'rnatish, mustaqil ishlash yaxshi natija beradi.

Guruhli o'quv-biluv faoliyati yana o'quv-mavzuviy konferensiyalar, munozara, mushoira, debat, savol-javob, ma'lum mavzudagi kichik ma'ruzalar, qo'shimcha mashg'ulotlar, o'quv dasturlaridan tashqari mavzularni o'rganishda ham juda qo'l keladi.

Bunday o'quv-biluv faoliyatida guruh a'zolari juda faollik ko'rsatadilar, o'z fikr, pozitsiyalarini himoya qilish ko'nikmalari shakllanadi. Guruhdagi hamkorlikda, kuchli o'quvchilar kuchsiz o'quvchiga yordam berish bilan ularni qo'lab quvvatlaydi, guruhda hamijodkorlik vujudga keladi.

Guruhli o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishda guruh a'zolari orasida vazifalar aniq taqsimlansa, o'zaro hamkorlik to'g'ri yo'lga qo'yilsa, samarali natijalar beradi.

O'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini guruhli tashkil etishda quyidagi elementlar hisobga olinmogi zarur:

• O'quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash, o'quv topshiriqlarini aniq qo'yish, guruhda ishlash bo'yicha tushuncha berish, reglament o'rnatish.

• O'quv topshiriqlarini bajarish bo'yicha reja tuzish, uni muhokama etish. Uni hal etish yo'llarini aniqlash va ishini olib borish bo'yicha o'zaro vazifalarni taqsimlash.

• O'quv topshiriqlarini bajarish bo'yicha ishini tashkil eta olish.

• Guruhdagi ishini tashkil etishda ish jarayoni va a'zolar ish jarayonini kuzatish va zarur hollarda yordamga kelish.

• Guruhda topshiriqlarni bajarish jarayonida o'zaro tekshiruv va nazorat olib borishni yo'lga qo'yish.

• Guruhlarda topshiriqlarni bajarish natijalari bo'yicha axborot berish, sinfdan munozaralar o'tkazish, ish jarayonining borishiga qo'shimcha va tuzatishlar kiritib borish. O'qituvchi tomonidan ishning natijalari bo'yicha xulosalar chiqarish va yakun yasash.

Har bir guruhning ish natijalariga, sinf ishiga tahliliy baholar berish.

Guruh ishining muvaffaqiyatli chiqishi o'qituvchining o'quv faoliyatini tashkil eta olish harakati, mahoratiga bog'liq.

Ya'ni o'qituvchi guruhda ishtirok etayotgan har bir o'quvchining shaxsiy faoliyatini tashkil eta olishi, har bir o'quvchi o'qituvchi ko'magini olishi ishning borishi bilan pirovard natijani muvaffaqiyatli ko'rsata olishiga bog'liq.

Guruhlar ishini o'quv biluv jarayonida tashkil etishda bir kator kamchiliklar sodir bo'lishi mumkin. Qiyinchiliklardan biri guruhlarni to'g'ri maqsadli shakllantira olish va unda ishni tashkil eta olishdir.

Guruhlarda ishlash jarayonida o'quvchilar ayrim qiyin topshiriqlar yechimini mustaqil yechishga qiynaladilar. Shu sababli guruhlarda ishni tashkil qilishda umumiy ishni tashkil etish bilan bir vaqtda individual ishlarni ham tashkil etishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda ko'pincha yaxshi natijalarga erishish mumkin. Umuman o'quv predmetlari bo'yicha beriladigan topshiriqlarning qiyinchilik darajasiga qarab guruhda ijodiy muhit yaratiladi. Guruhlarda ishlash davrida o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi orasida o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam muhiti o'rnatilsa, guruhlar ishi kutilgan natijalarni beradi.

5. Tarix darslarini tashkil etishga innovatsion yondashuv.

Ta'lim muassasalarida tizimida tarix fanlarini o'qitish mazmunini kasbiy soha yo'nalishlarining mohiyatiga mos shaklda rivojlantirish, ya'ni KHKlarning kasbiy qiziqishidan kelib chiqqan holda qo'shimcha ma'lumotlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

O'qitish jarayonini kasbiy yo'naltirish - berilayotgan bilimlarni KHKning kasbiy yo'nalishidan kelib chiqib darsni tashkil etishdir.

Tarix fanlarini o'qitishda tarixiy bilim, tushuncha va tasavvurlarni egallash ularni izohlash, ko'nikma va malakani shakllantirish orqali o'quvchilarni intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularga kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim berishni ta'minlash va kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasb-hunarga qiziqishini oshirish maqsad qilib olingan. Tarix fanlarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, o'quvchilarning tanlagan kasbi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy bilim, tushuncha, tasavvurni yanada rivojlantirish hamda o'zining sohasiga doir tarixiy bilimlar bilan tanishtirish ularni hayotga va kasbiy faoliyatiga tatbiq etishni o'rgatishdir.

O'rta maxsus ta'lim tizimida fanlarni o'qitishda umumiy o'rta ta'lim tizimidan farqli o'laroq, mashg'ulotlarning ma'ruza va seminar (amaliy) shakllari bo'lib, ular quyidagi maqsad va vazifalarga yo'naltirilgan:

ma'ruza - o'qitishni tashkil etishning yetakchi shakli bo'lib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

yo'naltiruvchilik - o'quvchilarni o'quv materialining asosiy holatlariga uni kelgusi ish faoliyatidagi o'rni va ahamiyatiga diqqat qilishlariga imkon beradi;

axborotlilik - o'qituvchi ma'ruza vaqtda holat, asosiy ilmiy dalillar va xulosalar mohiyatini ochib beradi;

metodologiklik - ma'ruza vaqtda o'qitish usullari taqqoslanadi, ilmiy izlanishning asoslari namoyon etiladi;

tarbiyalovchilik - ma'ruza o'quv materialiga hissiy-baholash munosabatida bo'lishni uyg'otish;

rivojlantiruvchilik - bilim olish qiziqishlarini, ya'ni mantiqiy fikrlash va isbotlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Seminar - ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol subbatga kirishishga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, o'quv mashg'uloti shakli.

Seminar mashg'ulotining asosiy maqsadi - nazariy materialni (bilimlarini) tartibga solish, amaliy malaka va ko'nikmalarini hosil qilish va bilimlarini nazorat qilishdan iboratdir.

6. Darsning texnologik xaritasi.

Texnologik xaritada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyati (o'quv jarayoni) bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni hamda ularda qo'llaniladigan vositalar tavsiflanadi. Texnologik xarita talabalarning mustaqil ishlarni nazorat qilishga yordam beradi.

Texnologik xaritaning tuzilishi va mazmuni ko'rsatkichlari:

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi uch qatorni o'z ichiga olib, 1-1,5-2 vараqda jadval ko'rinishida bajariladi: (1) o'quv mashg'uloti bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati; (3) ta'lim oluvchi faoliyati.

1-bosqich (5-10 daqiqagacha). O'quv mashg'ulotiga kirish.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati. Ta'lim beruvchi muvazning nomi, (ma'ruza) rejasi bilan, o'quv mashg'ulotining xususiyati bilan (muammoli ma'ruza, o'rgatuvchili o'yin va boshqalar.), mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini, o'quv mashg'ulotida o'quv ishlarni baholash me'zonlari bilan tanishtiradi.

Ta'lim oluvchilar tinglaydilar, aniqlashdiradilar, savollar beradilar, yozib oladilar.

2-bosqich (55-65 daqiqagacha). Asosiy ma'lumot beruvchilik.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati. Ta'lim beruvchi o'quv mashg'ulotining rejasi tuzilishga muvofiq tuzib chiqqan ta'lim modelini amalga oshiradi, ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqaradi.

Ta'lim oluvchilar ko'zlanayotgan o'quv natijalarga erishish bo'yicha rejalashtirilgan o'quv harakatini bajaradilar.

3-bosqich (10-15 daqiqagacha). Yakuniy - natijaviy.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha yakun yasaydi, ta'lim oluvchilar e'tiborini asosiylariga qaratadi, bajarilgan ishlarni kelgusi kasbiy ish faoliyatidagi ahamiyatini ma'lum qiladi, guruhlar, alohida talabalar ishini baholaydi yoki o'zaro baholashni yakunini chiqaradi: o'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini baholaydi; mustaqil ish uchun topshiriq beradi.

Ta'lim oluvchilar o'zaro baholashni o'tkazadilar, savol beradilar, topshiriqni yozadilar.

Hova. O'quv jarayonining tashkiliy-didaktik vazifasini bajaradi: o'quv, mustaqil ish uchun savol va topshiriqlarni, uni baholash me'zonlarini, o'quv ish jarayonida talabalar amal qilishi lozim bo'lgan qoidalar, ta'lim beruvchi foydalanadigan tayanch yozmalar, shuningdek chizma, jadval, slaydlar va boshqa ko'rgazmali materiallar, rejalashtirilgan maqsadlarga erishishni nazorat qilish uchun topshiriqlar (testlar, savollar, topshiriqlar va mashqlar).

Bu yerda taqdim etilayotgan materiallar chegaralanmaydi. Faqat ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli chizmalarda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
I-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (... daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsadi va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot rejasini bilan tanishtiradi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. 1.3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydilar, yozib oladilar. Aniq lashtiradilar, savollar beradilar.
II-bosqich. Asosiy (... daq.)	2.1. Tezkor-so'rov, savol-javob, aqliy hujum, klaster orqali bilimlarni faollashtiradi (1-2 ilovalar). 2.2. Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotning rejasini va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon qiladi (3-ilova).	Javob beradilar Yozadilar Guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va boshqalar
III-bosqich. Yakuniy (... daq.)	3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi (4-ilova). 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash me'zonlarini etkazadi (5-ilova).	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar Topshiriqni yozadilar

7. Prezentatsiya daralarini tashkil etishga qo'yiladigan talablar.

- Taqdimot ishi to'g'risida hisobotga tayyorgarlik bo'yicha yo'riqnomalar.
- Siz taklif va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi xulosalarni (1 betdan ko'p bo'lmagan matn asosida) ifodalang.
 - Siz hal etmoqchi bo'lgan muammoni (5-6 so'z bilan) asoslang.
 - Loyihangizning maqsadi: uning nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulni qanday bo'lishi va u kimga qaratilganligini (1-3 taklif orqali) ko'rsating.
 - Loyiha vazifalarini (qisqa va bir ma'noli) ifodalang.
 - Loyihaning ish rejasini (jadval) ni bayon eting.
 - Vazifa yechimining natijalari va loyihada bajarilgan ishlarni ko'rsating.
 - Siz taklif etgan loyiha mahsulini tatbiq etish imkonini tasdiqlovchi xulosalarni shakllantiring.
 - Bajarilgan ish bo'yicha foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtiring.
 - Baholang:
Loyiha ustida ishlash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni yengib o'tish yo'llari.
 - Ilovalarni tarkiblashtiring: loyiha ishtirokchilarining anketalari va loyiha ishini ish materiallarini kiriting (xohishingizga ko'ra).
- 1. MS Power Pointda taqdimotga tayyorlash bo'yicha yo'riqnomalar**
- MS Power Pointda taqdimotga tayyorlash jarayoni quyidagilardan iborat:
 - taqdimot turini tanlash;
 - taqdimotni umumiy rasmiylashtirishni tanlash;
 - slaydlarning mazmunli tomonlarini tanlash;
 - yangi slaydlarni qo'shish;
 - slaydlarni belgilashni tanlash;
 - zarur bo'lganda slaydlarni rasmiylashtirishni o'zgartirish;
 - slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozlari animatsiyalarni yaratish.
 - Slaydlarni texnik namoyish etish quyidagi tavsiflarga javob berishi kerak:
 - slaydlar miqdori (8-12);
 - slaydlarning mazmunli ko'rsatkichlari: birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, o'quv guruhi raqami, yaratilgan kundan iborat;
 - oxirgi slayd axborot manbasiga bag'ishlangan;
 - boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.
 - slaydlar o'z-o'zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.
 - Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasi:
 - Agar matn og'zaki bo'lsa, quyidagicha bo'lishi zarur:
 - yuqori axborotlik;
 - bog'lovchilik;
 - aniq va qisqacik;
 - oddiy sintaktiklik (...quyidagilarga e'tibor bering, quyida taqdim etilayotgan ro'yxatlar kabi aylantiruvchi kirish so'zlari kamroq bo'lishi) - bularning barchasini ma'ruzachining o'zi so'zlashi mumkin. Oddiy tuzilgan gaplar o'rni bilan tanishtiradi va yozuvni kattaroq qilishga imkon beradi;

• (asosan termin va ta'riflarda) tushunarli, mantiqiy, aniq bo'lishi zarur. Ommaga taqdim etishdan oldin matnni tekshirishga erinmang.

• Ovoz tiniq bo'lishi kerak. Taqdimotni ovozi qizilish kerak emas, bunda sharhlovchining ovozi eshitib bo'lmaydi, eng yaxshisi ma'ruzachining jonli ovozi hisoblanadi.

• Rasmlar aniq va yetarlicha kattaroq bo'lishi zarur. Rasmlar o'Ichamini katta qilishga urinmang, faqatgina siz sifatini yo'qotasz.

• Videotasmalar taqdimot oynasining uch qismini egallashi zarur. Rasmlar namoyishli bo'lishi kerak. Bezaklar chalg'itishi mumkin.

• Jadvallarda ajratuvchi ma'lumotlar aniq ko'rsatilishi, jadvalarning nomlanishi tagiga katta yozuvlarda berilishi zarur. Jadvalarni haddan ziyod ko'p ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak emas! Jadvalga qancha ko'p ma'lumot kiritilsa, ularni ekrandan qabul qilish qiyin bo'ladi. Taqdimot boshlashdan avval auditoriyada o'tirganlarga javdal va rasm nusxalaridan tarqatish zarur. Chizmalar bir bo'limdan boshqa bo'limga aniq va mantiqiy ravishda o'tishga moslash-tirilishi kerak. O'tish chiziqlari ekranda yaxshi ko'rinishini tekshiring.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

- 1."Innovatsiya" tushunchasi pedagogik faoliyatda qanday nazariyalor orqali ilgari surilgan?
- 2.Ta'limda innovatsiya va innovatsion pedagogik faoliyatning afzalliklari nimalardan iborat?
- 3."Novatsiya" va "Innovatsiya" tushunchalarining bir biridan farqi nimada?
- 4.V. I. Slobadchikov tomonidan keltirilgan ta'rifga ko'ra innovatsion faoliyatning mohiyatini izohlang?
- 5.Pedagogik texnologiya dastlab qaysi davlatda qo'llanilgan va mazmunan qanday harakterga ega bo'lgan?
- 6.Pedagogik texnologiyaga turli mualliflarning bergan ta'riflariga to'xtalng?
- 7."Texnologiya" tushunchasining muhim aspektlari nimalarni o'z ichiga qamrab oladi?
- 8.Zamonaviy darslar qanday tartibda tashkil etiladi?

3-Mavzu: Tarix ta'limi vositalaridan foydalanishga innovatsion yondashuv

Reja:

1. Ta'lim vositalari haqida tushuncha
2. Ta'lim vositalarining klassifikatsiyasi
3. Ta'lim vositalarini tanlashni aniqlovchi omillar, grafik organayzlerlar
4. Ta'limning texnik vositalari: kompyuter va axborot texnologiyalari, elektron o'quv uslubiy majmua va uning tuzilishi

Tayanch tushunchalar

Ta'lim vositalari, matnli vositalar, tasvirli vositalar, audio vizual vositalar, yordamchi (fixoz) vositalar, modelli vositalar, real vositalar, ta'lim berishning texnik vositalar, diaproektor, grafoproektor, doska-bloknor, doska-stend,

videofilmlar, yordamchi texnik vositalar, model-mulyajlar, grafik, diagrammalar, chizma, sxema, xaritalar, o'quv - uslubiy materiallar, ish varaqasi, eslatma, nazorat varaqasi.

Mavzuni va alohida savollarini o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent.: Ma'naviyat, 2008. - B. 173.
- 2.Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Malakali pedagog kadrlar hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida. // Xalq so'zi, 2012. 29 may, № 10.
- 3.O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq, 1997.
- 4.Ishlunhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
- 5.A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov. «Ta'limga innovatsion texnologiyalar» T.:2008
- 6.S.Usmonov. «Pedagogik texnologiya asoslari» T.:2004
- 7.Fuzailova G.S, Rahmatullayeva O.R. «Tarix fanini kasbiy sohalariga yo'naltirib o'qitish metodikasi». Uslubiy qo'llanma. - T., TDPU, 2012.
- 8.Xodiyev B.Yu., Gollish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-studi - iqtisodiy oliy o'quv yurtdagi zamonaviy ta'lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo'llanma "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari" turkumi. - T.: TDIU, 2009.
- 9.Y.Y. Idoshev, F.Yo'ldosheva, G.Yo'ldosheva. "Interfaol ta'lim sifat kafolati". - T.:2008

1. Ta'lim vositalari haqida tushuncha.

O'zbekiston milliy taraqqiyotining eng mas'uliyatli bosqichi-ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning keskin burilishi davrini boshidan kechirmoqda. XX asr tugab, jamiyatimiz har bir fuqarosi XXI asr ibtidosida, ortda qolgan yillarni sarhisob qilish va kelajak hayotining turli jabhalari rejasini belgilab olish muammosiga duch kelishi ijtimoiy fan olimlari zimmasiga katta vazifalarni yuklaydi.

Yuqoridagilar jamiyat hayoti barcha jabhalarining muvaffaqiyatini belgilab beruvchi, shu bilan birga, ularning poydevori hisoblanuvchi ta'lim-tarbiya sohasiga ham to'lafigicha tegishlidir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy, ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l topa olish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda puxta o'zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolar tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ishlab chiqarish kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ishlab chiqarish kadrlar tayyorlash milliy modelida “kadrlarga bo’lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo’yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta’minlash jarayonining ishtirokchisi” sifatida namoyon bo’ladi.

Ushbu pedagogik g’oya ta’lim tizimi oldiga:

- ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy-demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usulbarini ishlab chiqish hamda joriy etishni hal etish vazifalarini ko’ndalang qilib qo’ydi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta’limning dunyo ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va taraqqiy etirish jarayonlarining rivojlanishi ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o’zlashtirish zarurligi ko’p marta takrorlanib, ularni o’quv muassasalariga olib kirish zarurligi uqitirilgan.

Uzoq yillardan beri pedagogik texnologiyalar o’quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish deb qarab kelindi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushuncha yangicha talqin etila boshlandi.

Ta’lim vositalari – o’quv materialini ko’rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o’qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi

Ta’lim vositalari:

1. Ta’lim berishning texnik vositalari
2. Yordamchi texnik vositalari
3. O’quv – uslubiy materiallar

Ta’limning texnik vositalari – o’quv materialini ko’rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi; talabalarga o’quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi (Diaproyektor, Grafoproyektor, Doska-bloknot, Doska-stend, Flipchart, Vidiofilmlar).

Yordamchi ta’lim vositalari – grafiklar, chizmalar, na’munalar va boshqalar (Model-mulyajlar, diagrammalar, sxema, xaritalar va boshqalar).

O’quv – uslubiy materiallar – o’quv materiallar, o’zlashtirilgan o’quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular talabalarning mustaqil ishlashlarini faollashtirishga yordam beradilar (ish varaqasi, eslatma, nazorat varaqasi, matnlar).

Ta’lim vositalari o’qituvchi va o’quvchi uchun, hamda dars o’tkazish uchun alohida variantlarini to’g’ri tanlash muhim ahamiyatga ega.

O’qituvchi uchun vositalar: o’quv predmetini o’qitish metodikasi bo’yicha qo’llanmalar, shaxsiy metodika, murakkab masalalar bo’yicha metodik tavsiyalar, o’qituvchilar tomonidan tayyorlangan metodik ishlanmalar, mantiqiy struktura.

Tarqatma materiallar – ta’lim oluvchilar uchun o’rganilayotgan mavzuga oid asosiy ma’lumotlarni o’z ichiga olgan, hajmi uncha katta bo’lmagan (1-2 varaq) yozma o’quv materiallari hisoblanadi. Mazkur materiallar mashg’ulotni qiziqarli qilish imkonini berib, ko’p hollarda ta’lim oluvchilar uchun mustaqil ravishda o’qib chiqib, muhokama qilish uchun mo’ljallangan bo’ladi. Tarqatma materiallarni tayyorlash va qo’llashda quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim:

- ta’lim oluvchilarga haddan tashqari ko’p tarqatma materiallar bermaslik kerak;
- sarlavhalarni bosh harflar bilan yozish, bir mashg’ulot uchun ikkita tarqatmali material zarur bo’lsa, ularga kod-nom berib ularni ajratishni osonlashtirish kerak;
- matn shrifti 12 dan kichik bo’lmagligi kerak;
- bir betda 80 tadan ko’p belgi (harf, qavs, undov belgisi va h.k.) ishtatmaslik kerak;
- matnlar tushunarli, qisqa va oddiy bo’lishi kerak;
- varaq dizayni e’tiborni o’ziga tortishi kerak.

Ishchi varaqalar – guruhlarda, juft bo’lib va individual mashqlar bajarishda qo’llaniladi. Ular turli jadvallar shaklida bo’lib, ta’lim oluvchilar tomonidan to’ldirish talab qilinadi.

Nazorat varaqalari – mashg’ulot yakunida ta’lim oluvchilarning o’zlashtirgan bilimlarini tekshirishda qo’llanilib, ular test savollari, masalalar va shu kabi shakllarda bo’lishi mumkin.

Matnlar – mashg’ulot mavzusi bo’yicha tayyorgarlik ko’rishda, mashg’ulot davomida shuningdek bilimlarni mustahkamlashda foydalanish uchun ta’lim oluvchilarga taqdim etiladi.

O’quvchi uchun vosita darslik, o’quv qo’llanma yoki o’qituvchining ma’ruza matnlari, jadvallar, turli-xil xaritalar, topshiriq kartochkalar va hokazolar.

Dars o’tkazish uchun plakatlar, diagrammalar, modellar, maketlar, etalonlar, namoyish qilish jihozlari, laboratoriya amaliy ishlarni o’tkazish uchun jihozlari, audiovizual vositalar, diafilm, videoyozuvlar, diopozitivlar.


Tanlab olingan metod, shakl va vositalar bir-birini to’ldirishi ya’ni uyg’unlashuvi kerak. Yuqorida sanab o’tilgan ta’lim vositalaridan samarali foydalanish uchun o’qituvchi qisbi vositani qachon qo’llashini mashg’ulot maqsadi va mazmunidan kelib chiqqan holda belgilab olishi muhimdir.

Grafoproyektor – shaffof plyonkadagi tasvir (slydlar) ni ekranga proyeksiyalash uchun qo’llaniladigan jihoz hisoblanadi. Undan ma’ruza vaqtida materiallarni namoyish qilish uchun, shuningdek guruh ishlari taqdimotida yordamchi vosita sifatida foydalaniladi. Kodoskop foydalanish uchun qulay mashlshuvchi vosita bo’lib, bir marta tayyorlangan plyonkadan ko’p marta


foydalanish mumkin, bundan tashqari doska bo'lmagan hollarda asosiy tushuncha g'oyalari va natijalarni o'qituvchi plynokaga flomaster yordamida to'g'ridan to'g'ri yozib ko'rsatish ham mumkin.

Sinf doskasi – o'quv materialini vizual namoyish qilishning an'anaviy va qulay vositasidir. Undan o'quv materialining asosiy tayanch nuqtalarini belgilashda, yoki biror narsani tez yozish lozim bo'lganda foydalanish juda qulaydir. Bundan tashqari sinf doskasi ta'lim muassasasining har bir o'quv xonasida mavjuddir.

Kamchiligi: yangi materialni tushuntirish uchun doskada yozilganlarni o'chirishga to'g'ri keladi va avval yozilganlarni qayta ko'rsatish imkon



Sinf doskasi.





Doska-stend.

bo'lmaydi. Bundan tashqari o'qituvchi doskaga yozayotganda tahsil oluvchilarga nisbatan teskari holatda bo'ladi va uni eshitish qiyin bo'ladi.


Doska - stend – mashg'ulotlarda o'quv munozaralari, aqliy hujum, guruh ishlari va boshqa muhokamalar natijalarini hujjatlashtirishda foydalaniladigan o'qitishning texnika vositasidir. Bunda stendga o'sha kattalikdagi qog'oz qo'yiladi va unga turli rangdagi hamda shakldagi kartochkalar yopishtiriladi. Mashg'ulot vaqtida stendda mazkur kartochkalar yordamida sxemalar, tuzilmalar sharhlar va shu kabilarni tuzish mumkin.

Doska – stendning afzalligi shundaki, unda kartochkalar (sxemalar, tuzilmalar, sharhlar va h.k.) joylashuvini xohlagan vaqtda o'zgartirish imkoniyati mavjud. Shuningdek doska – stend bilan ishlaganda qisqa vaqt ichida barcha tinglovchilarning fikr – mulohazalari va g'oyalarni qamrab olish va qayd etish imkoniyatiga ega bo'linadi.



O'quv auditoriyalari uchun doskalar tizimi

Doska – bloknot – bu varaqalanadigan qog'ozli doska bo'lib, unga marker bilan yoziladi. U turli muhokamalar yakunlari va natijalarni yaqqol namoyish etishda hamda eng muhim axborotlarni qayd etishda qo'llaniladi. Uning afzalligi shundaki, xohlagan vaqtda oldingi yozilganni qo'yish ham mumkin.



Doska – bloknot

Talabalarni – o'quv bilish faoliyatlarini jadallashtirishga yordam beruvchi har turdagi ta'lim vositalarini tanlash va ulardan foydalanish quyidagilarga bog'liq: 1) maqsadni belgilash; 2) asosiy bilim manbaiga; 3) ta'lim usuliga; 4) o'quv materialining yangiligi va murakkabligiga; 5) talabalarni o'quv imkoniyatlariga.

2. Ta'lim vositalarining klassifikatsiyasi.

Ijtimoiy voqealik ta'limni boshqarish muammolarini ko'rib chiqish va hal qilishni mustaqil yo'nalish sifatida ajratib olish, ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning asoslangan usul, vositalarini ishlab chiqish va joriy qilish zaruratini belgilab berdi. Uning o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish o'rtasidagi tashkiliy-boshqaruv, axborot aloqalari, ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik shaxsni shakllantirishdagi yaxlit jarayonning tarkibiy qismlari sifatini oshirdi.

Bugungi kunda erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirish «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning asosiy ustuvor yo'nalishidir. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga demokratik asoslarini joriy etishni, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishini tezlashtirish imkonini beradi. Dastur ta'lim muassasalarini mustaqilligini kengaytirish orqali ta'lim boshqaruvini demokratlashtirishni o'z ichiga oladi.

Insoniyatning rivojlanish davrlari almashganda pedagogik texnologiyalar butunlay yo'q bo'lib ketmaydi, balki pedagogik texnologiyalar keyingi davrlarga asotsiatsiya orqali fikran bog'lanadi, yangi sifatlar, xususiyatlarga ega bo'lib, kuchayadi va boyiydi. Ushbu jarayon borgan sari tezlashib boradi.

Kishilik tarixida 1-bosqich uzoq muddat davom etgan. Unda o'qituvchi o'z kuchiga, o'z bilim va mahoratiga asoslanib ish bajargan. Keyinchalik dunyoyi

va diniy mazmundagi qo'lyozma kitoblar yaratildi, lekin o'quvchi ularning mazmunini o'qituvchi faoliyati vositasida o'zlashtiradi.

2-bosqich darsliklar yaratish va ulardan foydalanish texnologiyasi mukammal rivojlanmagan, lekin o'qitishning 1,2,3-bosqichlariga xos ta'lim vositalari maktablarga jadal kirib bormoqda.

O'quv adabiyotlarini joriy etish qarama-qarshiliklar ko'rashi natijasida sodir bo'lgan. Keyingi davrlarda ham ta'lim sohasidagi jiddiy o'zgarishlar oson kechmagan. Bugungi kunda ham 1-bosqich texnologiyasi ruhiida shakllangan ayrim pedagoglarda keyingi davrlarda vujudga kelgan o'quv vositalarini o'zlashtirib olishga, ta'lim-tarbiya jarayonini shu asosda tashkil etishga intilish sust darajada. 1-bosqich o'quv vositalari o'qituvchidan ko'p mehnat talab etadi va o'quvchining bilim, tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lmaydi. Bu pedagogik bosqichlarning har birida ta'lim metodlari takomillashtirila borganligi tufayli o'qituvchi mehnatining samarasi ortib, zamonaviy texnologiyani qo'llaydiganlar safi kengaya borgan.

Ta'lim vositalari oltita turga bo'linadi:

1. **Matnli vositalar.**
2. **Tasvirli vositalar.**
3. **Audio vizual vositalar.**
4. **Yordamchi (jixoz) vositalar.**
5. **Modelli vositalar.**
6. **Real vositalar.**

• **Matnli vositalar**-O'qituvchi va o'quvchilar uchun: o'quv predmetini o'qitish metodikasi bo'yicha qo'llanmalar, shaxsiy metodika, o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan metodik ishanmalar, mantiqiy strukturalar, fan darsliklari, mavzu yuzasidan kelib chiqqan holda tarixiy badiiy adabiyotlar, fan bo'yicha ma'ruzalar matni.

• **Tasvirli vositalar**- o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli etkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi (videoproektor, Vidiofilmlar, rasmlar, haykallar, portret).

• **Audio vizual vositalar**-Matnga ovoz berish, Lingafon vositalari, radioshhiti rishlaridan foydalanish, stenogramma matreallari, turli xildagi disklar va hakoazolalar.

• **Yordamchi (jixoz) vositalar**- Grafoproyektor, Doska-bloknot, Doska-stend, Flipchart, va boshqalar).

• **Modelli vositalar**- grafiklar, chizmalar, sxema, xaritalar

• **Real vositalar**- tarix darslarida muzey eksponatlari, maket va mulyajlar arxeologik matreallar, tarixiy obyektlar.

3. Ta'lim vositalarini tanlashni aniqlovchi omillar, grafik organayzerlar.

Ta'lim vositalarini tanlashni aniqlovchi omillar: maqsadni belgilash; o'quv axborot mazmuni; ta'lim vositalari; yetakchi bilim manbai; o'quv materialining yungiligi va murakkabligi.

Grafikli organayzerlar texnikasi

ГРАФИКЛИ ОРГАНИЗЕРЛАР

Графикли органайзерлар (ташқил этиш) — фикрий жароҳатларни эҳтиш этиш тасвирли воситаси.

Маълумотларни таркиблаштириш ва таркибий бўлиб чиқиш, ўрганилаётган тушунчалар (воқеа ва ҳодисалар, мавзулар) ўртасидаги алоқа ва ўзаро боғлиқликни ўрнатил усул ва воситалари: Кластер, Тоифалаш жадавали, Инсерт, Б/БХ/Б жадавали

Маълумотларни таҳлил қилиш, солиштириш ва таққослаш усул ва воситалари: Т-жадавали, Венн диаграммаси

Муаммони аниқлаш, уни ҳал этиш, таҳлил қилиш ва режалаштириш усуллари ва воситалари: «Нима учун?», «Балиқ скелети», «Погон», «Қандай?» иерархик диаграммаси ва х.к.

Кластер

КЛАСТЕР


(Кластер-тутам, боғлам) акборот хабарини тузиш бунда барча тузишнинг маънавийни марказлаштириш ва диалогни учун маънавий бирор асосий оқиёт атрофида голларни йиғиш. Файлларнинг фаоллаштирилиши тасдиқлаштириши, фикрнинг жарёбига махсус бунда янги узаро боғланишда тасдиқларнинг эркин ва оқиллаб юзланишига эриши бериши.

Кластерни тузиш қондаси бизни танишилади. Бува тахтаси биз жатта ақоли зарарини уртанга асосий сўз биз 1-2 сўзди иборат булан махсус номи ёзилади.

Бирима бунда асосий сўз бизни туниги ёнида махсус бизни боғлам сўз ва тақдирлар кичини доирачалар "булоқлар" ёниб кўчилади. Уларни "асосий" сўз бизни махсус сўз билан бирлаштирилади. Бу "булоқларда" тақдир "булоқлар" бундан мумкин. Бува ақаратган вақт давомида биз голлар туятуғунча давом этиши мумкин.

Мухокама учун кластерлар бизни алмаштиради.

5



Кластерни тузиш қондаси

1. Ақлингизга нима келса, барчасини ёзинг. Голларни сифатини мухокама қилманг фақат уларни ёзинг.
2. Хатини тўхтатадиган ишло хатоларига ва бошка омилларга эътибор берманг.
3. Ақратилган вақт туятуғунча ёзини тўхтатаманг. Агарда ақлингизда голлар келиши бирдан тўхтаса, у қолда қачонки янги голлар келмағунча қозоғга расм чишиб туринг.

7

ТОИФАЛАШ ЖАДВАЛИ

Тоифани шарҳлашни тузиш қондаси бизни танишилади. Ақлий ҳужум / кластер тузиш / янги ўқш материал билан танишилади сўз, кичик ҳужумларда, олинган маълумотларнинг бирлаштирилиши чексизлик берилган тоифаларни кўчирилади.

ТОИФАЛАШ ЖАДВАЛИ

Тоифа-ҳужумат ва муносабатларни муволақатини намоён қилуви (умумий) давом. Ақратилган аломатлар асосда олганга маълумотларини бирлаштиришни таъминлайди. Тизимли фикрларни маълумотларини тузилмага келтириш, тизимлаштириш, қишлоқларини ривожлантириши.

Тоифаларни жадвал кўринишида расмийлаштирилади. Голларини / маълумотларини тоифага мос равишда буладилар. Иш жарёида тоифаларнинг айрим номлари ўзгариши мумкин. Янгилари байса бўлиши мумкин.

Иш натижаларини тақдироти

Тоифалаш шарҳини тузиш қоидаси

1. Тоифалар бўйича маълумотларни тақсимлашнинг ягона усули мавжуд эмас.
2. Ёнги мини - гуруҳда тоифаларга ажратиб бошқа гуруҳда ажратилган тоифалардан фарқ қилиши мумкин.
3. Таълим олувчиларга олдидан тайёрлаб қўйилган тоифаларни бериш мумкин эмас бу уларнинг мустақил таълими була қолсин.

9

ТОИФАЛАШ ЖАДВАЛИ

Дастурий таъминот		
Тизимли дастурий таъминот	Амалий дастурлар пакетлари	Дастурлаш тиллари
1. Операцион тизимлар: *MS DOS *Linux *Windows *Unix 2. Сервис дастурлар: *Антивирус дастурлари *Утилитлар *Оболочки *Архиваторлар ва х.к.	1. МББТ 2. Матн муҳаррирлар 3. Электрон жадваллар 4. График муҳаррирлар 5. Таржимачилар 6. Муаммога мўжалланган ва х.к.	1. Паскаль 2. Delphi 3. СИ++ 4. Бейсик 5. Java 6. PHP ва х.к.

10

ИНСЕРТ ЖАДВАЛИ

График ташкил этувчининг тури, аҳамияти ва хусусиятлари

Ўқув фаолиятини ташкиллаштиришнинг жараёни тузилиши

Инсерт жадвалини тўлдирish қоидаси билан таъинлашдилар. Алоҳида ўллари тўлдирдилар

"ИНСЕРТ" жадвали Мустақил ўқиш вақтида олган маълумотларни, эшитган маълумотларини тизимлаштиришни таъминлайди; олинган маълумотни тасдиқлаш, аниқлаш, четга чириш, кузатиш. Аввал ўзлаштирган маълумотларни боғлаш қобилиятини шакллантиришга ёрдам беради

Ўқиш жараёнида олинган маълумотларни алоҳида ўзлари тизимлаштиришдилар - жадвал устуниларига "кўриладилар" матнда белгиланган қуйидаги белгиларга мувофиқ:
 "V" - мен билган маълумотларга мос;
 "-" - мен билган маълумотларга эид;
 "+" - мен учун янги маълумот;
 "?" - мен учун тушунарсиз ёки маълумотини аниқлаш, тўлдирish талаб этилади

Ёй пайдо

- V - биламан
- (-) - тўғри келмади
- (+) - янги ахборот
- (?) - тушунмадим

V	+	-	?

Б/БХ/Б ЖАДВАЛИ

Б/БХ/Б ЖАДВАЛИ
Биламан билгиши хоҳлайман билгиш олим. Маъно, маън, бўлиш бўлини, изланувчанлиги олиб, бориш имконини бериши. Тизимли фикрлаш, таҳлил қилиш кў-нималарини ривожлантиради.

Жадвални тузиш келадис билгиш таънишадилар. Аллоҳда жадвални гуруҳларда расмийлаштирадилар.

"Маъно бўлини хоҳлайман" ва "Маъно билгиши хоҳлайман" деган саволларга жавоб берадилар (олдиндаги иш ун йўналтирувчи асос яратилди). Жадвални 1 ва 2 бўлиmlарини тўлдирадилар.

Маърузани тинглайдилар. мустақил ўйлайдилар.

Мустақил/кичик гуруҳларда жадвалнинг 3 бўлимини тўлдирадилар.

Б/БХ/Б ЖАДВАЛИ

Биламан	Билишни хоҳлайман	Билиб олдим

16

T – жадвал

T – жадвал қоидалари таънишлади. Яқка тартибда расмийлаштирилади.

T – жадвал
- бита концепция (маълумот)нинг жиҳати ўзгари солиштириш ёки уларни (хал/ўқ, хал/қарши) учун. Танқидий мушоҳада ривожлантиради.

Ажратилган вақт оралиғида тартибда (жуфтликда) тўлдирлади, унинг чап томонига саволларни ёзилди, ўнг томонига эса чап томонда ифода қарана – қарши қоллар, омилар ва шу қабилир.

Жадаллар жуфтликда (гуруҳда) таққосланиши тўлдирилиши.

Барча ўқув гуруҳи ягона T – тузади.

T-ЖАДВАЛ «Тест назорати» Ютуғи Камчилиғи

- Ватқни тежалиши
- Фронтал ҳолда иш олиб бориш имкони
- Мантқий фикрни ривожлантириш.
- Баҳолаш қўлай
- Нутқнинг ривожлан-маслиғи.
- Мулоқотнинг йўқлиғи.
- Ҳамкорликда фао-лиятнинг йўқлиғи.
- Педагогик муно-сабатнинг йўқлиғи.

ВЕНН ДИАГРАММАСИ

ВЕНН ДИАГРАММАСИ - 2 ва 3 жиҳатларни ҳамда умумий тасомиларни соловчиларни ёки таққословчи ёки қарама қарин қўйиш учун қўлланилади. Тизимли фикрлаш, соловчиларни, таққословчи, таққословчи тушунчаларни ринковлаштирилади.

Венн диаграммасини тушиш қандайдир бисмат танишадилар. Алҳолкида кичик гурӯҳларда Венн диаграммасини тўздилар ва кесимайдиган жойларини (x) тўдилардилар.

Жуфтликларга бирозларилар, Уларнинг диаграммаларини таққослайдилар ва тўдилардилар.

Домраларни кесилушни доғизда, икки-уч домралар учун умумий бўлаг, динийумотлар рўйхатини тўздил.

«Венн» диаграммаси

- 2 объектни, тушунчани, ғояни, ҳодисани таққослаш фаолиятини ташкил этиш жараёнида ишлатилади.

“Нима учун” схемаси

“Нима учун” схемасини тушиш қандайдир бисмат танишадилар. Алҳолкида кичик гурӯҳларга муаммони афозалайдилар. “Нима учун” сурогини барқарор ва қилдилар, шу савалга жакоб ёдилар. Бу жараён муаммонинг дастлабки давлатини аниқлашга унча давом этади.

“Нима учун” схемаси муаммонинг дастлабки сабабларини аниқлаш бўйича фикрлар занжорини. Тизимли, иккуний, таққословчи фикрларни ринковлаштирилади ва фаоллаштирилади.

Кичик гурӯҳларга бирозларилар, таққослайдилар, Уларнинг чечмаларини тўдилардилар. Умумий чизмага келтиридилар.

Иш натижаларининг таққословчи



«Нима учун?» чизмасини тушиш қондалари

1. Аниқлаш ёки тушиш тўртбунча аниқлашдан фойдаланишни унча таққословчи.
2. Чизманинг сурогинини - муаммонлар аниқлашга унча чизманинг тушиш чизмаси эмаслигини унча таққословчи.
3. Бурастини курашувчиларга ситини келтиришувчиларини дастлабки ҳодисани аниқлашга бураини қўлланишга белгилайди.

"Балиқ скелети" чизмаси


Чизмани тузиш қондаси: бундан ташкилдорлар. Аллоқда қичқик тузуқларда қочқори "сузғилда" қичқич муаммонот инфодалайдан, настула жда, ушбу қичқик муаммонотар мақжудлигини тасдиқлоғичи далиллар ёзулади.

Қичқик тузуқларга: биринчидан, таққослайдиқлар, узларнинг чизмаларини туларидиқлар. Узумий чизмага қелтирилади.


Иш натижаларининг тақдимоти

"Балиқ скелети" чизмаси
Бир қичқик муаммонотарни тасвирлаш ва уни ечиш имконини беради. Тизимли фикрлаш, муаммонотарни келтириш, тасдиқ қилиш қушимларини дивожланттиради.

"БАЛИҚ СКЕЛЕТИ" ЧИЗМАСИ



Тузилмавий-мантиқий чизма "Поғона"



Тузилмавий-мантиқий чизма "Поғона"ни қуриш қондалари

1. «Поғона»ни тузиш жарафидда тизимли схеманинг тартибиди қисми ва элементларини сиқжетиш мүмкин – бу у ёки бу ҳолатни қайта фикрлаш имконини беради.
2. Агарда сиз ёзиларни қиллаб чизарда топ бўлаққа қичқик қондасиз, у ҳақда бир-икки даража юқорига қайтиш ва олғичи шарҳни унутмағанингизга ҳақда бошқача тизимлар қилиш мүмкин эканлигини қуриб чиқаринг.
3. Сиз чиздан унга ёзишча ургангансиз, «Қосқил» қуриштинг унсдан чизга қураб тузишга ҳаракат қилинг. Бунигиз учун ёзиларни азияти чиз тарафда қилас, бошқича уш тарафда ёзиларингиз.

«Қандай» технологияси

- Муаммони қандай ҳал этиш мумкин эканлиги муҳокама қилинади
- Қандай?
- Қандай?
- Қандай?
- Қандай?
- Қандай?
- Қандай?

«Қандай?» диаграммасини қуриш қондалари

1. Қўшни ҳақларда муаммони ечинди "нимо қилиш керак" ни тўғриликда ўқибди рақамлиқликни керак. Ассон муаммо, уни ечинди "буни қилиш қилиш керак?", "қандай" асосий символлар қилиш қилишдан иборат бўлади.

"Қандай" символларнинг қилиш беришни қўшниликлар имконини бериши: муаммони ечинди қилишди бер қондаларини, баъзи уларни амалга ошириш бўлаётган ҳақиқатларни:

қўшнидан юзюзида босқичма-босқич бўйлабдан гапар тузишнинг аниқлиқлар. Диаграмма стратегия даражадаги саволлар билан ниҳилани босқичдан. Муаммони ечининг паски даражаи биринчи гадаги ҳаракатларнинг рўйхатиға мос келди.

1. Биринчи қилишди ўқибди ўқибди, баъзиликлардан ва тўғриликлардан тизимда қилиш керак:

Диаграммани дег қилиш тузишдан бўлади; усти янги қилиш қилишди муаммо: Алғиди қилишди савол усти "қилишди" бир неча бир қилишди усти у бирер муаммони аниқлади. У муаммони ечинини асосий бериши муаммо;

Янги қилишди график қилишди: биринчи ёки қилиш қилишди, қўшнидан қилишди ёки қилишди ўқибди қилишди ўқибди ҳақиқат:

Алғиди савол усти амалга ошириш символлар беришиға ва усти ўқибди қилишди ўқибди қилишди қилишди қилишди, қилишди, сиз ҳақиқат муаммони қилишди қилишди қилишди қилишди қилишди қилишди қилишди

4. Та'limning texnik vositalari: kompyuter va axborot texnologiyalari, elektron o'quv uslubiy majmua va uning tuzilishi.

Kompyuter texnikasining ta'lim jarayoniga kirib kelishi bilan "Inson kompyuter" muammosi markaziy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu muammo global va serqirra yo'nalishlarda bo'lib, kompyuter bilan turli xil ko'rinishdagi aloqa va munosabatlar asosida insonning bilim olish va dunyoqarashlari shakllanishining ilmiy - metodologik qarashlari konsepsiyasini yaratish zaruriyatini tug'dirmoqda.

Bu jarayonning to'g'ri, maqsadli tomonga qaratilgan yo'nalish, imkoniyatlarini topishga to'g'ri keladi.

Kompyuterli darslarni tashkil etuvchi, uni amalga oshiruvchi shaxslar: - kompyuterning tuzilishi, imkoniyati, boshqarish malakasini egallashi kerak.

- Kompyuter savodxonligini egallashi kerak.
- Ta'lim mazmunini dasturlash, loyihalash, modullash, algoritmlash, dasturlay olishi kerak.
- Kompyuterda o'quvchilarni individual ishlay olish, boshqarish malakasini shakllantirishi talab etiladi.
- O'quv jarayonida o'qituvchi dastur - kompyuter - o'quvchi munosabatlari o'rnatilishi taqozo etiladi.

Bunday darslar o'quv materiallarini o'quvchi tomonidan shaxsiy xatti harakatlari orqali tez, soz o'zlashtirishlarga kafolat hisoblanadi.

Agar axborot texnologiyasi kompyuter asosidagi darslar maxsus ilgaridan tayyorlangan dastur, loyihalar, modullar bilan ta'min etilsa, o'quv - biluv jarayoni samarali kechadi.

Axborot texnologiyasi, kompyuterlar yordamida ta'lim mazmunini algoritmlash uni modullarga ajratish, ketma - ketligini ishlab chiqish, dasturlab olish pirovard o'quv maqsadiga erishish yo'llarini ilgaridan ajratish imkonini beradi. Axborot texnologiyasi, kompyuterlar yordamidagi darslarning sifat ko'rsatkichlari quyidagi asosiy faktorlar bilan aniqlanadi:

- O'quv dasturining sifati shakllantirilganligi
- Kompyuter texnikasining sifati va uning imkoniyatlari
- Shaxsning kompyuter imkoniyatlarini o'zlashtirib olish malakalarining shakllanishi shuning uchun ham axborot texnologiyasi kompyuter yordamidagi darslar dasturlangan loyihalangan hollarda amalga oshirish uchun qulay vaziyat yaratadi.

Loyihalashtirilgan, dasturlashtirilgan axborot texnologiyalari kompyuterli darslarning qulayligi shundaki, unda o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirib olayotganligini doimiy ketma - ket kuzatishga, nazorat olib borishga, kerak hollarda tuzatishlar kiritib borishga imkoniyat yaratiladi.

Ta'lim jarayonida axborot - kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishdagi quyidagi bosqichlarga e'tiborni qaratish kerak:

- Ta'lim oluvchilarga o'quv materiallarini taqdim etish va tushuntirish bosqichi;

- Kompyuter bilan o'zaro muloqot jarayonida o'quv materiallarini o'zlashtirish bosqichi;

- O'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni takrorlash hamda mustahkamlash bosqichi;

- Erishilgan yutuq va natijalarni o'zini o'zi tekshirish orqali, nazorat qilish bosqichi;

- Orafiq va yakuniy nazorat bosqichi;

- O'zini o'zi, shuningdek, oraliq va yakuniy nazorat bosqichlar natija va xulosalarga ko'ra o'quv materiallarining taqsimlanishi tasniflanishi, tizimga solinishini korrektsiyalash, tuzatishlar kiritish bosqichi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, axborot texnologiyalarni qo'llash bo'yicha yaratilayotgan o'quv reja va dasturlarni yaratish, tuzish yuqoridagi keltirilgan bosqich - yo'nalishlarni alohida - alohida modullashtirish, loyihaviy sifatida kiritish yaxshi natijalarga olib keladi.

EO'UM - bu barcha tarkibiy qismlari elektron hujjat shaklida tayyorlanadigan fanning o'quv-uslubiy majmuasidir. EO'UM o'z ichiga majburiy va qo'shimcha qismlarni qamrab oladi.

Majburiy qism qo'yidagi 4 ta komponentdan iborat:

1. Dasturiy komponent:

- Fan dasturi - uslubiy me'yoriy hujjat bo'lib, davlat ta'lim standartining muayyan fan bo'yicha bakalavr (magistr)darajasi va mutaxassisligi bilim ko'nikma, va malakalariga qo'yilgan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi;

- Fanning ishchi dasturi - uslubiy me'yoriy hujjat bo'lib, fan dasturi bo'yicha bakalavr (magistr) bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi.

2. Fanning mazmunini belgilovchi komponentlar:

- Elektron o'quv qo'llanma (yoki ma'ruzalar matni) - davlat ta'lim standartida va o'quv dasturlariga muvofiq ravishda o'quv fanining to'liq yoki alohida bo'limlarining tizimli bayoniga ega bo'lgan yagona kompyuter dasturi muhitida gipermatnli texnologiya asosida multimedia komponentlarida foydalanigan holda interaktiv muloqot imkoniyatini yaratuvchi, zarur hollarda qo'shimcha dasturiy modularga ega bo'lgan elektron o'quv nashri.

- Virtual amaliy-laboratoriya - o'tilgan nazariy materiallarni o'zlashtirishga, amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan tadqiqot obyektiga bevosita muloqotga chiqmagan holda turli hil hodisa jarayonlarni modellashtirish orqali tajriba-sinov o'tkazish imkonini beruvchi maxsus dasturiy vositalar majmuasi.

- Elektron lug'at - kompyuter yoki boshqa elektron tashuvchida o'rnatilgan lug'at bo'lib, zarur so'zlarni uning morfologiyasi yoki u bilan bog'liq so'z jumlasiga orqali tezlik bilan topish imkonini beradi. Uning ichki tuzilishi lug'at maqolalari jamlamasidan iborat ma'lumotlar bazasi shaklida qurilgan bo'lib tarjima qilish yo'nalishini o'zgartirish funksiyasiga (misol uchun: ruscha o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha) ega bo'ladi. An'anaviy lug'atlardan farqli ravishda elektron lug'at matn va grafikaviy tasvirlar bilan bir qatorda video va animatsion

lavhalar, tovush, musiqa va boshqalar bilan birga media-obektlarning butun spektrlarini o'z ichiga olishi mumkin.

3. Metodik komponentlar:

- O'qituvchiga mo'ljallangan metodik komponent: elektron metodik qo'llanma (yoki ma'ruzalar matni) - pedagogik tajribani umumlashtirish va o'zlashtirish hamda ta'lim faoliyatining yangi modellarini shakllantirish va tarqatish shakli. Elektron uslubiy qo'llanmada pedagogik tajriba boshq'ulotlarning raqamlashtirilgan video-lavhalari, elektron yoki unga ugirilgan shaklda yaratilgan talabalar ishlarini darslar bo'yicha rejalashtirilgan shaklida ko'rsatiladi. Unda mashg'ulotlar uchun texnologik xarita va didaktik materiallar beriladi. Didaktik materiallarga o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchilari tushuniladi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda o'quv-didaktik materiallar sifatida qo'llaniladigan matnli - vizual vositalar, amaliy mashg'ulotlarda ko'rs materiallari, uslubiy qo'llanmalar, jadvallar, jihoz yoki asbobi ishlatish bo'yicha ko'rsatmalar hamda elektron ta'lim resurslari ro'yxati beriladi.

- Talabaga mo'ljallangan metodik komponent: seminar, amaliy va laboratoriya ishlar va ularni bajarishga mo'ljallangan metodik tavsiyalar; mustaqil ishlar va ularni bajarishga mo'ljallangan metodik tavsiyalar;

4. Baholash komponentlari:

- Joriy, oraliq va yakuniy nazorat bo'yicha elektron test savollar, elektron topshiriqlar, nazorat ish variantlari, muammoli vaziyatli topshiriqlar, boshqotirmalar, taqdimotlar, kurs ishi mavzulari va h.k.

- Elektron testlar - saqlangan, islov berilgan va testlashtiruvchiga kompyuter yoki telekommunikasion texnika yordamida taqdim etiladigan testlar. Testlashtiruvchi «qog'oz» blankalarni to'ldirib, so'ngra unga kompyuterda ishlav bersa, bular kompyuterli test bo'lib hisoblanmaydi.

- Elektron topshiriqlar o'qituvchiga ta'lim oluvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda mustaqil va nazorat ishleri uchun tartibga keltirilgan topshiriqlar majmuini o'zida aks ettiruvchi axborot manbasining muhim ko'rinishidir. Yaratilgan topshiriqlar ta'lim oluvchilarga an'anaviy «qog'oz» li va elektron variantlarida taqdim etiladi.

- EO'UMning qo'shimcha qismlari elektron xrestomatiya, elektron jumallar, Internet saytlar kabi manbalardan iborat bo'ladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Ta'lim vositalari tarkibiga nimalar kiradi?

2. O'quv jarayonining texnologik xaritasi qanday tashkil etiladi?

3. Ta'lim vositalaridan foydalanishning samadorligi nimalardan iborat?

4. O'quv faoliyatida Insert jadvali qanday tuziladi?

5. O'zbekiston tarixidagi biror bir mavzuni baliq skleti chizmasi orqali qanday ifodalash mumkin?

6. Elektron o'quv-uslubiy majmua yaratish bosqichlari haqida fikr bildiring?

4. Mavzu: Tarix fanini o'qitishda chet el tajribalarini o'rganish va foydalanish

REJA:

1. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'im jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash tajribasi.
2. Xorijiy mamlakatlar pedagogik tajribalaridan foydalanish.
3. Xorijiy mamlakatlarda o'quv topshiriqlariga beriladigan e'tibor va ularning turlari.

Tayanch tushunchalar

Chet el tajribasi, eksperiment, to'yifali ta'lim, bakalavr, magistr, oliy texnologiya maktabi, oliy muhandislik maktablari, oliy arxitektura maktablari, oliy tijorat maktablari, siyosiy fanlar oliy maktabi, oliy pedagogik va filologiya bilimgo'hlari, oliy tibbiyot o'quv muassasalari, oliy badiiy maktablar, o'zluksiz ta'lim [malaka oshirish].

Mavzuni va alohida savollarini o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J.G.Yo'ldoshev "Xorijda ta'lim" T.:1995
2. J.G.Yo'ldoshev "Yangi pedagogik texnologiyalar yo'nalishlari, muammolari va yechimlari" T.:1999
3. J.G.Yo'ldoshev.S.A.Usmonov "Pedagogik texnologiya asoslari" T.:2001
4. N.Saidahmedov. "Yangi pedagogik texnologiya" T.:2003
5. A.Abdugodirov, R.Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.:2008
6. S.Usmonov. "Pedagogik texnologiya asoslari" T.:2004

Vatanimiz ta'limi keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishdek murakka jarayonni boshidan kechirmoqda ulardan ko'zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish bu vazifalarning muvaffaqiyatli hal qilinishini muhim shartlardan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalariga munosabati tubdan o'zgartirishdan iborat ekanligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Bu tajribalarni sinchkovlik va qand bilan o'rganish orqali ta'limda xato va yangilashlardan, shubhali xulosalardan o'zimizni saqlashimizdan tashqari ta'lim-tarbiyada qotib qolgan, eskirgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari va uslublaridan tezroq xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz.

Shuni e'tirof etish kerakki, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sohasida ulka o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir davrda bizda ta'lim mazmunini yangilash us boshqarish yangi pedagogik texnologiyani maktab hayotiga tatbiq etishda ham kamchiliklar mavjud.

Ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy-texnika taraqqiyoti yangi texnologik rivojlanish sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini etishtir berish yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda o'z

ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish uni muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddadidir.

Rivojlanayotgan xorijiy davlatlarda ta'limning, mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini qitiosidi taminlashga qaratilayotgan mablag' miqdori yildan yil oshib bormoqda. Yaponlarda, masalan "maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli"gina bo'lib qolmay, "u insonlarni yaxshilaydi", degan fikr insonch timsoliga aylangan. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tatqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli oliy muassasalar faoliyatli olib boradi.

Fransiya, Germaniya, AQSh, Yaponiyada ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tatqiqot markazlari shug'ullanmoqda. Ular faoliyatini esa xalqaro ta'lim maktablari, masalan AQShda xalqaro ta'lim instituti muvoffiqlashtirib bormoqda. Asosiy o'quv dasturlariga ma'lum cheklanishlarni kiritish, alohida predmetlarni tuzatishni kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtiradi va o'quvchilarni ortiqcha yuk dan halos qiladi. Bu masalani ijobiy hal etishda o'quv kurslari integratsiyasini amalga oshirishga yordam beradi. Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirildi. Fransiya maktablarida ularga 6-10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o'quv soatlari ajratildi. Chet el tajribalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim mazmunini qayta qayta ishida shoshma-shosharlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Fikrimizcha, bu sohada samaraliroq yo'l integratsiya va ixtisoslashtirishga asoslangan o'quv dasturini yaratishdir.

Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor tobora ortib bormoqda. Qobiliyatli bolalar bilan ishlash dasturlari AQShda keng ko'lamga ega keyingi davrlarda o'z tengdoshlariga nisbatan qobiliyatli bir necha barobar ilgari lab ketgan bolalar bugun ko'pchilikni tashkil etmoqda. Bunday iqtidorli talabalar maktabi g'arbda 60-yillardayoq paydo bo'lgan edi. Qobiliyatli bolalar bilan ishlash dasturi AQShda keng rivojlangan. 70-yillarda AQShda kelajak maktabi umummilliy loyihasi ni amalga oshirishga kirishildi. Bu eksperiment mazmunini o'quvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini berishdan iborat.

AMERIKA QO'SHMA SHTATLARIDAGI TA'LIM

AQShda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Shunisi diqqatga sazovorki, AQSh maktablarining bitiruvchi sinf o'quvchilaridan tashqari barcha o'quvchilar ta'llilar paytida ish bilan band bo'ladi. Ta'lim tizimlariga mablag' sraitish bo'yicha AQSh dunyo mamlakatlari o'rtasida yetakchi o'rinni egallaydi. Amerika boy mamlakat lekin bu mamlakatda bolalar uch yoshga tulguncharicha onalarga turli moddiy imtiyozlar berilish nazarda tutilmagan. Boshlang'ich maktablarning asosiy vazifasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'limni bilim, ta'lim berish, ularning umuminsoniy, axloqiy xislatlariga ega bo'lib shakllanishini taminlashdan iboratdir. Amerika maktablarida o'quv-tarbiya

ishlari bilan bog'liq masalalarni o'raligicha har bir shart o'ziga mustaqil belgilga olish huquqiga ega. Shu boisdan boshlang'ich maktablarda o'quv davomiyligi turli shartlarda turlicha. Ya'ni boshlang'ich ta'lim 4,5,6,8 yillik bo'lishi mumkin. O'quvchining boshlang'ich ta'lim bosqichidanoq o'quvchilar uchun turli to'garaklar, sayohatlar tashkil etiladi. Ma'lum darajada 9-sinf bitirganlar yuqori maktablarga tanlov yo'li bilan qabul qilinadilar. Lekin yuqori va o'rta maktab o'quvchilarining bilimiga qarab tabaqalashtirilganligi tufayli 86,4 foiz o'quvchilarga qabul qilinadi.

O'rta maktab o'quvchilari kundalik faoliyatida yarim vaqtini o'z sinflarida, qolgan vaqtini esa laboratoriya va tajriba maydonchalarida o'tkazadilar. O'quvchilar va ota-onalarning istaklariga muvofiq, kasb-hun yo'nalishlariga mos keluvchi predmetlardan olinuvchi saboqlarni ko'paytirish mumkin. AQShda har bir o'quvchining fanlar bo'yicha olgan bilimlari jamlovchi attestatlari mavjud bo'ladi. Odatda o'quvchilarga dastlabki 6 yil davomida barcha o'quv predmetlari bo'yicha bir o'quvchisi bilim beradi. Ayni maktab o'quvchilarining o'quv predmetlarini o'zlashtirishda eng yangi o'qovositalarini qo'llash va organilayotgan darsliklarni programmalashtirish tufayli amalga oshiriladi. AQShda oliy ta'lim 4 asosiy bosqichda amalga oshiriladi: kichik mutaxassislik, bakalavr, magistr, va doktorlik. AQSh ta'lim tizimi asosi ikki bosqichdagi ananaviy yo'nalishdan iborat.

Oliy ta'limdagi o'z oldiga qo'ygan maqsadi va o'quv dasturlari jihatidan biridan qat'iy chegaralangan. Birinchi bosqich garchi AQSh oliy ta'lim bosqichida deb yuritilsada ularni vazifasiga ko'ra bizdagi maxsus o'rta ta'lim yurtlariga tenglashtirish mumkin. Bu bosqich 2 yillik kollej shaklida bo'lib bitiruvchilarning uchdan ikki qismi 4 yillik kollejlarning III-ko'rsiga qabul qilinadilar. Qolgan bir qismi esa kichik mutaxassis guvohnomasini oladi. Bu yillik kollejlarning 87foizi davlat ixtiyorida, qolgan 13 foizi esa xususiydir.

1-bosqich oliy ta'limni tugatgan talabalarga 2-bosqichdagi to'rt yillik kollej va dorilfununlarga kirish imkoniyati beriladi. Bunday oliy o'quv darajasi bitirganlarga 1-darajali bakalavr unvoni beriladi. 2-bosqich oliy o'quv yurti bitirganlarning bir qismi nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlash uchun to'rt yil ishlab chiqarishga borib ishlaydilar. 3-bosqich —magistr maktabi hisoblanib, unda o'qish muddati 1-2 yildan iborat. 4-bosqich doktortant bosqichidir tinglovchilar unda 3-4 yil ta'lim oladilar.

AQSh ta'lim tizimining oliy bosqichi to'g'risida gap ketar ekan, uning ananaviy yo'nalishi mavjudligini qayd etmoq kerak. Birinchisi, bu ta'lim individuallashtirish bo'lsa, ikkinchisi, talabalarining mustaqil ishlashlarini amalga oshirishdir. Amerika pedagogikasida ta'limning bosh maqsadi intellektni ma'qildirish, xulosalash, mantiqan fikrlash qobiliyatini o'rnatishdan iboratdir.

FRANSIYADA TA'LIM TIZIMINING AMALGA OSHIRILISHI

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o'rindardan birini egallaydi. Uning ta'lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Fransiya ta'limining asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topish

ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlarining kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash bozor munosabati sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rnatish va shunga xos kasbga yo'naltirishdan iborat. Boshlang'ich sinflardagi o'qish o'rtalabki va tushdan keyingi qiymatlarga bo'linadi.

Fransiyada boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb etiladi. Fransuz maktablarida nafosat ta'limiga ham alohida ahamiyat beriladi. Bunday ta'lim uch tartibdan iborat: musiqa, tasviriy san'at va sport. O'quvchilar 11yoshda boshlang'ich maktabni tugallab o'rta maktabga o'tadilar.

Fransiyada oliy ta'lim professional ta'lim berish keyingi 20 yil davomida qator topdi. Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisoslik beruvchi oliy texnologik institutlar mavjud. Fransiya ta'lim tizimlarida maktabdan va sinfdan tashqari muassasalar ko'zda tutilmagan. Biroq maktablarda va liseylarda turli to'garaklar mavjud. O'quvchilar uchun turli sport seksiyalari sayohatlar, musobaqalar o'quv muassasasining o'zida tashkil etiladi. Fransuz yoshlari, Fransiyada bilim olish uchun kelgan chet el fuqarolari quyidagi bilim maskanlarida oliy ma'lumot oladilar:

- Universitetlar;
- Oliy texnologiya maktablari;
- Oliy muhandislik maktablari;
- Oliy arxitektura maktablari;
- Oliy tijorat maktablari;
- Siyosiy fanlar oliy maktabi;
- Oliy pedagogik va filologiya bilimgozlari;
- Oliy tibbiyot o'quv muassasalari;
- Oliy badiiy maktablar;
- O'zluksiz ta'lim [malaka oshirish]

Oliy ta'lim beruvchi universitetlar o'z talabalariga uch siklda bilim beradilar. Birinchi sikl umumiy yoki biron texnik yoki ilmiy sohada oliy ma'lumot olish bilan yakunlanib, o'qish ikki yil davom etadi. Talabalar uni magistr, magistr darajalari bilan yakunlaydilar. Uchinchi siklda o'qish bir ikki yil davom etadi.

biron-bir predmetni chuqurlashtirib o'rganilganligi haqida diplom (bir yil); ixtisoslashtirilgan oliy ma'lumot to'g'risida diplom (bir yil); uchinchi sikl doktorlik dissertasiyasi (bir, ikki yil); davlat doktorlik dissertasiyasi-biron-bir sohani mukammal o'rganib, dissertasiya yozish kabi hujjatlar olish mumkin.

Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mavjud. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko'rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashtirilgan. O'qish muddati 2 yil bo'lib, darslar haftasiga 30-35 soatni tashkil etadi. O'qish davomida 8 haftalik ishlab chiqarish amaliyoti ham ko'zda tutilgan.

Fransiyada mingdan ortiq ana shunday insitutlar faoliyat ko'rsatib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, san'at, informatika, ma'muriy boshqaruv, buxgalterlik

hisobi, amaliy san'at bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydilar. Bunday insitultlar kichik imtixonsiz amalga oshiriladi.

GERMANIYADA MAKTAB VA OLIY TA'LIM

Takidlab o'tish lozimki, Germaniyaning hozor iqtisodiyotiga o'tish yo'zining Respublikamizdagiga o'xshab ketadi. Jahonning ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelayotgan dunyoning iqtisod rivojlangan davlatlari ichida kuchli davlatlar qatoriga Germaniyada ham ta'lim tizimi o'z rivojlanish bosqichiga ega. Maktabgacha ta'lim tizimi Germaniya ta'lim tizimida muhim bosqich hisoblanadi. Uning yuz yildan ortari mavjud. Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun o'qitish davlat maktablarida tekin, o'quvchilar darslik va o'quv qo'llanmalar bilan tekin ta'minlanadi.

Germaniyada maktab ta'limi qanday qurilgan va o'qitish faoliyati qanday tartibda tashkil etiladi? Boshlang'ich maktabda to'la to'rt yillik o'qishdan keyin o'quvchilar yo'nalish asosidagi maktablarda ta'limni davom ettiradilar. Asos maktab dasturi yilma-yil tahlil etib boriladi. Germaniyada o'z vaqtida ta'lim o'lmagan katta yoshdagilar uchun bilim olishga imkoniyat yaratib qo'yilgan. Kechki gimnaziyada sanoat, qishloq xo'jaligi kabi sohalarida ishlovchilar 3-6 davomida o'quv ko'rsini o'taganidan keyin etuklik attestatini olish uchun imtixon topshiradilar. Germaniyada hunar ta'lim tizimi katta ahamiyatga ega chunki Germaniyada yuqori makalali ishchilarga bo'lgan talab yuqori hisoblanadi.

Germaniya ta'lim tizimining o'ziga xos tomonlaridan yana biri hur diplomlari oliy o'quv yurtlariga kirib o'qish huquqini bermaydi. O'qishga qatnash qilish imtixonsiz maktab ta'limi to'g'risidagi hujjatga asoslangan holda amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan prezident boshqaradi. Oliy o'quv yurtlarida ta'liqotning asosiy yo'nalish fundamental amaliy ta'dqiqot bo'lib, ularga boshqa ilmiy tekshirish institutlari sanoat laboratoriyalari yaqindan yordam beradi.

Oliy ta'lim muassasalarining xususiyatlari, cherkov va bundesvege tegishlilaridan tashqari bo'lgan oliy o'quv yurtlari viloyatlar boshqaruvi bo'ladi. Ularni yerlar bosh rahbari nomidan oliy ta'lim federatsiyasi boshqaradi. Federatsiya oliy ta'lim tizimiga taalluqli umumiy prinsiplarni tartib solib turadi. Jumladan, federatsiya oliy o'quv yurti qurilishi va oliy o'quv yurtidagi ta'dqiqotlarning bir qismini mablag' bilan ta'minlashni o'z ustiga oladi.

Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Ularni qonun doirasida ustavlarini qabul qiladilar.

Agar biz AQSH pedagogikasidagi:

- bolani o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash;
- o'quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro'yogga chiqarish uchun ko'rash;
- bolani kamsitmaslik, insoniy qadriyatlarini va g'ururini yerga urmaslik;
- Vataniga faxr va iftixor ruhida tarbiyalash va h.k.

Yaponiya ta'limidagi;

- bolani maktabga puxta tayyorlash;
- kichikintoylar ta'lim va tarbiyasiga ota-onalar masuliyatini kuchaytirish;
- o'quvchilarni nafosat, jismoniy kamolotiga berilayotgan e'tibor;
- o'qituvchi kadrlarga yuksak talabchanlik;
- yosh iqtidor soxiblari bilan olib borilayotgan ichkil ishlar;

Germaniya ta'limidagi:

- tabaqalashtirib o'qitishga berilayotgan jiddiy e'tibor;
- o'qituvchilarning mehnat ta'limini mustahkamlash;
- kasbga yo'naltirish;

Fransiya ta'limidagi :

- maktabgacha davridanoq o'quvni predmetlashtirib tashkil etish;
- boshlang'ich ta'limni uch bosqichda puxta amalga oshirish;
- o'quvni didaktik vositalar bilan ta'minlashga berilayotgan katta e'tibor;
- o'quv muassasalarini turli firmalar, konsernlar, korxonalar mustahkam aloqalar va boshqa ibratli jihatlar bizning ta'limga ham kuchsa, bizning pedagogikamiz olg'a qarab dadil qadam bosgan bular edi.

Albatta, ta'limga har qanday yangilik, o'zgarish jiddiy tahlillar, tajribalar asosida kirib keladi. "Zo'rlab taqishtirish" bizning uslubiyat emas. Ayni paytda ta'limni bir saviyada qotib qolishiga ham yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Keyingi paytda ilmiy asoslanmagan, sinab ko'rilgan "Islohotlar" ni joriy etish, yangi o'quv muassasalari to'g'risida ham ta'lim vazirligi tasdiqlagan bilimdan chetga chiqish hollari ro'y bermoqda, aksariyat shunday "islohot" qilingan maktablar, sinflar ko'zlagan samaradorlikni bermaganligi uchun o'rdiy maktablar va sinflarga aylantirilmogda.

Fikrimizcha, turli islohotlarni, shu jumladan, chet el ta'limidagi u yoki bu ibratli ish ustubini joriy qilishda Pedagogika ilmiy-ta'dqiqot instituti, o'quv uslubiyat markazlari bilan bamaslatib ish ko'rish maqsadga muvofiqdir. O'ylaymizki, pedagogika fanlari ilmiy-ta'dqiqot instituti Respublika o'quv-metodika markazlari ham chet el ta'limini joriy etish bo'yicha o'quv muassasalarimizga o'zlarining nazariy-metadologik tavsiyalarini beradilar.

Berilgan yangiliklar, ma'lumotlar, axborotlar asosida har bir pedagogik jamoa o'z pedagogik faoliyatlarini tahlil etib, uni qayta ko'rib chiqadilar. Mamlakatimiz ta'limini yangi bosqichlarga ko'tarishga o'z hissaralarini qo'shadilar degan umiddamiz.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Mustaqillik yillarida respublikamizda chet el innovatsion texnologiyalaridan foydalanishdagi yutuq va kamchiliklar.
2. AQSH va O'zbekistonning ta'lim sohasidagi o'xshashlik va farqli jihatlarini ma'lumot bering?
3. Fransiya da ba'zi sohalar bo'yicha institutlarga imtixonsiz qabul qilinishining sababi nimada?
4. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim bosqichlari bir-biridan qanday farq qiladi?
5. Germaniyada ta'lim tizimi bosqichlari va uning o'ziga xosliklari?

6. Bugungi kunda mamlakatimiz pedagogikasida xorijiy ta'limdagi qay jihatlardan foydalanilisa ijobiy samaralarga erishiladi?

5-Mavzu: Tarix ta'limi shakllari – ta'lim berish texnologiyasining tarkibi Reja:

1. Tarix ta'limini tashkil etish shakllari: mohiyati va mazmuni.
2. Guruhlarni shakllantirish tamoyillari.
3. Guruhlarda hamkorlikda o'qitish faoliyatini tashkil etish texnologiyasi.

Tayanch tushunchalar:

Tarix, tarix ta'limi, ta'limni tashkil etish shakllari, tarix ta'limi mohiyati, ta'lim muassasalarida tarix fanlarini o'qitilishidan maqsad, guruh, guruhlarni shakllantirish tamoyillari, guruhlarning eng qulay soni, guruhlarda ishlatiladigan metodika, guruhlarda hamkorlik.

Mavzuni va alohida savollarni o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 173.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Malakali pedagog kadrlar hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunokadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida. // Xalq so'zi, 2012. 29 may, № 10.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. Barkan avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
4. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'limni samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
5. A.Abdulloqirov, R.Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.:2008
6. S.Usmonov. "Pedagogik texnologiya asoslari" T.:2004
7. Fuzailova G.S, Rahmatullayeva O.R. "Tarix fanini kasbiy sohalar yo'naltirib o'qitish metodikasi". Uslubiy qo'llanma. – T., TDPU, 2012.
8. Xodiev B.Yu., G'olish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-studi - iqtisodiy o'quv yurtidagi zamonaviy ta'lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo'llanma. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari" turkumi. - T.: TDIU, 2009.
9. A.Yo'ldoshev, F.Yo'ldosheva, G.Yo'ldosheva. "Interfaol ta'limni ta'lim kafolati"-T.:2008

1. Tarix ta'limini tashkil etish shakllari: mohiyati va mazmuni.

Yurtimizda amalga oshirilgan islohotlar tufayli barcha, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida, shuningdek, ta'lim tizimida ham keskin o'zgarishlar yuz bermoqda.

O'zbekistonda ilm-fan, texnika va texnologiyasining so'nggi yutuqlari asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

Bizning yangi avlodimiz, bilimli, o'tmishning har qanday illatlaridan ozod bo'lgan yoshlarimiz bugungi kunda mamlakatimizni demokratlashtirish va liberalashtirish, uni yangilash va ishonchli tarzda ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. O'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlash va kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur o'qitilantirish, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslik olishni ta'minlash, tarixiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida ta'lim tizimining barcha kasbiy sohalarida tarix fanlarini o'qitish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus Hamda Xalq ta'limi vazirliklarining 2010 - yil 1- iyuldagi 6/1 va 4/2-sonli qo'shma hay'at majlisi qarori bilan tasdiqlangan va akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tarix fanlaridan uzviylashtirilgan o'quv dasturi sifatida uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etilgan bo'lib, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida o'qitilayotgan amaldagi tarix fanlariga umumiy 160 soat shundan "O'zbekiston tarixi" fani" dasturida 80 soat ma'ruza va 6 soat seminar, "Jahon tarixi" fani" dasturida 80 soat ma'ruza mashg'ulotini o'tishga mo'ljallangan.

Metodik qo'llanmada tegishli mavzular o'quvchilarning tanlangan kasbiga bog'lan holida o'qitilishi, ularda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va kelusida o'z sohalar bo'yicha yetuk mutaxassislar bo'lib etishishlari uchun tavsiyalar berilgan. Shuningdek, qo'llanmada kasb-hunar kollejlariida tarix fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, tarix fanidan o'quvdasturi, tarix fanini bilim sohalar bo'yicha kasbga yo'naltirib o'qitish yuzasidan tavsiylar, tarix fanini o'qitish jarayonida ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalarni qo'llash bo'yicha metodik tavsiylar bayon etilgan.

Hozirgi kunda tarix fanlarini o'qitishning muhim muammolaridan biri bu maqsadli ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yishdir. Ushbu dolzarb masala xususida Prezident

A.Karimovning "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimedia tashqi moflaridan foydalanish borasida ilgari surilgan vazifalar bugungi kunda ta'limni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tayyorlangan metodik tavsiylar o'rta maxsus ta'lim tizimi tarix fani o'qituvchilariga ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy talablarga javob berishi uchun amaliy yordam beradi.

Tarix fanlarini o'qitishda tarixiy bilim, tushuncha va tasavvurlarni egallash, ularni izohlash, ko'nikma va malakani shakllantirish orqali o'quvchilar intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularga kasb-hunarga yo'naltirilgan

"O'zbekiston tarixi" fanidan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv dasturi. O'. Usmonov, S.H.Karimov, I. Turunov, A. Qozoqboev. - T., 2010.

"Jahon tarixi" fanidan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv dasturi. M. Latifov, M. Ochilova, M. Kabirova. - T., 2010.

bilim berishni ta'minlash va kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasb-hunar qiziqishini oshirish maqsad qilib olingan. Tarix fanlarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, o'quvchilarning tanlagan kasbi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy bilim, tushuncha, tassavurni yanada rivojlantirish hamda o'zining sohasiga doir tarixiy bilimlar bilan tanishtirish ularni hayotga va kasb faoliyatiga tabiiy etishni o'rgatishdir.

Orta maxsus ta'lim tizimida fanlarni o'qitishda umumiy o'rta ta'lim tizimidan farqli o'laroq, mashg'ulotlarning ma'ruza va seminar (amaliy shakllari bo'lib, ular quyidagi maqsad va vazifalarga yo'naltirilgan:

Ma'ruza - o'qitishni tashkil etishning yetakchi shakli bo'lib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

yo'naltiruvchilik - o'quvchilarni o'quvmaterialining asosiy holatlariga uni kelgusi ish faoliyatidagi o'rni va ahamiyatiga diqqat qilishlariga imkon beradi;

axborotlilik - o'qituvchi ma'ruza vaqtida holat, asosiy ilmiy dalillar va xulosalar mohiyatini ochib beradi;

metodologiklik - ma'ruza vaqtida o'qitish usullari taqqoslanadi, ilmiy izlanishning asoslari namoyon etiladi;

tarbiyalovchilik - ma'ruza o'quvmaterialiga hissiy-baholalas munosabatida bo'lishni uyg'otish;

rivojlantiruvchilik - bilim olish qiziqishlarini, ya'ni mantiqiy fikrlash va isbotlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Seminar - ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, o'quv mashg'uloti shakli.

Seminar mashg'ulotining asosiy maqsadi - nazariy materialni (bilimlarini) tartibga solish, amaliy malaka va ko'nikmalarini hosil qilish va bilimlarini nazorat qilishdan iboratdir.

2. Guruhlarni shakllantirish tamoyillari.

Kichik guruhlarda ishi olib borish guruhlarda ishlash - bu o'qituvchi to'pshirig'ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o'quv jarayonida kichik guruhlarda ishlashda (2 tadan - 8 tagacha ishtirokchi) faol rol o'ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta'limni tashkil etish shaklidir. Bunda asosiy to'pshirig' natija emas, balki guruh ichidagi hamkorlik jarayonidir.

Guruhli treningda qo'llaniladigan asosiy uslublardan biri kichik guruhlarda ishini tashkil qilishdir. Ushbu uslubning psixologik jihatdan manzurligi, notanqis masalalarni ko'rib chiqib, qaror qabul qilishda har bir ishtirokchi, guruh ishini yaxshi natijasi uchun ma'suliyatni sezgan holda ishga kirishadilar.

Shu uslubning ustunligi nimada? Kichik guruhlarda ishlaganda kampaniya ishtirokchilar o'zlarini yaxshiroq his qiladilar. Aynan shunday odamlar uchun guruhlarda ishlash, o'zlariga bo'lgan ishonchini oshirishda juda qo'l keladi. Kelajakda boshqa muhokamalarda o'z fikrlarini bildirib, ular aktiv ishtirok etadilar. Shu uslub yordamida uyatchan va kampaniya ishtirokchilar ko'pchiliklarga qo'shilmasdan o'z fikrlarini o'rtaga tashlashga harakat qiladilar.

Guruhlarning eng qulay soni:

3 kishidan iborat guruh - eng kichik guruh bo'lib, g'oyalarni tanlash va rivojlantirish imkoniyatlarini chegaralayadi;

4 kishidan iborat guruh — yetarli darajadagi muvaffaqiyatli guruh;

5 va 6 kishidan iborat guruh - eng yaxshi va samarali natijaga erishuvchi guruh;

7 kishidan iborat guruh - yetarli darajada muvaffaqiyatli, lekin kattaroq bo'lgan guruh;

8 va 9 kishidan tashkil topgan guruh - guruh kichik guruhlarga bo'linib boshlaydi, yoki qarama-qarshi fikrlar guruhlar tashkil topadi. Bunday vaziyatda qoniqarli natijaga erishish mumkin, lekin bu narsa ko'p vaqt talab qiladi.

10 va undan ortiq kishidan tashkil topgan guruh - qoniqsiz guruh. Bu sonli guruhlarda ishtirokchilar orasida ziddiyatlar hosil bo'lib, guruh ishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi:

Kichik guruhlarda ishlashda o'quvchilar mashg'ulotlarda faol ishtirok etish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'ladilar, yetakchi rollarni bajaradilar (bahsni olib boradilar yoki guruhning ishini namoyish qiladilar, guruh qarorini spiker sifatida barchaga yetkazib beradilar), bir-birlari bilan tajriba almashadilar, turlari fikrlarni qadrlashni o'rganadilar.

Barcha muhokamada qatnashishi va o'z fikrini bildirishi, bir-biriga yordam berishi uchun kichik guruhlarda ishlash usuli qo'llaniladi. Guruhlar 5-7 kishidan iborat bo'lib, jamoa bo'lib ishlashni o'rganish uchun vaqti-vaqti bilan guruhlarni o'zlarini tarkibi o'zgartirib turiladi. Vaqtan maqsadli foydalanish uchun kichik guruhlarda ishlash qoidalariga va tarkibiga rioya etish zarur.

Guruhlarda hamkorlikda o'qitish faoliyatini tashkil etish texnologiyasi:

Tanqidiy fikr — bu qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'z g'zalarining fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishga asoslangandir. Yana bu qoidaga aniqlik kiritadigan bo'lsak, fikrlash — bu o'qituvchi, yozish, so'zlash va ehtiyojga o'xshash jarayon. U faol, muvoffiqashtiruvchi shunday jarayonki, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Tanqidiy (tahliliy) fikr shu bilan ahamiyatlidir:

1. hayotning murakkab o'zgaruvchanlik ma'nosini tushunib etishga yordam beradi;

2. jamoaning ochiq fikrini rag'batlantiradi;

3. shaxsning rivojlanishiga sharoit yaratishi va boshqalar.

Ta'lim jarayonida tanqidiy (tahliliy) fikrlashning asoslanishi:

1. O'qituvchi (pedagog) o'quvchi-talaba o'rtasida hamda o'quvchi-talabaning o'zaro hurmatini tarbiyalaydi.

2. Mashg'ulot jarayonida o'quvchi-talaba tajribasidan foydalaniladi.

3. O'quvchi muammoni o'quvchi-talabaning talablariga mos va aniq belgilanadi.

4. Muammoni hal qilishda o'quvchilarning foydalaniladi.

5. Har xil buyum va qarashlar integratsiyalashadi.

6. Dastlabki shart-sharoitlar qabul qilinadi va tekshirib ko'riladi.

7. Ta'lim o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba, o'quvchi-talabani o'zaro munosabati orqali berib boriladi.

8. O'quvchi-talaba mustaqil ta'lim olishi uchun sharoit yaratiladi – o'quvchi-talabani tayyorlash darajasiga muvofiq metodlar tanlanadi.

Mashg'ulotlar jarayonida foydalaniladigan didaktik o'yinli texnologiyalar o'quvchi-talabalarining bilish faoliyatini faollashtirish, darslik va qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish ularni olingi ravishda kasb-hunariga yo'llash, didaktik o'yin davomida vaziyat kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda mo'ljalni to'g'ri olish, har xil vaziyatlar tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqarishga zamin hozirlaydi.

O'quv dasturlaridan o'rin olgan muammoli mavzular muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda muammoli dars «aqliqij hujum» shakli o'rganilishi tavsiya etiladi va munozarali mavzular munozarali dars shakli o'rganilishi maqsadga muvofiq. O'quv jarayonida munozarali darslarning ikki xili: ilmiy munozara va erkin fikrlash darslaridan foydalaniladi.

Interfaol metodlar - o'zaro fikr almashishga, o'zaro fikrlarni to'ldirish noverbal va verbal ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlar o'zaro ta'sir asosida qarilgan intellektual harakatlar shunchaki ta'sirni turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik subektlari ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni ochishga, kashf etishga ko'm beruvchi nazariy-aqliqiy mulohazalarda ifodalaniishi mumkin.

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarining bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda quyidagi interfaol metodlar qo'llaniladi:

- o'qitishning ko'rgazmali metodi;
- mustaqil ishlar metodi;
- muammoli evristik modellashtirish metodi;
- ilmiy tadqiqot metodlari;
- o'qitishning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi;
- o'qitishning induktiv va deduktiv metodi;
- o'qitishning nazorat va o'zini o'zi nazorat qilish metodi.

Metodlar quyidagi guruhchalarni o'z ichiga oladi:

1. O'quv axborotlarini ehsitish orqali qabul qilish metodlari (og'zaki metod, hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar).
2. O'quv axborotlarini ko'rgazmali o'zlash va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metod, tasviriy namoyish qilish va boshqalar).
3. O'quv axborotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metod) mashqlar, laboratoriya ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni yechish mehnat harakatlari va boshqalar).

Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalar foydalaniladi. Bunda talabalarga kitoblar, daftar va boshqa usullar foydalanish taqabulnamaydi, aksincha bunday usullarni qo'llash rag'batlantiriladi. Talabalarining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, muammolarni hal qilish tayyor standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qilishga undash talabalar ichki hissiyatlarini yuzaga chiqarib, ularni mantiqiy fikrlashga chorlaydi.

ularni solishtirish, xususiy analitik fikr yuritishga o'rgatish, talabalar intellektual, zukkkolik xislatlarini shakllantirish va ma'lum yo'nalishda yanada yuqori darajada rivojlantirish maqsadida muammoli uslubdan foydalaniladi.

Muammoli vaziyat qanday hosil qilinadi? Buning uchun bajarilishi lozim bo'lgan topshiriq e'lon qilinadi. Endi shu vazifani bajarish uchun talaba bog' bilim va ko'nikmalarni eslaydi, topshiriqni bajarishda shu paytgacha egallagan bilimlarining yetishmasligini sezish bilan birga talaba shaxsida ma'lum psixologik qarama-qarshilik shaklidagi holat yuz beradi. Galdagi muammo topshiriqni bajarish va shu topshiriqni bajarish uchun yangi bilim, iqtidor va ko'nikmalarni izlash muammosi paydo bo'ladi. Ana shu vaziyat esa, muammoli tahlilning boshlanish jarayoni hisoblanadi.

Pedagog talabalarining topshiriqni mustaqil bajarish jarayonini zukkkolik bilan boshqaradi, e'tibor bilan kuzatadi, kerak bo'lganda jonli muloqotga chorlaydi. Talabalar mantiqiy fikrlash davomida ularning jonli muhohadasi, fikr doirasi pedagog tomonidan izchillik bilan hisobga olinib tahsil oxirida faol talabalariga qo'yilgan balar yoki baholarni e'lon qiladi.

Talabalarda umumlashgan psixologik va uslubiy bilim, iqtidor va ko'nikmalarni shakllantirish, o'z tajribalarini tanqidiy nuqtai nazardan yanada mustahkamlash, real haqiqiy amaliyotdagi sharoitda sinah va amaliy ko'nikmalarni yangi bilimlar bilan yanada boyitish maqsadida shu uslubdan foydalaniladi.

Ma'lumki, har qanday fan o'qitilishi uchun, belgilangan maqsadga ko'ra, uning mazmuni, o'zlashtirish uchun mos metodlari, o'quv vositalari va ularga mos ravishda o'qitish shakli tanlanadi.

Talabalarining psixologik tayyorgarliklari, fikrlash darajalari yoki olgan bilimlarini o'zlashtirish darajalariga qarab, har bir ta'lim bosqichi uchun mos mazmun va metodlar tanlanadi. Ta'limda har doim mazmun va metodlar muammosi mavjud, bu muammolar bir-biri bilan uzviy bog'langan. Ta'lim metodlaridagi muammolar «Kimni qanday o'qitamiz?» degan savol bilan bog'liq bo'lib, bundan ta'lim metodlarini ishlab chiqish uning mazmuniga bog'liq shaklga kelib chiqadi. Bu ikki muammo o'zaro qarama-qarshilik bo'lib, birini to'ldirib boradi.

Metodikaning maqsadi mazkur fondan yangi o'quv fani (o'quv predmeti)ni yaratish va bu fanning o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat. Bunday o'quv fanlari talabani barcha talab va ehtiyojlarini qoniqtirishi, Pedagogik texnologiyalar talabari asosida avval o'qish so'ngra, bu o'qishga o'rgatish uchun o'qitish amoyiliga asoslanishi, talabani o'quv materialini o'zlashtirishdagi darajalari, nazariy va amaliy bilimlarini egallashda «soddadan-murakkabga» o'tishiga asoslangan nazorat topshiriqlarini belgilash talabalarga individual va shaxslashtirilgan yondashuv xususiyatlarini hisobga olishi lozim.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Tarix ta'limini tashkil etish shakllari to'g'risida ma'lumot bering?
2. O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

3. O'rtta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida tarix fanini o'qitishda ta'limni qay shakllaridan foydalaniladi?
4. Guruhlarni eng faol va samarali tashkil etishda guruh a'zolarining soni necha kishi bo'lishi tavsiya etiladi?
5. Seminar darslariga qo'yilgan maqsadga erishish va talabalar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish uchun pedagogik texnologiyang qaysi metodlaridan foydalanish kerak?
6. Tarix darslarida mustaqil ta'limning eng qulay tashkil etish shartlari haqida talabalar o'xtalangi?

6-Mavzu: Tarix fanini o'qitishda ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini loyihalashtirish

Reja:

1. Ma'ruza darslarini zamonaviy asosda tashkil etish.
2. Ma'ruzaning samaradorlik shartlari.
3. Ma'ruza turlarining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Ma'ruza darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
5. Seminar mashg'uloti haqida tushuncha va uning asosiy vazifalari.
6. Seminarning samaradorlik shartlari, seminar turlarining o'ziga xos xususiyatlari.
7. Seminar mashg'uloti o'qitish texnologiyasining jarayonli tuzilishi.

Tayanch tushunchalar:

Ma'ruza, yo'naltiruvchilik, axborotlilik, metodologik, tarbiyalovchi rivojlantiruvchilik, ma'ruzaning funktsiyalari, ma'ruzaga qo'yiladigan talablar, ma'ruza turlari, seminar, seminar mashg'ulotiga qo'yiladigan talablar, seminarni samarali o'tkazish shartlari, muammoli seminar, zamonaviy darsning roli hamda ishbob o'yinlar, insert jadvali, klaster.

Mavzuni va alohida savollarini o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 173.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Malakali pedagog kadrlar hamda o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shug'ullanadigan kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida. // Xalq so'zi, 2012. 29 may, № 10.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod uchun. – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
4. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
5. A. Abduqodirov, R. Ishmuhamedov. «Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish». T.: 2008
6. S. Usmonov. «Pedagogik texnologiya asoslari» T.: 2004

7. Fuzailova G.S., Rahmatullayeva O.R. «Tarix fanini kasbiy sohalarga yo'naltirish metodikasi». Uslubiy qo'llanma. – T., TDPU, 2012.

8. Xodiyev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-studi - iqtisodiy oliy o'quv yurtidagi zamonaviy ta'lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo'llanma. «Zamonaviy ta'lim texnologiyalari» turkumi. – T.: TDIU, 2009.

9. J. Yo'ldoshev, F. Yo'ldosheva, G. Yo'ldosheva. «Interfaol ta'lim sifat kafolati». – T.: 2008

1. Ma'ruza darslarini zamonaviy asosda tashkil etish.

Ma'ruza o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini, oliy o'quv yurtida dars berishning asosiy shakllaridan biridir. U talabalarining dunyoqarashini shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

Ma'ruza (arabcha, leksiya (lotincha - "lectio") - o'qish) – o'quv materiallari, biror masala, mavzu kabilarning izchil, ma'lum bir tizimiga solingan bayonidir.

O'zbek tiliga arab tilidan kirib o'zlashtirilgan ma'ruza so'zi qo'llaniladi. Ma'ruza o'qitishni tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanib u bir qator vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Hozirgi pedagogik texnologiyalar tizimida ma'ruza o'ziga xos modul, uni tayyorlash va o'tkazish esa kichik pedagogik texnologiya jarayonidan iborat. Bu jarayon dastlab ma'ruza uchun matreallarni to'plash, o'rganish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, tegishli amaliy vazifalarni belgilash va ularni sifatli amalga oshirish yuzasidan tavsiyalarini shakllantirish bosqichlaridan iborat bo'ladi.

Shundan so'ng ma'ruza matnini tayyorlash bosqichi boshlanadi. Ma'ruza matnini kursning o'quv-mavzu rejasida ko'rsatilgan mavzular bo'yicha tayyorlanadi. Shu mavzularni tegishli tinglovchilar guruhi bilan o'rganishdan so'ng tuzilgan maqsadlar belgilanadi. Bunda mavzuning dolzarbligini aniq ko'rsatib berish, unga tegishli muammolarni hal qilish yo'nalishlarini belgilab berish va shunga muvofiq ilmiy, metodik va amaliy xulosalarni sharhlash. Ularni amalga tadbir etish yuzasidan zarur tavsiyalar berish nazarda tutiladi.

Ma'ruza mazmuni uning mavzusini to'liq qamrab olishi zarur shartlardan iborat. Buning uchun ma'ruza matreali odatda asosiy tarkibiy bloklarga ajratilish natija beradi. Buning natijasida ma'ruza matnini tayyorlashda ham va shu ma'ruzani guruhda o'tkazishda ham zarur tartib hamda mantiqiy tashkilikka erishiladi.

Ilmiy-pedagogik mavzulardagi ma'ruzalar matreallarining tarkibi ko'proq quyidagilardan iborat tashkil topadi:

Nazariy blok- bunda tinglovchilarni mavzuning ilmiy-nazariy asoslari, qonuniyatlari va qoidalari bilan tanishtiriladi, yani nimaning o'rgatish kerak degan savolga javob deb belgilanishi mumkin;

Metodik blok- mavzuni, qonun, qoidalarini o'rganish, o'rgatish, qo'llanish, foydalanish masalalarini o'zlashtirish, yani qanday bajarish kerak degan savolga javob deb belgilanishi mumkin;

Amaliy blok- ma'ruza davomida o'rganilgan yani ma'lumotlarni "qayerda, qachon, nima maqsadda, qanday vositalar orqali, qanday me'yorlarda

qo'llash" bilan tanishtirish, yani "nima uchun kerak" degan umumiy savolga javob deb belgilanishi mumkin;

- Xulosalar bloki- nazariy, metodik va amaliy bloklar bo'yicha umumlashtiruvchi natijalarni ifodalashga xizmat qiladi va "nima qilish kerak" degan savolga javob belgilanishi mumkin;
- Nazorat bloki- tinglovchilarning o'zlashtirishlarini ma'ruza davomida tezkor nazorat qilishga xizmat qiluvchi har turli dedaktiv matreallar va usullarda iborat bo'lib, "tushunarlimi" degan savolga javob belgilanishi mumkin;
- Tavsiyalar bloki- ma'ruza mavzusi bo'yicha xulosalarni har turli sharoitlarda amalga oshirish yuzasidan tinglovchilarning fikr-mulohaza va takliflarini hisobga olgan holda hamkorlik va hamfikrlikda belgilangan asosiy lo'yo'riqlardan iborat bo'lib, navbatdagi hamda kelgusi vazifalarni belgilay beradi. Uni majoziy ma'noda "ma'qulmi" degan savolga javob deb belgilanishi mumkin.

Ma'ruza bloklarini yuqorida keltirilgan shartli savollar bilan qo'shimcha ravishda belgilab nomlashdan maqsad shuki, ular har bir blokning maqsad va mazmunini o'ziga xos yaqqol ifodalashi bilan ma'ruzani tayyorlash hamda o'qitish davrida ma'ruzachi uchun foydali mo'ljal sifatida qulaylik tug'diradi. Bu esa ma'ruzaning matn tayyorlash va ma'ruzani o'qitishda kamchiliklarsiz, aniq izchillikda faoliyat olib borishiga imkoniyat yaratadi.

Ma'ruza matnini bayon etishda zamonaviy pedagogik, psixologik, didaktik qoida va talablar hisobga olinadi. Ma'ruza matnlari faqatgina bayon axborotlardan iborat bo'lmay, undagi savollar, muammolar, yechimlar asosida muammoli vaziyatlar keltirib chiqarishga, matnni mustaqil mutao qilishga, erkin fikrlashga undashi kerak.

Ma'ruza matnlarida mavzu bayoni mamlakatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar va taraqqiyot yuksalish jarayonlariga jo'shqin hayot tarzi, ilg'or fan yutuqlari bilan chambarchas bog'lanishi kerak. Mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan yangiliklar, muvofiqiyatlar aniq dalil sifatida keltiriladi.

Ma'ruza matnida tinglovchilarning qanday tushuncha, malaka, bilimlar o'zlashtirishlarini zarurligini nazarda tutish muhimdir. Tayanch signal, sxem, diagramma, tasviriy matreallarga alohida e'tibor berish kerak.

Ayniqsa, matreallarni hayotiy misollar asosida tayyorlash zarur, ta'lim tizimida milliy g'oya, madaniy, tarixiy qadriyatlarini o'quvchilarga singdirish orqali ularni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida va e'tiqodli qilib tarbiyalashga erishish lozim.

2.Ma'ruzaning samaradorlik shartlari.

Ma'ruza ilmiy harakterga ega bo'lishi, turli nazariy yo'nalishlar, ilmiy maktablarning asosiy g'oyalarni talabalar ongiga yetkazishi va olgan bilimlarni ishonchga aylantirishi kerak.

Har qanday ma'ruzaning eng zarur sharti tinglovchilar bilan qizg'in aloqaga kirishishdir. Ma'ruzani ko'tarinki ruh bilan o'qish kerak.

Ma'ruza o'qish eng avvalo, unga tayyorlanishdan boshlanadi. Shuning uchun birinchi navbatda ma'ruza mavzusi bo'yicha adabiyotlar tanlash, hamda ular bilan tanishib chiqish kerak.

Ma'ruzada talabalar o'qitayotgan fanning dasturi asosida mavzuga oid bilimlar va unga doir oxirgi erishilgan yutuqlar bilan birinchi marta tanishtiriladi, yechimini topgan va yechimini kutayotgan muammolar haqida tushunchalar beriladi. Ma'ruza – bilimlar majmuasini berishning eng ratsional usulidir.

Ma'ruza talabalar bilan muloqotda bo'lishning alohida shakli bo'lib, uni boshqa hech qanday o'quv shakli bilan almastirib bo'lmaydi. Ma'ruzaning oldinga qo'yiladigan maqsad har xil bo'lib, bu maqsad maksimal darajada amalga oshirishi uchun uning funksiyalariga ahamiyat berish kerak.

Ma'ruzaning funksiyalari:

- professional ta'lim berish va dunyoqarashni shakllantirish.
- talabalar tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish. Ularni axloqiy, ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi, mehnatga munosabati, sotsial-psixologik hislatlarini shakllantirish.
- bilim berish, o'rganayotgan fani bo'yicha axborot olish, olgan axborotni asosida tadqiqot o'qitish, xulosa chiqarishga o'rgatish.

Ma'ruzaga qo'yiladigan talablar.

Ma'ruza ma'lum bir yo'nalishga: Yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirish, hayot kechirish tarzini tanlashning tarbiyaviy ahamiyatini oshirishni lozim.

Ma'ruzada asosiy maqsadga yetish uchun talabalarida fanlarni o'rganishga harqaror qiziqish uyg'otish kerak. Ma'ruzani shunday tuzish kerakki, talabada ularni chuqur o'rganish uchun mustaqil ravishda adabiyotlarni topish, ularning mazmuni ishlash, tushunishga xohish-istak tug'ilsin. Shuning uchun zarur material, kitoblar, jurnal va boshqa ma'lumotlar tanlash prinsipial ahamiyatga ega.

Shu bilan birga talabalariga duch kelinadigan qiyinchiliklarni, ularni o'qitish va subyektiv tomonlarini ham tushuntirish kerak.

Tajriba ko'rsatadiki, talabaga deklarasiya, shiorlar emas, balki ishonchli dalillar, chuqur tahlil ko'proq ta'sir qiladi. Har qanday fanlarni o'qitish ham ishonchli dalillar, ma'lumotlar, nazariy va amaliy xulosalarga tayanadi.

Ma'ruzaning ilmiyligi materialni bayon qilishning izchilligi, savollarni aniq, tushunarli qo'yilishini nazarda tutadi. Ma'ruzaga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi mavzu bo'yicha savollarni qanday qilishni, qanday uslublar qo'llashini ko'z o'ngiga keltirishi kerak. Mavzu bo'yicha adabiyotlarni, zarur ma'lumotlarni ana shundagina to'g'ri tanlashi mumkin. Yana shuni ham hisobga olishi zarurki, agar o'qituvchi zarur dalillar, ma'lumotlarga ega bo'lsada, ularni ishonarli, asoslangan holda bayon qilmasligi, fandagi dolzarb savollarga javob berishdan chetlab o'tishi yoki chetga chiqishi mumkin. Va talabalarida ma'ruzadan qoniqmaslikka olib keladi.

3. Ma'ruza turlarining o'ziga xos xususiyatlari

Ma'ruza shakllari	O'ziga xos xususiyatlari
Kirish	Ma'ruzaning eng an'anaviy turi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> o'quv ma'lumotini bayon qilish va tushuntirish
Umumlashtiruvchi qisqa ma'lumotli	Kursni yoki uning bitta bo'limlarini bayon etilgan nazorat holatlari negizini avvalo ilmiy-tushunchaviy va konseptual asos tashkil etadi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> Ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish. Ichki va fanlararo aloqani yoritib berish.
Muammoli	Yangi bilimlar savol, vazifa, vaziyatlarni muammoli orqali amalga oshiriladi. Bunda talabalar bilimi o'qituvchi bilan hamkorlikda va suhbatda tadqiqotchilik faoliyatiga olib kelinadi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o'quv ma'lumotini yoritib berish; muammoni aniqlash uni yechish, jamlash va an'anaviy va zamonaviy nuqtayi nazarni tahlil qilishni tashkillashtirish.
Ko'rgazmali	Bunday ma'ruzani olib borilishi ko'rilayotgan materiallarni ochiq holda va qisqa sharhlashga olib kelinadi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> ma'lumot mazmunini ta'limning texnikaviy vositalari yoki audio texnikalar yordamida yoritib berish.
Binarli	Bunday ma'ruzani olib borilishi ikki o'qituvchi, 2-maktab vaqillari, olim va amaliyotchilar, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi suhbatni namoyon qiladi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o'quv ma'lumotlarini ikki tomon nuqtayi nazarlarini taqqoslash orqali yoritib berish.
Oldindan ko'zlangan xatoliklar bilan	O'qituvchi ongli ravishda yo'l qo'ygan mazmunni metodologik xatolarni: talabalar tomonidan topishni qarantilgan. Ma'ruza yakunida talabalar tashhisi va qo'yilgan xatoliklari tahlili olib boriladi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi material mazmunini yoritib berish; talabalarni taklif etilayotgan ma'lumotni doim nazorat qilishlariga qiziqtirish.
Anjuman	O'qituvchi tomonidan tayyorlangan dastur miqyosida oldindan belgilangan muammo va ma'ruza tizimi bilan ilmiy-seminar mashg'uloti olib boriladi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o'quv ma'lumotini izlash va tizimlashtirishga harakat qildirish

Maslahatli	Turli yo'l bilan o'tkazilishi mumkin. 1. "Savol-javob". O'qituvchi ma'ruza davomida butun kurs yoki bo'lim bo'yicha talabalar savollariga javob beradi. 2. "Savol-javob-munozara". Yangi ma'lumotni nafaqat bayon etadi, balki qo'yilgan savollarga javob izlab topishni tashkil-lashtiradi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> talabalar bilimni mustahkamlash, rivojlantirish, ularni yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish
------------	--

Kirish ma'ruzasida ta'lim berish texnologiyasi. Xozirgi vaqtda o'quv materialini tuzilmaga solish modul asosida amalga oshirilmoqda. Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirishning psixologik nazariyasiga muvofiq, bu muammo o'qitish tuzilmasiga qiziqituvchi bosqichni kiritish orqali hal etish mumkin. Uning vazifasi – ta'lim oluvchilarda kutilayotgan o'quv materialini egallash uchun qiziqish (bizning holatda o'quv fani, kurs) ta'minlash, modomiki harakatning to'liq yo'nalishi o'quv materialini barcha tashkil etuvchilari o'rtasidagi aloqani aniqlashi mumkin.

Oliy maktabda ta'lim fan, kursning qiziqituvchi bosqichi kirish ma'ruzasi hisoblanadi. Uning maqsadi – o'quv fanining kursi to'g'risida birinchi umumiy tasavvumi berish va talabalarni ish jarayonida, oldindagi o'quv faoliyati natijalariga va ularni nazorat tizimi va baholashiga yo'naltirish hisoblanadi.

Pedagogik vazifalar quyidagilardan iborat:

talabalarni fan, kursning ahamiyati, vazifasi va uning o'rni, o'quv fanlar tizimida hamda kasbga tayyorgarligidagi o'rni bilan tanishtirish; tuzilmaga qisqacha sharh berish, fanni va amaliyot rivojlanishini, bunda mashhur olimlarning nomini aytib, bu sohada qiziqilgan yutuqlarni yoritib berish;

ushbu bilimlar sohasidagi tadqiqot istiqbollari yo'naltirishlarini bayon etish; fan, kurs doirasida uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlarini yoritish; tavsiya etilayotgan o'quv – uslubiy adabiyotlar tahlilini amalga oshirish; hisobot, baholash shakllari va vaqtni aniqlash.

Kirish - ma'ruzasida ta'lim texnologiyasi modeli

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: ... ta
O'quv mashg'ulotining shakli	Kirish – ma'ruzasi
O'quv mashg'ulotining maqsadi	1. O'quv kursi va mashg'ulot mavzusiga kirish 2. Bilimlarni faollashtirish - aqliy hujum 3. Ma'ruza matnini tarqatish 4. Ma'ruzani Power point tartibida olib borish. 5. Asosiy atamalarni aniqlash (pinbord) 6. Yakunlash. Baholash
O'quv mashg'ulot maqsadi:	O'quv fani to'g'risida umumiy tasavvurlarni berish

<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - ... fanining ahamiyati va vazifalari, uni o'quv fanlar tizimida tutgan o'rni bilan tanishtirish; - ... o'quv fani tuzilishini va tavsiya etilayotgan o'quv-uslubiy adabiyotlarni sharhlash; - ... nazariya va amaliyot sohasidagi yutuqlarni yoritish; - ... fan miqyosidagi uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlarini, muddat va baholash shakllarini ochib berish; - ... tashkillashtirish, ...jarayonning umumiy chizmasini tavsiylash; - ... jarayonni tashkillashtirishning asosiy bosqichlarini ifodalash; - ... jarayonni tushuntirish. 	<p><i>O'quv faoliyat natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - ... fanining ahamiyati va vazifalarini ifodalaydilar, - ... o'quv fani tuzilishini va tavsiya etilayotgan o'quv-uslubiy adabiyotlarni sharhlaydilar; - ... nazariya va amaliyot sohasidagi yutuqlarni yoritadilar; - ... fan miqyosidagi uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlarini, muddat va baholash shakllarini ochib beradilar; - ... jarayonning umumiy chizmasini tavsiylaydilar; - ... jarayonni tashkillashtirishning asosiy bosqichlarini ifodalaydilar, - ... jarayonni tushuntiradilar.
<i>Ta'lim usullari</i>	Ma'ruza, pinbord, aqliy hujum
<i>Ta'limni tashkillashtirish shakli</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ruza matni, kompyuter, grafik tashkil etuvchilar
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: tekzor - so'rov.

Kirish – ma'ruzasining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	Ta'lim oluvchi	Ta'lim beruvchi
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish. (20 daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Ekranga fanning tuzilmaviy-mantikiy chizmasini (№ ilova) chiqaradi, mavzularning o'zaro aloqasini yoritadi, ularga qisqa tavsif beradi. Reyting-nazorat tizimi, joriy, oraliq, va yakuniy nazoratni baholash mezonlari (№ ilova) bilan tanishtiradi. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi.	Tinglaydilar, yozib oladilar

	1.2. Birinchi o'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va o'quv faoliyat natijalarini aytadi. 1.3. Aqliy hujum usuli yordamida ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni aytishini taklif etadi. Aqliy hujum usuli qoidasini (№ ilova) eslatadi.	Tushunchalarini aytadilar
2 – bosqich. Asosiy (50 daq.)	2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruza matnini tarqatadi va uning rejasini, asosiy tushunchalar bilan tanishishni taklif qiladi. 2.2. Slaydlarni Power point tartibida (№ ilova) namoyish va sharhlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy holatlarni bayon qiladi. 2.3. Doskada yozilgan tushunchalarga qaytishni taklif etadi. Talabalar bilan birga fanga taalluqli bo'lmagan va qaytariluvchi ma'lumotlarni olib tashlaydi, muhim asosiy tushunchalarni (Pinbord) kiritadi (№ ilova).	O'qiydilar. Tinglaydilar, jadval va chizmalarni dafarga ko'chirib oladilar. Savollarni beradilar. Ma'lumotlarni dafarga qayd qiladilar.
3 – bosqich Yakuniy (10 daq.)	3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar. Topshiriqni yozadilar

Anjuman – ma'ruzada ta'lim berish texnologiyasi modeli

Vaqt. 2 soat	Talabalar soni: ... ta
O'quv mashg'ulot shakli	Anjuman – ma'ruza
O'quv mashg'ulot rejasini	1. ... 2. ... 3. ... 4. ...
O'quv mashg'ulot maqsadi: ... to'g'risida bilimlarni shakllantirish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyat natijalari:</i>
... tushunchalar bilan tanishtirish	- ... tushunchalarni tariflaydilar
... tavsifini berish	- ... tavsiflab beradilar
... tushuntirib berish	- ... tushuntirib beradilar

- ... mazmunini ochib berish	- ... mazmunini ochib beradilar
Ta'lim usullari	Anjuman - ma'ruza, munozara, tezkor-so'rov
Ta'limni tashkillashtirish shakli	Ommaviy, jamoaviy, individual
Ta'lim vositalari	Ma'ruzalar tizimi, ko'rgazmali materiallar (slyadlar), lazerli proyektor, axborotli taminot.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik vositalardan foydalanishga mo'ljallangan xona
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: tezkor-so'rov, nazorat so'rovlari

Anjuman - ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
Tayyorgarlik	<p>(1) Ma'ruza mavzulari (№ ilova), ma'ruzaga tayyorlanish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxatini beradi.</p> <p>(2) Ma'ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchi va opponentlarni aniqlashni tashkillashtiradi.</p> <p>(3) Ma'ruzachilarga tanlagan mavzu bo'yicha referat rejasini batafsil tuzish topshirig'ini beradi, maslahat beradi, olib boruvchi, taqrizchi, ekspertlar vazifasini va ma'ruza qilishga ajratilgan vaqt, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi.</p> <p>(4) Barcha talabalarga ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganib chiqish va savollar tuzish topshirig'ini beradi.</p> <p>(5) Ma'ruzachilar bilan ma'ruza qilish uslubi va tuzilishini muhokama qiladi, ma'ruza mazmuniga o'zgartirishlar kiritadi.</p>	Ma'ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolgan ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganadilar, ma'ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma'ruzachilar o'zgartirishlar, to'ldirishlar kiritadilar, referat yozadilar, ko'rgazmali material tayyorlaydilar.

1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish. (5 daq.)	<p>1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, ko'zlanilayotgan natijalar va uni o'tkazish rejasini ma'lum qiladi. Olib boruvchini tanishtiradi.</p> <p>1.2. Bilimlarni faollashtirish uchun diqqatni jalb qiluvchi savollar "...?" beradi, tezkor-so'rov o'tkazadi.</p> <p>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari (№ ilova), baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (№ ilova)</p>	Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar. Ishga ajratilgan vaqt, muno-zara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar.
2 - bosqich. Asosiy (60 daq.)	<p>2.1. Talabalarni tayyorlagan ma'ruza va malumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material mazmunini mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi.</p> <p>2.2. Taqrizchilarga so'zga chiqishni va savollar berishini taklif etadi.</p> <p>2.3. Ma'ruza mazmunini jamoa bo'lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - opponentlarga o'z fikrlarini bildirishlarini, qo'shimcha savollar berishini taklif qiladi; - savollar beradi (№ ilova); - ma'ruzaning asosiy mohiyatini aniqlashtiradi. <p>2.4. Har bir ma'ruzani qisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi.</p>	Ma'ruzachilar ma'lumot bilan tanishtiradi. Taq'rizchi ma'ruza ning ijobiy jihatlarni, kuchsiz tomonlarini aytib o'tadi. Opponentlar o'z fikrlarini aytadilar. Savollar beradilar. Munozaralarda ishtirok etadilar. Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma'ruza mazmunini muhokama qiladilar, munozara qiladilar.
3-bosqich Yakuniy (10 daq.)	<p>3.1. O'quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. Ma'ruza-anjuman ma'ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, munozaralardagi faolligini baholaydi. Olingan bilimlarni kelajakdagi kasbiy va o'quv faoliyatidagi ahamiyatini ko'rsatadi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi (№ ilova)</p>	3.1. Tinglaydilar, aniqlashtiradilar, vazifani yozib oladilar.

4. Ma'ruza darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Quyida ma'ruzaning o'zaro faol usuli, o'tkazish texnologiyasiga to'xtalimiz. Har qanday yuqori saviyada o'tkaziladigan ma'ruza, garchand u faktlarga bo'lsa ham, o'zoq vaqt bir maromda davom etaversa, tinglovchilarning eshitish qobiliyati susayadi va charchaydi. Bu holat uni loqayd eshituvchiga aylantiradi. Ma'ruza qancha o'zoq davom etsa, samaradorlik shuncha kamaya boradi. Ma'ruzani samarali o'tkazish uchun nima qilmoq kerak?

Buning uchun ma'ruzani kichik pedagogik texnologiya darajasida bir yuqorida keltirgan talablar asosida quydagicha tashkil etish tinglovchilar uchun qulaylik tug'diradi.

Ma'ruzachi o'z ma'ruzasini bir nechta bloklarga bo'ladi. Har bir blokni 15-20 minut davom ettiradi va har bir blokdan so'ng to'xtab, mavzu bilan bog'liq qisqa savol-javob, fikr almashuv olib boradi. Tinglovchilarni kichik guruhga bo'lib muhokama, munozara tashkil etadi.

Ma'ruza davomida ayrim muammolarni o'rgatga tashlaydi. Shu vaqtda oralg'ida bu muammoga tinglovchilarning munosabatini aniqlaydi, ularning fikrlarini tinglaydi. Har bir fikr bildiruvchiga imkoniyat yaratadi. Ammo uni tanqis ostiga olmay, boshqalarning fikrlarini ham tinglaydi. Bu holat ma'ruzaga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartiradi, ma'ruzaga befarq qaramaslikka sabab bo'ladi, tinglovchilar orasida o'zaro faollik paydo bo'ladi, muhokama etilayotgan mavzu bilan bog'liq muammolarga qiziqish ortadi. Tinglovchilarni yakka tartibda suxbatga tortish 5 minutgacha davom etishi mumkin.

Ma'ruzachi tinglovchilarni qiziqishi, intilishi, ma'suliyati oshib borishini kuzatib boradi. Ma'ruza davomida muntazam faol ishtirok etuvchilar, teran fikr bildiruvchilar ma'ruzachining tayanchiga aylanadi va ular ma'ruzachi tomonidan rag'batlantirib boriladi.

Ma'ruzacha davomida mavzuni asta-sekin tinglovchining kundalik faoliyatiga doir misollar bilan bog'lab boriladi (tarixdan dars o'tish jarayonida talabalarga kaxil tarixiy davrlarda ham oluvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar, ularni ko'zlangan mafko'raviy maqsadlar va rag'batlantirishlarning ko'rinishlari) o'z qisqa munozaralar orqali tegishli yechimlar topiladi va bundan esa o'z navbatida tinglovchi ma'ruza mazmunining kundalik hayotda naqadar zarurligini his etadi.

Shu holda kechgan ma'ruzalarda tinglovchilar vaqt qanday o'tganini bilmay qoladilar. Ma'ruzaning yana davom etishini xoxlab, befarqlik o'rni hushyorlik ichki intilish, yechim qidirish egallaydi, o'zlarini ham yechimini topishda shaxs ishtirok etib, hissa qo'shishga intiladilar va ular ma'ruzani mazmunini hayot misollar orqali yoritishda ishtirokchilarga aylanadilar.

Tarixi darslarda ma'ruza mashg'ulotlarini olib borish uchun quyida pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsifi etiladi:

1-Aqliy hujum usuli.

Aqliy hujum – g'oyalarni generatsiya qilish usuli. Qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar: ularni yechish uchun shaxs g'oyalarni ilgari suradilar (generatsiya qiladi). U ishtirokchilarni o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga rag'batlantiradi.

«Aqliy hujum»ning vazifasi kichik guruhlar yordamida yangi-yangi g'oyalarni yaratishdan iborat. Bu usul muammoni hal qilayotgan talabalarimiz ko'proq aql, bovar qilmaydigan va hatto fantastik g'oyalarni yaratishga undaydi. G'oyalarni qancha ko'p bo'lsa, shunchalik yaxshi hisoblanadi. Ularning hech bo'lmaganda bittasi ayni maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

«Aqliy hujum» ning qoidalari:

Birinchi qoida. Fikr va g'oyalarni hech qanday cheklanmagan holda iloji boricha baralla aytilishi lozim.

Ikkinchi qoida. Bildirilgan fikr va g'oyalarni takliflar berish to'xtatilmaguncha muhokama qilinmaydi, baholanmaydi.

Uchinchi qoida. Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar hisobga olinadi.

To'rtinchi qoida. Qancha ko'p g'oya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi.

Beshinchi qoida. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va kengaytirish mumkin.

Oltinchi qoida. Barcha aytilgan takliflar yozib boriladi.

Yettinchi qoida. Takliflarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi.

Bu usul barcha funksiyalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi muammoni mustaqil tushunish va yechishga ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini uyg'otishdan iboratdir.

2- O'quv keyslari.

O'quv muammoli vaziyat (o'quv keysi) tashkil etishning maqsadi guruh onasida aniq muammoli vaziyatni mavjud imkoniyatlar va tavakkalini hisobga olgan holda muqobil yechimlarni muhokama qilish orqali qarorlar qabul qilish muhitini yaratishdan iboratdir.

Keys usulini samarali qo'llash o'quv guruhiga muammoli vaziyatni muhokama qilish imkoniyatini berish orqali talabalarning anglashini o'rnatiladi, o'z bilimi va g'oyasini mujassamlashtirish, muhokama jarayoni va mazmunini kuzatish uchun sharoit yaratadi.

Ma'lumki, o'qitishning dastlabki bosqichlarida talabalar juda ham faol bo'lmagan o'z fikrlarini ochiq bayon etishga qodir bo'lmaydi. Bunday to'siq talaba uchun qarashlari va fikrlarini guruh yoki o'qituvchi tomonidan tanqidga uchrashishi mumkinligidan xavfsiragan holda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi.

Ko'pincha shunday holda bo'ladi, o'qituvchi vaqtning tig'izligi tufayli talabalar bilan suhbat-muloqot yoki to'liq savol-javob o'tkazmaydi. Ana shunday hollarda zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan biri bo'lgan keys usulidan foydalanish mumkin.

- yechilishi zarur bo'lgan muammoni qamrab olgan haqiqiy vaziyat ifodasi;
- tinglovchilar tomonidan muhokama qilinishi mumkin bo'lgan va odatda, qaror qabul qiluvchi menejer nuqtai nazaridan bayon etilgan vaziyat;
- auditoriyada mavjud imkoniyatlar va tavakkalni hisobga olgan vaziyat bo'yicha qaror qabul qilish muhitini tashkil qilish;
- kelgusida aniq tadqiqotlar o'tkazish uchun manba.

Keyslardan foydalanish usullari:

1. Yakka holda namoyish qilish.
2. Jamoa tomonidan namoyish etish.
3. Guruhlarda muhokama qilish va so'ngira guruhda munozara o'tkazish.
4. Ishbilarmonlik o'yini.

Keys muhokamasi tartibi:

Keys muhokama qilishni quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish lozim:

1. Keys mazmuni bilan shaxsan tanishish.
2. Kichik guruhlarda muhokama qilish («Sindikab» usuli).
3. Guruhda umumiy muhokama o'tkazish.

Keys muhokamasida e'tiborni quyidagilarga qaratish tavsiya etiladi:

- qaralayotgan keysning asosiy maqsadlari aniqlash;
- keysdagi vaziyatni haqiqiy holatlar bilan taqqoslash imkoniyatini ko'rib chiqish;

- mumkin bo'lgan «tuzoqlar»ni aniqlash va ularni ikkinchi darajali masalalar muhokama qilish, noto'g'ri qarorlar qabul qilish va h.k;

- o'quvchi-talabalar uchun tushunariz ma'lumotlarni aniqlash;

- keysda bayon etilgan muammoni yechishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotni aniqlash;

- keysdagi muammoni yechish uchun oraliq qadamlarni ilg'ab olish;
- muammoning hal etish muqobil yo'llarini belgilash;
- munozarani tugatish tartibini belgilash;
- yakuniy izohlash va munozara natijasini xulosalash.

5-Seminar mashg'uloti haqida tushuncha va uning asosiy vazifalari.

Seminar mashg'uloti – bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amal oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg'ulotni o'qitish shaklidir.

Seminar mashg'uloti darslarini ikki turga ajratish mumkin. Bular ma'ruza darsi mavjud bo'lgan va ma'ruza darsi mavjud bo'lmagan fanlardan (masalan, chet tillar) o'tkaziladigan seminar mashg'ulotlari. Seminar mashg'uloti darslarini fan dasturlari va ishchi dasturlari hamda kalendar tematik rejalari qat'iy amal qilingan holda o'tkaziladi. Seminar mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha zarur adabiyotlar ro'yxati beriladi. Ma'ruza darsi mavjud bo'lgan seminar mashg'ulotlarda asosan ma'ruza darslarida o'tilgan materiallar mashqlar bajarish yordamida mustahkamlanadi.

Seminar mashg'uloti quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladi:

- nazariy materialni tartibga solish.
- ko'nikmalarni hosil qilish.
- bilimlarni nazorat qilish.

Ta'lim beruvchi seminar mashg'ulotini samarali o'tkazish uchun quyidagilarni hisobga olish zarur:

- o'zining tayyorgarligi, bunda savol va javob texnikasiga ega bo'lishi;

- o'quv guruhining holati: uning motivatsiyasi, uning tashkil etish xususiyati;

- o'quv jarayonining texnik jihatlanishi.

Seminar mashg'uloti darslarida yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalanish uchun imkoniyatlar katta bo'ladi. O'qituvchi darsga kirib, tashkiliy ishlarni o'tkazadi. Xonaning darsga tayyorgarligi, doskaga yozish va o'chirish vositalarining mavjudligi hamda talabalar davomati aniqlanadi. Darsda o'tiladigan mavzu e'lon qilinib, doskaga yozib qo'yiladi. O'tgan mavzuning asosiy mazmuni qisqacha bayon qilinib, yangi mavzu reja beriladi. Ma'ruza darslari mavjud bo'lgan fanlardan seminar mashg'uloti darslari albatda ma'ruza o'tilgandan keyin o'tkaziladi. Ma'ruzada o'tilgan materiallarning asosiy xulosalari tushuntiriladi, ma'ruza bilan seminar mashg'uloti bog'lanadi. Seminar mashg'ulotlar fanning, hattoiki mavzularning xususiyatlaridan kelib chiqib, turli xil usullarda o'tkazilishi mumkin.

Seminar mashg'uloti darslarida savol javoblar, diskussiyalar tashkil qilinadi, faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantirilib ball qo'yiladi. Seminar mashg'uloti darslarining qat'iy dastur bo'yicha sifatlari o'tilishini, talabalar bilimining o'z vaqtida baholanishini fandan ma'ruza olib boruvchi o'qituvchi muntazam nazorat qilib borishi shart. Shuningdek amaliyot o'qituvchisi bilan dastur bajarilishi, amaliyot darslarida nimalarga alohida e'tibor qaratilishi, ma'ruzada mavzularni qaysi qismlari kam yoki ko'proq yoritilganini va boshqa o'quv-ustubiy masalalarda maslahatlashib, fikrlashib turishi lozim.

Ma'ruza darslari rejalashtirilmagan, faqat amaliy dars o'tkaziladigan fanlardan seminar mashg'ulotlari o'tkazishda nazariy bilimlar bilan amaliy mashqlar bajarish birgalikda olib boriladi. Dastlab mavzu bo'yicha nazariy bilimlar beriladi, o'qituvchi misol va mashqlar bajarib ko'rsatadi. Shundan so'ng talabalar mustaqil mashqlar bajaradi. O'qituvchi talabalar bilimini baholab boradi. Amaliy darsni o'qituvchi xulosalab yakunlaydi.

6-Seminarning samaradorlik shartlari, seminar turlarining o'ziga xos xususiyatlari

Seminar mashg'ulotlarini o'tkazishning asosiy yo'li ta'lim oluvchilar tomonidan tayyorlangan ma'ruza va ma'lumotlarni jamoaviy muhokama qilishni tashkillashtirishdan iborat bo'ladi.

Seminar mashg'ulotlari samaradorligi ta'lim oluvchilarni seminar mashg'ulotiga tayyorlanish sifati bilan aniqlanadi. Ma'ruza va yangiliklar bilan chiquvchi, ta'lim oluvchilarning tayyorgarligi ahamiyatga ega bo'ladi. Har bir mashg'ulot uchun texnologik xaritalar ishlab chiqiladi. Texnologik xaritani loyihalash pedagogik mahorat cho'qqisi hisoblanadi, chunki mashg'ulot davomida bajariladigan amaliy ish jarayoni texnologik xaritada ketma-ketlik qidasi asosida tasvirlanadi.

O'quv maqsadlari muayyan ta'lim jarayoni yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, xatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulqi belgilaydi. Har bir fanning o'quv maqsadlari to'g'ri belgilanishi muhim

ahamiyatga ega. Umumiy o'quv maqsadlarining mazmuni yo'naltiruvchi maqsadlardan kelib chiqib belgilanadi. O'qituvchi tomonidan semina mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyasi, dars ishlanmasi va texnologik xarita ishlab chiqiladi. Har bir mashg'ulot bo'yicha dars ishlanmalari va texnologik xaritalarni ishlab chiqish o'quv jarayonini to'laqonli loyihalashtirish hamda samarali tashkil qilish imkonini beradi.

Tarix fanidan seminar va amaliy mashg'ulotlar olib borishda quyidagi seminarni tashkil etish va olib borish usullari tavsiya etiladi:

I- Rolli hamda ishbop o'yinlar.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda rolli hamda ishbop o'yinlardan samara foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Talabalarda muayyan faoliyat yuzasidan egallangan nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta'limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlari jarayoniga keng jalb etishda rolli hamda ishbop o'yinlar o'ziga xos o'rin tutadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida qo'llash nihoyatda qulay bo'lgan bir qator o'yinli texnologiyalar yaratilgan.


O'yinli texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash talabalarda muayyan faollikni yuzaga keltirish, shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga xizmat qiluvchi vaqt oralig'ini qisqartirish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishda bir qator psixologik xususiyatlar ham namoyon bo'ladi, buning oqibatida har bir talaba o'zining shaxs imkoniyatlarini namoyish eta oladi, ijtimoiy hayotda o'zi egallagan o'rin barqarorlashtiradi, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi. O'yinli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy ko'nikma va malakalarga aylanishini ta'minlabgina qolmay, balki talabalarda muayyan axloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga yordam beradi.

O'yinlarni tashkil etishda quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi:

- ta'limiy (didaktik) maqsad;
- tarbiyaviy maqsad;
- faoliyatni rivojlantirishga yo'naltiruvchi maqsad;
- ijtimoiy maqsad.


O'yin psixopedagogik jarayon sanalib, u quyidagi tuzilmaga ega bo'ladi:



Didaktik o'yinlarning umumiy tavsifi.

O'yinli texnologiyalar turli shaklda bo'lsada, ularning barchasi o'z mazmuniga ko'ra yagona maqsad sari yo'naltirilgan, ya'ni ular talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish, egallangan nazariy bilimlaridan amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko'nikmalarini hosil qilish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni uyushtirishga tayyorlash, ijtimoiy faollikni shakllantirish, etuk axloqiy sifatlarni tarkib topirish, 1.2 va sog'lom fikr, keng dunyoqarash egasi bo'lgan kamil shaxsni kamol toptirishdan iborat vazifani hal etadi.

2- Klaster.



Klasterning tuzishi ko'ndasi

1. Akliningizga nimda keladi, barchasini ёzing. Go'llari sifatini muvohama qilmang fakat ularni ёzing.
2. Xatini tuzatib olding nimda kataloqning va bosma ommalarda tuzib bering.
3. Akratning vaqt tugatiguna ёzishing tuzatmang. Alarda akningizda go'llar kelishi biridan tuzatasa, u holda kachoni yangi go'llar kelmaguncha koriga rasm chizib turing.

ИНСЕРТ ЖАДВАЛИ

График ташкил этувчининг тури, аҳамияти ва хусусиятлари

Ўқув фаолиятини ташкиллаштиришнинг жараёни тузилмаси

Интерт жадвални тўлдирish қоидаси билан танишадилар. Алоҳида уларни тўлдирадилар

"ИНСЕРТ" жадвали Мустандил ўқиш вақтида олган маълумотларни, эътидан маълумотларни тизимлаштиришнинг таъминлайди; олган маълумотни тасдиқлаш, аниқлаш, четта чиқиш, кузатиш. Аввал ўқовчи билан маълумотларни боғлаш қобилиятини шакллантиришга ёрдам беради

Ўқиш жараёнида маълумотларни алоҳида тизимлаштиришлар - жадвал устунларига "қиратдилар" матнда белгиланган қуйидаги белгиларга мувофиқ:
 "V" - мен билган маълумотларга мос;
 "+" - мен билган маълумотларга эид;
 "-" - мен уқун янги маълумот;
 "?" - мен уқун тушунмасиз ёки маълумотни аниқлаш, тўлдирish талаб этилади

Ёй һаёо

- V - биламан
- (-) - тўри келмади
- (+) - янги ахборот
- (?) - тушунмадим

V	+	-	?

Muammoli seminar mashg' ulotida ta'lim berish texnologiyasi modeli

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: ... ta
O'quv mashg' ulot shakli	Muammoli seminar
O'quv mashg' ulot rejası	1. ... 2. ... 3. ...
O'quv mashg' ulot maqsadi: ... bo'yicha bilimlarni mustahkamlash, ... to'g' risida muammoli vazifalarni yechish malakalarini rivojlantirish.	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyat natijalari:
..... to'g' risida ma'lumotlarini tizimlashtirishni o'rgatish;	... ma'lumotlarni tizimga soladilar;
..... bo'yicha muammoli vazifalarni yechishni, tahlil qilishni	... bo'yicha muammoli vazifalarni yechadilar, tahlil qiladilar;
..... imkoniyatlarni ilgari surish, ularni baholash, yakuniy xulosalar qilishni o'rgatish.	... imkoniyatlarni ilgari suradilar, ularni baholaydilar, yakuniy xulosalar qiladilar.
Ta'lim usullari	Muammoli usul, suhbat, munozara, aqliy hujum
Ta'lim shakllari	Ommaviy, jamoaviy, guruhli.
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, A32 o'lchamdagi qog'ozlar, markerlar, skoch, o'quv materiallar.
Ta'lim berish sharoiti	Guruhlarda ishlashga mo'ljallangan xona.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: tezkor-so'rov

Muammoli seminar mashg' ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1. bosqich. O'quv mashg' ulotiga kirish	Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Mashg' ulot muammoli shaklda borishini ma'lum qiladi. 1.2. Talabalar bilimini suhbat shaklida	Tinglaydilar yozib oladilar

(15 daq.)	faollashtiradi (№ ilova). Bilimlarni faollashtirish jarayonida o'quv muammosini yechish bo'yicha izlanuvchilik faoliyatida faol ishtirok etishlari uchun talabalarning egallagan bilimlarini etarligini aniqlaydi	
2 - bosqich. Asosiy (55 daq.)	<p>2.1. Talabalarga muammoli topshiriqlarni o'qib beradi (№ ilova).</p> <p>2.2. Muammoni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtirishga o'tadi: birinchi kichik muammoni ifodalaydi, so'ngra muammoli savollarni berib va ular javoblarini muhokama qilib, talabalarni uni yechish yo'lini izlashga, ya'ni birinchi oraliq xulosaga olib keladi. Shu tarzda keyingi muammolarni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtiradi.</p> <p>2.3. Talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi, muammoli topshiriqni yechish vazifasini beradi. O'quv materiallari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini tarqatadi (№ ilova). Taqdimot uchun qog'ozlarni, markerlarni tarqatadi, aqliy hujum qoidasini eslatadi. Guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi.</p> <p>2.4. Taqdimot boshlanganligini ma'lum qiladi, guruhlar chiqishlarini boshqaradi. Taqdimot vaqtidajavoblariga izoh beradi, to'g'ri yechimlarga e'tibor beradi, xatolarni ko'rsatadi, talabalar bilan birgalikda javoblar to'liqligini baholaydi, savollarga javob beradi.</p> <p>2.5. Taqdimotni yakunlaydi, muammoni yechishda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni ko'rsatadi</p>	<p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Muammoni yechish bo'yicha fikrlarini beradilar.</p> <p>Kichik muammoli yechish bo'yicha fikrlar bildiradilar,</p> <p>munozara qiladilar tahlil qiladilar.</p> <p>Xulosa chiqaradilar.</p> <p>Guruh, vaqillari taqdimot qiladilar, yakuniy xulosani beradilar.</p> <p>Tinglaydilar</p>
3 bosqich, yakuniy (10 daq)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq (№ ilova) beradi</p>	<p>Tinglaydilar</p> <p>Topshiriqni yozadilar</p>

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Hozirgi kunda tarix fanlarini o'qitishning muhim muammolaridan biri nima hisoblanadi?
2. Ma'ruza matnini tuzilishi va turlari haqida ma'lumot bering?
3. Ma'ruzaning samaradorligi shartlari qanday bo'lishi shart?
4. Tarix ta'limida ma'ruza darslarini tashkil etish qanday maqsad va vazifalarni shakllantiradi?
5. Seminar mashg'ulotlarida guruhlar qanday asoslarga ko'ra tashkil etiladi?
6. Seminar mashg'ulotlarida tanqidiy muhokama orqali qanday ijobiy yutuqlarga erishish mumkin?
7. Pedagogik o'yin psixopedagogik jarayon bo'lib, u qanday tuzilmalarga ega?
8. Klaster, Insert jadvalarini tuzish qoidalarini?
9. Muammoli seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi bosqichlarini tushuntirib bering?

7-Mavzu: Tarix fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish Reja:

1. Tarix darslarida o'quvchilarning bilish va o'yin faoliyatini uyg'unlashtirish.
2. O'yin faoliyatini tashkil etish bosqichlari.
3. Didaktik o'yinli texnologiyalarga qo'yiladigan talablar, turlari, o'ziga xos xususiyatlari, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarish.
4. O'yinli texnologiyalarning turlari.

Tayanch tushunchalar:

Innovatsion texnologiyalar, ishbilarmon o'yinlar, didaktik o'yinlar texnologiyasi va unga qo'yiladigan talablar, o'yinli darslarni tashkil etish bosqichlari, interaktiv texnologiya, kommunikativ - muloqot madaniyati, o'yinli dars vazifalari.

Mavzuni va alohida savollarini o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq, 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. T.: O'zbekiston, 1995.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 1998.
4. Og'ayev S. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. Xalq ta'limi jurnali, 2001, №3, 69-71 b.
5. Pedagogika. Pedagogicheskie teorii sistemi, texnologii. Pod.red. M.A. Smimova. - M.: Akademiya, 2004.

1. Tarix darslarida o'quvchilarning bilish va o'yin faoliyatini uyg'unlashtirish.

O'yinli texnologiyalar turli shaklda bo'lsada, ularning barchasi o'z mazmuniga ko'ra yagona maqsad sari yo'naltirilgan, ya'ni ular talabalarning nazariy

bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish, egallangan nazariy bilimlarida amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko'nikmalarini hosil qilish ularni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni uyushtirishga tayyorlash, ijtimoiy faolligni shakllantirish, yetuk axloqiy sifatarni tarkib toptirish, teran va sog'lot fikr, keng dunyoqarash egasi bo'lgan komil shaxsni kamol toptirishdan iborat vazifani hal etadi.

Psixologlarning ta'kidlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'z boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. L.S.Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy burtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi.

A.N.Leontev o'yinga shaxsning hayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlarini) xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta'kidlaydilar, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi.

O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik
- kommunikativlik (uyushtiruvchilik)
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish
- davolovchilik
- tashxis
- millatlararo muloqot
- ijtimoiylashuv

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklini qo'llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtirilgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:


1. O'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
2. O'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi;
3. Shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkoniyat yaratadi;
4. Hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengishga imkoniyat yaratadi;
5. O'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallashga imkoniyat yaratadi;
6. Shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;

7. Insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o'rganishga e'tibor qaratiladi;

8. O'yin ishtirokchilarida ommaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni talabalarning bilim olishi va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: sujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, anjumanlar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin.

Didaktik o'yin texnologiyasi



2. O'yin faoliyatini tashkil etish bosqichlari.

O'qituvchi-pedagog avval talabalarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhlari o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki talabalar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik hamda o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

6. Uyg'a vazifa berish.

7. Mashg'ulotni umumiy yakunlash.

3. Didaktik o'yinli texnologiyalarga qo'yiladigan talablar, turlari, o'ziga xos xususiyatlari, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarish.

O'qituvchi-pedagog didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishga qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

-Didaktik o'yinli mashg'ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta'lim- tarbiyani rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo'lishi;


- jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag'ishlanib, ular o'yin davomida hal qilinishi;

- barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi;

- o'yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi;

- mashg'ulot davomida didaktik tamoyillarga amal qilinishi va eng kam vaq sarflanishiga erishishi kerak.

Didaktik o'yinli dars va uning turlari



Didaktik o'yinli mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari

Didaktik o'yinli mashg'ulotlar	Mavzu mazmuniga ko'ra mazkur mashg'ulotdan foydalanish	Mashg'ulotlarning didaktik funksiyalari	Talabaniing faoliyati
Sujetli-rolli	Fanning turli sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish, tabiatdagi va kundalik hayotdagi muammolarni hal etish imkoniyati bo'lganda	Kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni, tabiat obyektlari va tabiiy hodisalar o'rtasidagi aloqalar va bog'lanishlarni adabiy-badiiy tarzda yoritish	Muayyan rollarni bajarish orqali bilim va ko'nikmalarni egallash
Ijodiy o'yin	Avval o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati bo'lganda	Muammoli vaziyatlarni avval o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash orqali hal etish	Ijodiy izlanish orqali yangi mavzuni o'zlashtiradi
Ishbilarmonlar o'yini	Turli obyektlarga tavsif berish, ularni taqqoslash imkoniyati bo'lganda	Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida talabalar dunyoqarashini kengaytirish, kasbga yo'naltirish	Auksionda ishtirok etish orqali yangi mavzuni o'zlashtiradi
Anjuman	Fanning turli sohalariga oid bilimlar mujassamlashtirgan va qo'lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish imkoniyati bo'lganda	Qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish, ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, kasbga yo'naltirish	«Olimlar» maqo-mini olib muayyan mavzularda izlanishlar olib boradi
Matbuot injumani	Fanning turli sohalarini qamrab olgan, talabalarining avval o'zlashtirgan bilimlari-dan foydalanish lozim bo'lganda	Qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish, darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash	«Olimlar» va «Muxbirlar» maqomini olib mavzuni o'zlashtiradi

4. O'yinli texnologiyalarning turlari.

Pedagogik o'yinlar faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o'yin metodikasi, soha xususiyati, o'yin muhiti bo'yicha tasnif qilingan. Oliy ta'lim amaliyotida tadbirkorlik o'yinlariga alohida ahamiyat beriladi. Tadbirkorlik o'yinlari nazariyasi umuman boshqa o'yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog'langan.

Tadbirkorlik o'yinlarini mashhur psixologlar L.S.Vigodskiy, A.N.Leontev, P.YA.Galperin va boshqalarning ishlarida nazariy asoslangan.

Tadbirkorlik o'yinlari o'z xarakteriga ko'ra insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi.

Tadbirkorlik o'yinlari bilish va o'qitishning vositasi sifatida XX asrning 20 yillarida gurkirab rivojlandi. Tadbirkorlik o'yinlariga taqlidiy o'yinlar bilishning vositasi sifatida asos bo'ldi. Taqlidiy o'yinlarga o'z navbatida harbiy va harbiy siyosiy o'yinlar asos bo'lgan.

A.A.Verbiskiy tadbirkorlik o'yinlariga o'qitishning ishoraviy-kontekst shakllari sifatida qaraydi. Uning fikricha, tadbirkorlik o'yinlarida mashq qilish faoliyati va bo'lajak kasbiy faoliyat model yoki uning prototipi, qaysidir sun'iy va tabiiy tizim sifatida o'zaro nisbatlanadi. Shu tufayli tadbirkorlik o'yinlari kasbiy faoliyatning ishoraviy modellari sifatida belgilanadi, uning konteksti (mazmuni) ishora vositalari, ya'ni tabiiy tilni ham hisobga olgan modellashtirish taqlid va aloqa yordamida beriladi.

A.A.Verbiskiy oliy o'quv yurtining vazifasini bunday o'qitishda, ya'ni talabani bir yetakchi faoliyat tipi (o'quv) dan boshqa (kasbiy) tipga faoliyatning predmeti, motivi, maqsadi, vositasi, usul va natijalarini maqsadga muvofiq yo'naltirilgan (o'zlashtirilgan) holda o'tkazishni ta'minlash deb biladi.

Tadbirkorlik o'yini yangi texnologiya sifatida mohiyatan quyidagilarni bildiradi:

1. Ishlab chiqarish imitasi modeli sifatida taqdim etilgan o'quv material mazmunining izchilligi;

2. O'yinli o'quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlari yaratish;

3. O'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni tug'dirish va ularni amalga o'zlashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;

4. O'yinning ta'limiy va tarkibiy samaradorligi yig'indisi;

5. O'yinni olib boruvchi o'qituvchining talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishga o'tishni ta'minlashi;

Rolli hamda ishbop o'yinlar

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda rolli hamda ishbop o'yinlardan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Talabalarda muayyan faoliy yuzasidan egallangan nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarni aylanitirish, ularda ta'limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rolli hamda ishbop o'yinlar o'ziga xos o'rin tutadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida qo'llash nihoyatda qulay bo'lgan bir qancha o'yinli texnologiyalar yaratilgandir.

O'yinli texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash, talabalarda muayyan faollikni yuzaga keltirish, shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga xizmat qiluvchi vaqt oraliqini qisqartirish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishda bir qator psixologik xususiyatlar ham namoyon bo'ladi, buning oqibatida har bir talaba o'zining shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta oladi, ijtimoiy hayotda o'zi egallagan o'rinni barqarorlashtiradi, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi. O'yinli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy ko'nikma va malakalarga aylanishini ta'minlabgina qolmay, balki talabalarda muayyan axloqiy, irodaviy sifatlarini ham tarbiyalashga yordam beradi.

O'yinlarni tashkil etishda quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi:

• ta'limiy (didaktik) maqsad;

• tarbiyaviy maqsad;

• faoliyatni rivojlantirishga yo'naltiruvchi maqsad;

• ijtimoiy maqsad.

Zakovat o'yini

Bu o'yinni o'tkazishda dastlab auditoriyani o'zinga moslashtirish lozim bo'ladi. O'yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o'quvchilar o'yinda ishtirok etish hukukiga ega bo'ladi. O'yin katnashchilari 6-8 kishidan iborat bo'ladi. Qolgan o'quvchilar esa o'yinni tamoshabin sifatida kuzatib turishadi. O'yin uchun mo'ljallangan savollar konvertga joylashtirib ko'yiladi. Guruh sardori savolni olib o'qituvchiga beradi. O'qituvchi savolni o'qib eshittiradi. Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o'yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi. Bu o'yinni asosan, yuqori sinfda o'tkazish tavsiya etiladi.

Zakovat o'yinlarida asosan, o'rta va muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal etishga diqqat qaratiladi.

"To'g'ri top" o'yini uchun ikkita plakat kerak bo'ladi. O'qituvchi birinchi mavhada biror mavzu bo'yicha kalit so'zlarni boshlanishi yozib qo'yadi, o'quvchi esa tartibni o'zgartirgan holda kalit so'zlarning davomini yozib qo'yadi. O'yinni 6 sinflarda "Qadimgi dunyo tarixini davrlashtirish" mavzusini o'rganishda qo'llash mumkin.

1. Poleolit bu...
2. Mezolit bu...
3. Neolit bu...
4. Eniolit bu...
5. Bronza bu...
6. Temir davri bu...

1. Insoniyat tarixida ilk tosh davri bo'lib er.avv. 1 mln.-12 ming yilliklarni ichiga oladi...

2. O'rta tosh davri bo'lib, er.avv. 12 - 7 ming yilliklarni o'z ichiga oladi....

3. Yangi tosh davri bo'lib, er.avv. 6 – 4 ming yilliklarni o'z ichiga oladi.....
4. Mis tosh davri bo'lib, er.avv. 4 – 3 ming yilliklarni o'z ichiga oladi
5. Er.avv. 3 – 2 ming yilliklarni o'z ichiga olib, materiarixtadan olatlarni ajralib chiqadi.....
6. Er.avv. 1 – ming yillikdan boshlanib, bu davrda insoniyat tarixidagi 2 mehnat taqsimoti ro'y beradi....

"Kim biladi?" o'yinida o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh a'zolari "O'zbekiston tarixi" 8-sinf darsligidan biror hukmdor yoki tarixiy shaxs haqida ma'lumot o'qishadi. Ikkinchi guruh a'zolari esa hukmdor yoki tarixiy shaxsni kim ekanligini aniqlashadi. Keyingi navbatda ikkinchi guruh a'zolari biror hukmdor yoki tarixiy shaxs haqida ma'lumot o'qishadi. Birinchi guruhdagilar esa hukmdor yoki tarixiy shaxsni kim ekanligini aniqlashadi. Har bir to'g'ri javob uchun yutukli kartochkalar berishadi. Bu o'yinni soxlag mavzu yoki fanni o'rganishda dars jaryonida o'quvchilarni zeriktirishga yoqo'ymaslik, qiziqtirish maqsadida ham o'tkazish mumkin. Masalan, 8-sinf "O'zbekiston tarixi" fanida foydalanish mumkin:

1- guruh:

U hukmdor Ablxayronning farzandi Shoxbudoqsultonning o'g'li. Uning ismining ma'nosi "Kuch qudrat" demakdir. U XV asrning 80-yillarida davlatini to'zgan.

2- Guruh: Shayboniyxon.

O'yin shu tarzda davom etadi. Ushbu o'yin o'quvchilarda fanga yozgan organilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Tarixga bo'lgan ijodiy yondashuvni o'stiradi, mantiqiy fikrlash malakalarini oshiradi.

Rol ijro etish o'yinlari. Unda konkret shaxsning xulqi, xatti-harakati, vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi. Bu o'yin orqali tarix darslarida tarixiy shaxslarni shaxsiyatini o'zligi muvaffaqiyatli foydalaniladi. Masalan, Tumaris, Shiroq, Spitarni, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Xusayn Boyqat, Alodhey Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Shayboniyxon, Amir Olimxon, Noqat, Xudoyorxon, Muhammad Rahimxon II va Dukhii Eshon kabi shaxslar bo'lishi mumkin.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Tarix darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatida o'yin texnologiyalari foydalanish orqali qanday samaradorlikka erishish mumkin?
2. Ta'limda o'yin faoliyatini tashkil etish qanday bosqichda amalga oshiriladi?
3. Didaktik o'yinli mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyati qanday?
4. Tarix darslarida o'yinli texnologiyalardan foydalanish qanday pedagogik xususiyatlarni yuzaga keltiradi?
5. O'yinli faoliyat qanday funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi?
6. Pedagogik o'yinlar qanday asosiy yo'nalishlarga bo'linadi?
7. Rolli va ishbob o'yinlar qanday tashkil etiladi?

8-Mavzu: Tarix fanini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari

Reja:

1. Muammoli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari va turlari.
2. Muammoli o'qitishga qo'yiladigan talablar.
3. Tarix fanini o'qitishda muammoli darslardan foydalanish.

Tayanch tushunchalar:

Muammo, muammoli ta'lim, muammoli ta'limning funksiyalari, muammoli ta'limni muvaffaqiyatli kyechish shartlari, muammoli vaziyatlar yaratish usullari, muammoli o'qitish metodlari, muammoli o'qitishga qo'yiladigan talablar, muammoli ta'lim darajalari, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berilishi, "Mustaqillik Deklaratsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining qo'liga kiritilishi.

Mavzuni va alohida savollarini o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 173.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2012
3. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Malakali pedagog kadrlar hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida. // Xalq so'zi, 2012. 29 may, № 10.
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol davlat – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
5. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yoridamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
6. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.: 2008
7. S. Usmonov. "Pedagogik texnologiya asoslari" T.: 2004
8. Fuzailova G.S, Rahmatullaeva O.R. "Tarix fanini kasbiy sohalariga yondashirib o'qitish metodikasi". Uslubiy qo'llanma. – T., TDPU, 2012.
9. Xodiyev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-studi - iqtisodiy o'quv yurtidagi zamonaviy ta'lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo'llanma "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari" turkumi. - T.: TDIU, 2009.
10. J. Yo'ldoshev, F. Yo'ldosheva, G. Yo'ldosheva. "Interfaol ta'lim sifat kalafati". - T.: 2008

1. Muammoli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari va turlari.

Muammoli ta'lim-Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali talib oluvchi faoliyatini faollashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani

shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Muammo-ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning subektiv shaklidir. U muammoli vaziyatda, ya'ni jamiyat rivojlanish jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida obyektiv ravishda vujudga keladigan vaziyat. Ta'lim maqsad va vazifalariga ko'ra muammoli va an'anaviy bo'lishi mumkin.

Agar ta'lim muassasasi o'z oldiga o'quvchi(talaba)larning fikrlash qobiliyatlarini, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishni bosh maqsad qilib olsa, unda pedagogik jamoaning muammoli ta'lim asosida faoliyat yuritish malakalarini shakllantirish zarur. O'quv-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish ta'lim jarayoniga va o'quv-biluv jarayoniga "muammoli o'qitish" didaktikasini joriy etib borish asosiy ish jarayoniga aylanmaga h kerak.

Muammoli ta'lim ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish, o'quvchilarning o'quv-biluv jarayoniga extiyoji qiziqishi, xoxishini orttirishga sabab bo'ladi.

Agar o'qituvchi muammoli ta'limning mazmun — mohiyatini yaxshi o'zlashtirib olsa, o'quv jarayonining shakli va metodlarini, texnik jihatdan jixozlanishni amalda qo'llay olsa u o'z-o'zidan muvaffaqiyat keltiradi.

O'qituvchining didaktik jihatdan yaxshi tayyorgarligi juda muhimdir. Chunki muammoli ta'limning nazariy va amaliy jihatlarini atroflicha o'rganish o'quv jarayonini san'at darajasiga olib chiqish demakdir, u o'z navbatida o'quvchining ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirib olishiga kafolatdir.

Ilmiy izlanish tajriba-sinovlar, pedagogik amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, muammoli vaziyatlarni hamma o'quv faoliyatlariga nisbatan qo'yidagi tiplarga bo'lish mumkin.

Birinchi tip.

Agar o'quvchilar oldiga vazifalar qo'yilib, qo'yilgan masalalarga xayotdan o'quv materiali asosida javob talab qilinsa, muammoli vaziyat kelib chikadi.

Ikkinchi tip.

O'quvchilar ilgari daraslarda olgan bilimlarini yangi mavzuni o'zlashtirish vaqtida qo'llash zarurligiga uchrab kolsalar. Yangi mavzunning yechim ilgari olgan bilimlarini o'zlashtirganliklarini talab etib, vaziyatdan chiqib olmay qolsalar.

Uchinchi tip.

Muammoli vaziyatlarni shunday xolatlarda ham uchratish mumkin. O'rganilgan nazariy bilimlar yechimida mavzuni o'rganish amaliy yechimlarga mos kelmasa.

To'rtinchi tip.

Muammoli vaziyat shunday xolatlarda ham uchrashi mumkinki, o'quv topshirigini amalda bajarish uchun o'qituvchida isbot, nazariy asos bo'lmasa.

Quyidagilar muammoli ta'limni muvaffakiyatli kechish shartlaridir:

- 1.O'quv materialini muammolashtirish.
- 2.O'quvchining faolligini tashkil etish.
- 3.O'qitishning o'quvchi hayoti, turmush tarzi, mexnati o'yin bilan aloqal...

Muammoli vaziyatlar yaratish usullari:

- 1.O'qituvchi bolalarni ziddiyat xolatiga keltiradi va o'zlaricha yechimini topishni taklif qiladi;
- 2.Amaliy faoliyatdagi ziddiyatlar to'qnashuvini vujudga keltiradi. -
- 3.Bir savolning o'ziga har xil fikrlarni bildiradi.
- 4.Hodisani har xil pozitsiyadan ko'rib chiqishni taklif qiladi;
- 5.Taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalar chiqarishga undaydi.
- 6.Aniq savollar qo'yadi, yechimini so'raydi.
- 7.Muammoli topshiriqlarni qo'yib, yechimini suraydi.

Muammoli ta'lim sohasida qalam tebratgan M.I.Maxmudov, M.N.Skatkin, A.M.Matyugikven, I.Ya.Larner kabi olimlarning xulosalariga ko'ra qo'yidagi metodlarni keltirish mumkin:

- tushuntirish, namoyish etish;
- reproduktiv;
- muammoli bayon qilish;
- ilmiy-izlanishli metodlari mavjud.

Muammoli o'qitish metodlari

1.Muammoli bayon etish, buning pedagog mustaqil ravishda muammoli vaziyatni vujudga keltiradi va unga mustaqil yechimini qidiradi, topadi.

2.Pedagog mustaqil ravishda muammoni qo'yadi, ammo uning yechimini o'quvchilarni jalb qilgan holda hamkorlikda izlaydilar, topadilar, xulosalaydilar.

3.Pedagog o'quv jarayonida o'quvchilar oldiga muammoni qo'yadi. O'quvchilar uni izlaydilar, axborot almashadilar, qayta ishlab, o'zlarining ishtiroklaridagiga yechimini topadilar.

4.Muammoli vaziyat o'quvchilarni o'zlar tomonidan vujudga keltiriladi. Uning yechimini boshqa o'quvchilar izlanish, yangicha fikrlash orqali topadilar, o'zaro yechim qidiradilar. O'qituvchi yo'llanma, ma'qo'llash orqali passiv ishtirok etadi.

2. Muammoli o'qitishga qo'yiladigan talablar.

Ta'lim muassasalari oldida turgan bosh maqsad o'quvchilarni har tomonlamma garmonik rivojlantirishni ta'minlashdan iborat. O'quvchi shaxsini har tomonlamma va garmonik rivojlantirishini ko'rsatuvchi asosiy faktor uning yuqori darajada mustaqil fikrlay olishida namoyon bo'ladi. Agar o'quv jarayoni o'quvchini mustaqil fikr yuritish olishiga urgatsa, unday ta'limni rivojlantirishga moslangan o'quv-biluv jarayoni deb qabul qilish mumkin.

O'quvchini fikrlashga yunaltilgan maxsus vositalarni qo'llab, uni fanga qiziqitirish, erkin fikrlashga o'rgatish, rivojlantirish tizimi yaratib borilsa, buni muammoli ta'lim deyish mumkin.

O'quvchini faollashtirishda samarali metod, usullarni an'anaviy ta'limni amalda oshirishda didaktik yondashuv asosida olib borilishi deb tushuntiradilar.

O'quvchilarning aqliy fikrlashlarini tayyor mavjud bo'lgan yo'llar bilan ushbu maqsadga erishishning oddiy usuli bo'lib, u ijodkorlikka, izlanuvchanlikka olib kelmaydi.

Muammoli ta'lim jarayonida o'quvchi taxlillar asosida ko'llash, sintez qilish, umumlashtirish, faktik materialni aniqlashtirish, o'zi mustaqil yangi axborotni oladi. Boshqacha aytganda, bu bilimni kengaytirish, chuqurlashtirishni ilgari qilgan, o'zlashtirgan bilimlari asosida o'zlashtirish, qo'llay bilishdan iborat.

Olgan bilimlarini yangicha qo'llashda o'qituvchi qo'llanma, darslikdan tayyor holda bermaydi, u o'quvchi tomonidan izlab topiladi. Mana shu holda izlanuvchanlik, sinchkovlik metodida ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Aqliy izlanish - juda murakkab jarayon, u asosan muammoli vaziyat vujudga keltirilganda, aniq muammolar kuchaygandagina vujudga keladi. Agar o'qituvchi topshiriq berib; uni qanday bajarish yo'lini aytib uni bajarishga undasa, bu muammoni yechishga kirmaydi. Bu o'quvchini tanho yechimga o'rgatadi xolos.

O'quvchini haqiqiy faol lashtirish, uni muammoni mustaqil fikrlash, nazariy, amaliy tomonlarini hisobga olish, tahlil orqali muammo yechimini o'zi uylagandek yakun toptirishga olib kelish kerak.

Muammoli ta'lim an'anaviy ta'limdan o'zining maqsad, prinsip, metodlari, vazifalari jihatdan keskin farq qiladi. An'anaviy ta'limning bosh maqsadi ilgaritdan fanga ma'lum bilimlarni o'zlashtirish, o'quvchini fanga ma'lum ma'lumot bilan qurollantirish, ularda ular haqida tushuncha va malakalar hosil qilishdan iborat.

Muammoli o'qish o'quvchilar o'quv-biluv jarayonida muammoli vaziyatni tahlil etish, sintez qilish, umumlashtirish asosida uning yechimi bo'yicha takliflar, gipotezalar keltiradilar, qarashlarining to'g'riligini isbotlashga harakat qiladilar.

Muammoli vaziyat -bu insonning intellektual qiyinchilikda paydo bo'lgan vaziyatdan chiqish jarayoni, bunda ma'lum va noma'lum faktlarga suyanib, maqsad sari intilish, vaziyatdan chiqish olishga intilish, qiziqishlar orqali ijodkorlikka, maxsulot olishga yo'l ochadi.

Psixologlar tomonidan muammoli vaziyatdan chiqishda sermaxsul ishlay olish, chiqish olish ketma-ketligi aniqlangan.

U qo'yidagicha ko'rinishga ega:

Muammoli vaziyat – muammo - uning yechimini izlab topish - muammoning yechimi.

Muammoli vaziyatlardan aqliy harakat orqali chiqish ketma-ketligi b qancha bosqichlardan iborat:

- muammoning vujudga kelishi;
- qiyinchilik nimadan iboratligini tushunib olish;

- uning yechimi yo'llarini qidirib topish, bunda yechim bo'yicha fikr, takliflarni keltirish, isbotlash;
- taxminlarni isbotlash;
- muammo yechimining tug'iligini tekshirish.

Muammoli ta'lim darajalari quyidagicha:

Birinchi bosqich. O'qituvchi muammoni to'liq yoritadi va uni yechimini topib beradi, qarshi savollar yordamida o'quvchilarni fikrlashga ixtiyoriy majbur etadi.

Ikkinchi bosqich. O'qituvchi muammoni qo'yib, uning mazmunini ifodalaydi. Keyin o'quvchilarni muammo yechimini mustaqil izoxlashga yo'naltiradi.

Uchinchi bosqich. O'qituvchi muammoni bayon etmaydi, balki muammoli vaziyat yaratadi. O'quvchilarni mustaqil fikr yuritib, muammoli vaziyatdan chiqish yullarini izlab topadilar.

Turtinchi bosqich. Bunda uqituvchi izlanish sohasini belgilaydi xolos, muammoga yaqinlashib boradi, lekin uning mazmunini va yechimini ko'rsatmaydi. O'quvchini mustaqil faoliyatga yo'naltiradi.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga chiqarish mumkin, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muammoli o'qitish metodlari juda zarur va kerak. Chunki muammoli ta'lim o'quvchini izlanishga, ijodkorlikka, erkin fikrlashga o'rgatadi. O'quvchida bunday sifatning shakllanishi, o'quv-biluv mas'uliyatini oshiradi, mustaqil bilim olish uning kundalik odati holatiga aylanadi. Bu esa ta'lim mazmunini, yangi dastur va standartlarni o'zlashtirib olishga kafolat bo'ladi.

3. Tarix fanini o'qitishda muammoli darslardan foydalanish.

Tarix darslarida "Muammoli ta'lim" texnologiyasidan foydalanish orqali o'quvchi (talaba) larda tarixda bo'lib o'tgan voqea va hodisalarga o'zlarining fikr-mulohazalarini erkin bildiradi olish, taqqoslash, xulosalar chiqarish kabi ko'nikmalarni hosil qilishlariga keng imkon yaratadi. Ayniqsa bugungi axborot ko'lami keng bo'lgan, shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoning mafkuraviy manzarasini xolis baholash, jahonda va yurtimizda sodir bo'layotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqealarni tushuna olish, tahlil qilish, erkin fikr bildirish kabi faulatlarni shakllantiradi.

Quyida "O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining o'lg'a kiritilishi va uning jahonshumul tarixiy ahamiyati" mavzusini talabalarga o'rgatishda "muammoli ta'lim" texnologiyasidan foydalanish modelini ishlab chiqamiz:

1. Mavzu: "O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining qo'lga kiritilishi va uning jahonshumul tarixiy ahamiyati".

2. Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarga ushbu ma'ruzada, mustaqilligimizning ma'no-mazmuni, uning naqadar ulug' va aziz ne'mat ekani, mavzimizda ayniqsa mamlakat rahbari sifatida I.A. Karimovning istiqbolga erishish, uni saqlash va mustahkamlash yo'lida qanday og'ir sinov va

mas'haqqatlardan o'tgani, ayni vaqtda mamlakatimiz mustaqillikning 22 yill davomida erishgan yutuq va marralar, ularning ahamiyati, bugungi kunda oldimizda turgan dolzarb vazifalar xususida ma'lumotlar berish va ularning mazmun-mohiyatini tushuntirishdan iborat.

3. O'qituvchi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" deb nomlangan kitobidagi mustaqillikka erishganimizgacha bo'lgan asosiy muammolarni slaydlar asosida talabalarga bosqichma-bosqich ko'rsatadi va muammoli vaziyat keltirib chiqaradi:

3.1. Sobiq Ittifoq tarkibidagi respublikalarda milliy o'zlikni anglash, ona tiliga, madaniyat va tarixiga, kelajakka yangicha qarash, insoniy huquq va erkinliklari uchun ko'rashish hissi o'tgan asrning 80-yillariga borib kuchaydi. O'sha paytda bizning yurtimiz - O'zbekistonda keng munozaralarga sabab bo'lgan muammolardan biri o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi bo'ldi. Bu muammoni tinch yo'l bilan qonuniy asosda hal etish yuzasidan boshlangan harakat qudratli tus olib, unda ziyolilar, talaba yoshlar, keng jamoatchilik faol ishtirok etdi.

Savol: O'zbekiston hali sobiq ittifoq tarkibidagida o'zbek tiliga davlat tili maqomini berilishi siyosiy nuqtai-nazardan nimani anglatardi?

Qarshi savol: O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilmasa ham xoxlovchilar o'zbek tilida, boshqalar rus tilida yoki boshqa tillarda gaplashayotgan ediku? bu nima uchun kerak bo'ldi?

3.2. Bu masalani milliy o'zlikni anglab etishdagi ahamiyatini teran anglagan O'zbekistonning yangi rahbari Islom Karimov katta jasorat bilan uni hal qilishga kirishdi. Natijada, 1989-yil 21-oktyabrda XI chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining XI sessiyasida O'zbekiston SSRning "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilindi. Qonunning 1-moddasi, 1-qismiga ko'ra, "O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat tili o'zbek ilidir" deb belgilab qo'yildi.

O'zbekiston SSRning "Davlat tili haqida"gi qonunining 4-moddasi, 1-qismida "O'zbekiston SSRda ishlovchi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari rahbarlari o'z xizmat vazifalarini bajarish uchun respublika davlat tilini yetan darajada bilishlari shart". Qonunning 5-moddasi, 1-qismida "O'zbekiston SSR davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida sez, plenum, qurultoy, sessiya, konferensiya, majlis va kengashlar respublikaning davlat tilida olib boriladi va aynan tarjimai ta'minlanadi" deyilgan.

Savol: Qonunning 5-moddasi, 1-qismida "O'zbekiston SSR davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida sez, plenum, qurultoy, sessiya, konferensiya, majlis va kengashlar respublikaning davlat tilida olib boriladi va aynan tarjimai ta'minlanadi" deb belgilab qo'yilishi sizningcha qanday siyosat ma'noni anglatadi?

3.3. 1990-yil 20-iyunda respublikamiz Oliy Soveti tomonidan qabul qilingan "Mustaqillik Deklaratsiyasi" qabul qilindi. Deklaratsiyaning 12-bandida esa ushbu hujjat respublikaning "yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish uchun asos" bo'lishi qayd etilgan. O'shanda bunday mazmundagi hujjat sobiq ittifoq hududida birinchi bo'lib O'zbekistonda qabul qilingan edi.

Oliy Kengash qarori bilan 1990 yil 21 iyun kuni Prezident Islom Karimov raisligida davlat arboblari, deputatlar, mutaxassislardan iborat 64 nafar a'zoni o'zida jamlagan Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi va Konstitutsiya loyihasi ana shu komissiya tomonidan 2 yildan ortiq vaqt mobaynida tayyorlandi.

Savol: Davlat arboblari, deputatlar, mutaxassislardan iborat 64 nafar a'zoni o'zida jamlagan Konstitutsiyaviy komissiya 1990 yil 21 iyun kuni tuzilgan bo'lsada, nima sababdan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabrda qabul qilindi.

3.4. Prezidentimiz Islom Karimovning 1991 yil 17-19 avgust kunlari "Hindiston Respublikasiga rasmiy tashrif O'zbekiston Prezidentining xorijga qilgan birinchi mustaqil - tarixiy tashrifi edi". Yurtboshimiz Hindistonda bo'lgan bir paytda - 19 avgust kuni o'zini "Davlat favqulodda holat qo'mitasi", ya'ni GKChP deb atagan bir guruh siyosiy avtyuristlarining davlat to'ntarishini sodir etishga qaratilgan murojaati e'lon qilindi. Afsuski, O'zbekiston rahbarining safarda ekanidan foydalanib, GKChPning noqonuniy qarorlarini qo'llab-quvvatlaydigan rahbarlar yurtingizda ham topildi.

Prezident Islom Karimov GKChP e'lon qilinganini Agrada eshitib, 19 avgust kuni zudlik bilan Toshkentga qaytdi. Toshkent aeroportida Yurtboshimizni rasmiy kishilardan tashqari, Turkiston harbiy okrugi bosh qo'mondoni hamda Markazdan kelgan 3 nafar general kutib oladi. Bu o'sha paytdagi mavjud rasmiy protokol qoidalariga mutlaqo zid bo'lib, tagdor siyosiy ma'noga ega edi. Islom Karimov aeroportdan to'g'ri hukumat binosiga kelib, kechqurun hukumat a'zolari bilan uchrashdi hamda O'zbekiston SSR hududida GKChPning qonunga zid qarorlarini bekor qilish haqida ko'rsatma berdi.

Savol: "Davlat favqulodda holat qo'mitasi", ya'ni GKChP qanday maqsadlarni ko'zlab tuzilgan edi?

Savol: Toshkent aeroportida Yurtboshimizni rasmiy kishilardan tashqari, Turkiston harbiy okrugi bosh qo'mondoni hamda Markazdan kelgan 3 nafar general kutib olishi qanday tagdor siyosiy ma'noni anglatardi.

3.5. Mamlakatimiz rahbarining 1991 yil 31 avgustda, o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida nutq so'zlayotgan vaqti va ayniqsa o'sha nutqdagi: "Men shu bugundan e'tiboran I sentyabni respublikamizda Mustaqillik kuni, umumxalq bayrami deb e'lon qilishni taklif etaman", degan so'zlari yanragan vaqtdagi sessiya ishtirokchilarining holatini "O'zbekiston mustaqillikka erishish arafasida yohud sho'rolarning so'ngi talvasasi" filimidan namoyish etiladi.

Savol: Sessiya ishtirokchilarining ko'pchiligi xalqimizning asriy orzusi bo'lmish Davlat mustaqilligi e'lon qilinganligini eshitib nima sababdan jim turishganligini izohlang?

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Muammoli ta'lim nima?
2. Muammoli ta'limni muvaffaqiyatli kyechish shartlarini ayting?
3. Muammoli vaziyat yaratishning qanday usullari bo'?
4. Muammoli vaziyatlardan chiqish ketma-ketligi haqida gapiring?
5. Tarix fanini o'qitishda muammoli ta'limning o'rni?

6. Muammoli ta'lim metodlari qaysilar?
7. Muammoli ta'lim sohasida ish olib borgan olimlar?
8. Muammoli ta'lim bosqichlari?

9-Mavzu: Tarix ta'limida keys-texnologiyasidan foydalanish

Reja:

1. Keys haqida tushuncha. Keys texnologiyasining mazmun mohiyati. Keyslarni ishlab chiqish. Keyslarning turlari.
2. Keysni ishlab chiqishning protsessual tizimi. Keys matnining yozilishi. Keys matni va ilmiy pedagogik pasporti, rasmiylashtirish va keynsing baholanishi.
3. Keysning ta'lim amaliyotiga joriy etilishi va tarix darslarini o'qitish jarayonida keyslarni ishlab chiqish.

Tayanch tushunchalar:

Keys, keys texnologiyasi, keyslarni ishlab chiqish, keysni yechish texnologiyasi, keyslardan foydalanish usullari, keys muhokamasi tartibi, keys bilan ishlash natijalarining yozma shakli, "O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li" "O'zbek modeli".

Mavzuni va alohida savollarini o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 173.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Malaka pedagog kadrlar hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunda kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida. // Xalq so'zi, 2012. 29 may, № 10.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
4. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
5. A. Abduqodirov, R. Ishmuhamedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". T.: 2008
6. S. Usmonov. "Pedagogik texnologiya asoslari". T.: 2004
7. Fuzailova G.S, Rahmatullaeva O.R. "Tarix fanini kasbiy sohalar yo'naltirib o'qitish metodikasi". Uslubiy qo'llanma. – T., TDPU, 2012.
8. Xodiyev B.Yu., Gofish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-studi - iqtisodiy o'quv yurtidagi zamonaviy ta'lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo'llanma. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari" turkumi. – T.: TDIU, 2009.
9. Yo'ldoshev, F. Yo'ldosheva, G. Yo'ldosheva. "Interfaol ta'lim sifat koflati". -T.: 2008

1. Keys haqida tushuncha. Keys texnologiyasining mazmun mohiyati.

Keyslarni ishlab chiqish. Keyslarning turlari.

Keys-stadi inglizcha "sase" - to'plan, aniq vaziyat, "studi" - ta'limdir. Keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning muqaddamda muvofiq tarzidagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etishga asoslanadi.

Keys-stadi - ta'lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli o'qinishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir.

Keys ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870 - yilda qo'llanilgan edi. 1920 - yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilari yuristlarining o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

O'quvchilar tomonidan keysni yechish texnologiyasi:

Birinchi bosqich - keysni hal etish bo'yicha individual (auditoriyadan tashqari) ish. Ikkinchi bosqich - keys bilan birgalikda jamoa bo'lib (auditoriyada) ishlash.

Birinchi bosqich - keysni hal etish bo'yicha individual (auditoriyadan tashqari) ish. Ikkinchi bosqich - keys bilan birgalikda jamoa bo'lib (auditoriyada) ishlash.

- Keys materiallari bilan tanishadi;
- taqdim etilgan vaziyatni o'rganadi, izohlaydi va asoslaydi;
- muammo va muammo osti muammolarni ajratadi,
- vaziyatni taqdiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi;
- berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi;
- ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi;
- taklif etiladigan qarorni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi,

ikkinchi bosqich - keys bilan birgalikda jamoa bo'lib ishlash;

- O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, keys bilan birgalikda ishlashadi;
- guruh a'zolarining vaziyat, asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari haqidagi turli tasavvurlarini muvofiqlashtirishadi;
- yechimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qo'yilgan muammo nuqtayi nazaridan ushbu vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlashadi;

- muammoli vaziyat yechimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yo'lini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam dasturini batafsil ishlab chiqadilar;
- taqdimotga tayyorlanadi va namoyish etiladigan materialni rasmiylashtirishadi.

Keysni yechish natijalarini kichik guruhlar tomonidan taqdimotini taqdim etish: -muammoli vaziyat yechimining o'z variantini taqdim etadi;

-tanlangan harakatlar yo'lini izohlaydi va uning oqilonaligini asoslaydi;
-boshqa guruhlar qatnashchilari savollariga javob beradi va o'z takliflarini aniqlashtiradi.

Jamoa bo'lib keys ustida ishlash:

- guruhlar taklif etgan yechimlar variantlarini muhokamasi;
- taklif etgan yechimlarning o'zaro baholanishi.
- taklif etilgan yechimlarning hayotiyliigi va amalga oshirilishi mumkinligiga birgalikda (o'quvchilar va o'qituvchi) baho berilishi ham mumkin.

O'qituvchining harakatlarning izchilligi:

- o'qituvchi mashg'ulot mavzusi va maqsadini ma'lum qiladi;
- o'quvchilarning prognoz qilinadigan ta'limdagi yutuqlari ro'yxatini e'lon qiladi;
- o'quv mashg'ulotining tartibi va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi;
- o'quv natijalarini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari e'lon qiladi;
- o'quvchilarda bo'lg'usi o'quv faoliyatiga qiziqishni shakllantirish maqsadida keyning vazifasini va uning professional bilimlar va malakalar rivojlantirishga ta'sirini tushuntirib beradi;
- o'quvchilarning o'quv mavzusi ko'rsi bo'yicha bilimlarini dolzarblashtirish ishidan boshlanadi va bu ish blits-so'rovnoma yoki savol-javob shaklida o'tkaziladi.

O'quvchilarning auditoriyadagi keys bilan ishini tashkil etishga kirishishda o'qituvchi keys mavzusi bo'yicha adabiy manbalardan parchalarni o'qib berishi, korruxona - amaliy vaziyat obyektini - mashg'ulotlarini namoyish qilishi mumkin - bu vaziyatga oid mashg muammosiga qiziqish uyg'otish yoki yangi g'oyalarni qo'shishning muayyan usulidir.

O'quv mashg'ulotining asosiy bosqichi Keys bilan shundan keyingi lah quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- ish o'quv rej asiga ko'ra ajratilgan vaqtga,
- keys o'Ichami va uning maqsadlari,
- tanlangan ta'lim modeliga,
- o'quv mashg'ulotining loyihalashtirilgan texnologik chizmasiga
- rejalashtirilgan ta'lim texnologiyasi bilan belgilanadi.
- keys bilan yakka tartibda ishlashni tashkil qiladi.
- keys bilan jamoa bo'lib ishlashni tashkil qiladi: o'quvchilarga aqliy hujum o'tkazishni taklif qiladi - keysda taqdim etilgan muammoli vaziyatni hal etish g'oyalari generatsiyasi.

O'quv mashg'ulotining yakunlovchi-baholovchi bosqichi:

- O'qituvchining harakatlarning izchilligi;
- mavzu bo'yicha xulosa chiqaradi, o'quvchilar e'tiborini asosiy jihga qaratadi;
 - bajarilgan ishning kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun ahamiyati haqida so'zlaydi;
 - guruhlar, ayrim o'quvchilar faoliyatini baholaydi o'zaro baholashda yakun yasaydi;
 - o'quv mashg'uloti maqsadiga erishganlik darajasini tahlil qiladi baholaydi.

O'quv keyslari

O'quv muammoli vaziyat (o'quv keysi) tashkil etishning maqsadi guruh xonasida aniq muammoli vaziyatni mavjud imkoniyatlar va tavakkallikni hisobga olgan holda muqobil yechimlarini muhokama qilish orqali qarorlar qabul qilish muhitini yaratishdan iboratdir.

Keys usulini samarali qo'llash o'quv guruhiga muammoli vaziyatni muhokama qilish imkoniyatini berish orqali talabalarning anglashini faollashtiradi, o'z bilimi va g'oyasini mujassamlashtirish, muhokama jarayoni va mazmunini kuzatish uchun sharoit yaratadi.

Ma'lumki, o'qitishning dastlabki bosqichlarida talabalar juda ham faol bo'lmasdan o'z fikrlarini ochiq bayon etishga qodir bo'lmaydi. Bunday to'siq talaba uchun qarashlari va fikrlarini guruh yoki o'qituvchi tomonidan tanqidga uchrashishi mumkinligidan xavfsiragan holda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi.

Ko'pincha shunday hollar bo'ladi,ki, o'qituvchi vaqtning tig'izligi tufayli talabalar bilan suhbat-muloqot yoki to'liq savol-javob o'tkaza olmaydi. Ana shunday hollarda zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan biri bo'lgan keys usulidan foydalanish mumkin.

- yechilishi zarur bo'lgan muammoni qamrab olgan haqiqiy vaziyat ifodasi;
- tinglovchilar tomonidan muhokama qilinishi mumkin bo'lgan va odatda, qaror qabul qiluvchi menejer nuqta nazaridan bayon etilgan vaziyat;
- auditoriyada mavjud imkoniyatlar va tavakkalni muhokama olgan vaziyat bo'yicha qaror qabul qilish muhitini tashkil qilish;
- kelgusida aniq tadqiqotlar o'tkazish uchun manba.

Keyslardan foydalanish usullari:

1. Yakka holda namoyish qilish.
2. Jamoa tomonidan namoyish etish.
3. Guruhlarda muhokama qilish va so'ngra guruhda munozara o'tkazish.
4. Ishbilarmonlik o'yini.

Keys muhokamasi tartibi:

Keys muhokama qilishni quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish lozim:

1. Keys mazmuni bilan shaxsan tanishish.
2. Kichik guruhlarda muhokama qilish («Sindikab» usuli).
3. Guruhda umumiy muhokama o'tkazish.

Keys muhokamasida e'tiborni quyidagilarga qaratish tavsiya etiladi:

- qaralayotgan keyning asosiy maqsadini aniqlash;
- keysdagi vaziyatni haqiqiy holatlar bilan taqqoslash imkoniyatini ko'rib chiqish;
- mumkin bo'lgan «tuzoqlar»ni aniqlash va'ni ikkinchi darajali masalalarni muhokama qilish, noto'g'ri qarorlar qabul qilish va h.k;
- o'quvchi-talabalar uchun tushunariz ma'lumotlarni aniqlash;
- keysda bayon etilgan muammoni yechishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotni aniqlash;
- keysdagi muammoni yechish uchun oraliq qadamlarni ilg'ab olish;

- muammoning hal etish muqobil yo'llarini belgilash;
- munozarani tugatish tartibini belgilash;
- yakuniy izohlash va munozara natijasini xulosalash.

Yuqorida keltirilgan usullar bilan bir qatorda keladigan o'qitish metodlari sarasiga kiruvchi «Ishbilarmonlik», yoki «Boshqaruv» deb yuritiluvchi o'yinlar bilim va ko'nikmalar hosil qilishda o'z samarasini ko'rsatadi.

«Ishbilarmonlik o'yinlari – faol o'qitish metodlaridan biri bo'lib u real «o'rganilayotgan obektni to'g'ri anglash maqsadida tahlil oluvchining u yoki bu vaziyatni o'yin holida talqin qilishga qaratilgan usuldur».

«Kompyuterli «ishbilarmonlik» o'yinlari ham o'z mohiyati bo'yicha muayyan faoliyat motivi, unda aqliy operatsiyalarning ishtiroki va hissiy ko'rinishi jihatidan muammoli vaziyatlarini tahlil qilishga mo'ljallanadi. «Kompyuterli ish bilarmonlik» o'yinlari quyidagi maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi:

- o'quv maqsadlariga, ya'ni o'quv jarayonida mutaxassislarni tayyorlash yoki qayta tayyorlash va bilimlar tizimini o'zlashtirishga;
- ilmiy-izlanuv, boshqaruv tajribasini tahlil qilishga;
- ijodiy faoliyat natijasida vujudga keladigan muammolarni va ishlash chiqarishni rivojlantirishga mo'ljallangan real axborot materialiga tayanishga va h.k..».

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan innovatsion yangicha usullar orqali talabalarda tushunchalarni shakllantirish quyidagi holatlarda ijobiy kechadi:

- birinchidan: muammoli vaziyatlarni mashg'ulot boshlanishida talabalarga taklif etish yoki predmet mavzusini ifoda eta oladigan maxsus muammoli topshiriqlar berish;
- ikkinchidan: muammoli vaziyatlar orqali talabani qiyinchiliklarni engish, innovatsion usul va harakatlarni izlab topishni talab qilish;
- uchinchidan: talabalarining motivasion doirasiga ta'sir o'tkazish, ya'ni ichki harakatlanuvchi kuchini yuzaga keltirish, fanga bo'lgan qiziqishini orttirish;
- to'rtinchidan: talabalarining kreativ (noyob, standartli bo'lmagan) qobiliyatlarini rivojlantirish;
- beshinchidan: talabalarni mustaqil fikrlab, to'g'ri xulosa chiqarishga tayyorlash.

Bu metodlar talabalarda jahon andozasiga mos bilimlarni egallashlari imkon beradi va albatta, ta'lim samaradorligiga erishga olib keladi.

2. Keysni ishlab chiqishning professual tizimi. Keys matnining yozilishi. Keys matni va ilmiy pedagogik pasporti, rasmiylashtirish va keysning baholanishi.

O'ZBEKISTON TARIXI FANINI O'QITISH BO'YICHA METODIK TAVSIYALAR, KEYS: O'ZBEKISTONNING O'Z ISTIQLOL VA TARAQQIYOT YO'LIGA ERISHISH OMILLARI

O'quv predmeti: **O'zbekiston tarixi**

Mavzu: **"O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li"**

Keysning asosiy maqsadi: O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li haqida tushuncha berish orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy g'oya kabi his-tuyg'ularini shakllantirish, yurtga sadoqat, kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash. Mustaqil fikrlash salohiyatiga ega bo'lishi uning yuksak ma'naviy kamolot sohibi bo'lishining asosiy sharti ekanligini, muammolarni aniqlash va tahlil qilish, ularning oldini olish bo'yicha chora - tadbirlarni ishlab chiqish.

O'quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

- Yangi yo'lni tanlash zarurati haqida bilimlarni mustahkamlash;
- Milliy taraqqiyotning "O'zbek modeli" haqida bilimga ega bo'lish;
- muammoli vazifalarni yechishda nazariy bilimlarini qo'llash;
- muammoni aniqlab, uni hal qilishda yechim topish.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmog'li zarur:
O'quvchi bilishi kerak:

"O'zbek modeli", iqtisodiyotda mavjud muammolar, O'zbekistonning o'ziga xos iqtisodiy taraqqiyot yo'lining ishlab chiqishda asoslar, bozor munosabatlariga o'tishning tamoyillari, jahon hamjamiyati bilan munosabat.

O'quvchi amalga oshirishi kerak:

- mavzuni mustaqil o'rganadi;
 - muammoning mohiyatini aniqlashtiradi;
 - g'oyalarni ilgari suradi;
 - ma'lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi;
 - o'z nuqtai nazariga ega bo'lib, mantiqiy xulosa chiqaradi;
 - o'quv ma'lumotlar bilan mustaqil ishlaydi;
 - ma'lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;
- O'quvchi ega bo'lmog'li kerak:**
- kommunikativ ko'nikmalarga;
 - taqdimot qilish ko'nikmalariga;
 - hamkorlikdagi ishlar ko'nikmalariga;
 - muammoli holatlar tahlil qilish ko'nikmalariga.

Manbalardan foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. -T.: O'zbekiston, 1992.

2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. - T.: O'zbekiston, 1994.
 3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'li da. - T.: O'zbekiston, 1995.
 4. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafko'ra. - T.: O'zbekiston, 1996.
 5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.: O'zbekiston, 2011.

Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi
 Ushbu keysning asosiy manbai kabinetli, lavhali bo'lib, hayotiy vaziyatlar asosida bayon etilgan. Keysning asosiy obyekti tarixiy jarayonni tahlil qilishga yo'naltirilgandir. Bu tashkiliy institutsional keys bo'lib, ma'lumotlar vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. Hajmi o'rtacha, tizimlashtirilgan bo'lib, treningga mo'ljallangan o'quv mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etish, tahlil qilish va baholashga qaratilgan. Ushbu keysdan "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitishda foydalanish mumkin.

K I R I S H

"O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li" mavzusi "O'zbekiston tarixi" o'quv fanidan muammoli vaziyatlarni hal etish bo'yicha amaliy mashg'ulotda "Case-studi"ga asoslangan o'qitish texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan. Ushbu mavzuni o'qitishda o'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida aks etgan g'oyalar asosida yurtimizda yuz berayotgan o'zgarishlar, rivojlanishga qo'yilgan dastlabki qadamlar va mavjud kamchiliklarni bartaraf etishi yoritilgan. I.A.Karimov o'z asarida bu masalani alohida ta'kidlaydi: "O'rtaga qo'yilgan maqsadlarning, tanlangan yo'nalishlarning to'g'rigilini hayotning o'z ishonarli tarzda va yaqqol tasdiqladi. Respublika mustaqilligining bir - yili ichida asrlar mobaynida amalga oshirilmagan ko'p narsalarga erishishga muvaffaq bo'ldik. O'zbekiston xalqi jonajon o'lkadagi boylikning boylikning abadul-abad haqiqiy egasi bo'lib qoldi. Respublika o'z oltinini, boshqa nodir va qimmatbaho metallarni mustaqil qazib chiqarib, qayta ishlamoqda va saqlamoqda. Yer, yerosti boyliklari, boshqa tabiiy boyliklar, avlod-ajdodlarning mehnati bilan yaratilgan iqtisodiy, ilmiy- texnikaviy va ma'naviy kuch-qudrat va imkoniyatlar milliy boylik bo'lib, odamlar farovonligining kafolati, ijtimoiy taraqqiyot va ravnaqning asosi bo'lib xizmat qiladi.³ Aynan ana shu muammolarni yechimini shu asar asosida topish yo'llarini ishlab chiqish "Case-studi"ga asoslangan o'qitish texnologiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu texnologiyani amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida o'rganilgan o'quv mavzusi bo'yicha bilimlarni mustahkamlashga, muammolarni tahlil qilish va qirralarni yakka tartibda yoki guruhlarda qabul qilish ko'nikmalarini egallashga, ijodiy va o'rganish qobiliyatlarini, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish

qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda qarorlarni mustaqil qabul qilishga va o'z-o'zini nazorat qilishga yordam beradi.

Quyidagi keys - Vatanimizda iqtisodiyot sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar, bu borada odamlarning turmush va ish sharoitlarini munosib ta'minlaydigan qudratli, barqaror va jo'shqin rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etish, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirish, mulk egalari huquqlarining davlat yo'li bilan himoya qilinishi ta'minlash va barcha mulkchilik shakllarning huquqiy tengligini qaror toptirish masalalarini mustaqil o'rganish uchun imkon yaratadi.

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- muammoning hamda qabul qilingan yechimning individual va guruhviy tahlilida bilim va ko'nikmalarini qayta topshirish;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash;
- o'quv axborotlarini o'zlashtirish darajasini tekshirib ko'rish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida quyidagi iqtisodiy masalalar aks etgan:

(vaziyat)

Respublika mustaqilligining bir - yili ichida asrlar mobaynida amalga oshirilmagan ko'p narsalarga erishishga muvaffaq bo'ldik. O'zbekiston xalqi jonajon o'lkadagi beqiyos boylikning abadul-abad haqiqiy egasi bo'lib qoldi. Respublika o'z oltinini, boshqa nodir va qimmatbaho metallarni mustaqil qazib chiqarib, qayta ishlamoqda va saqlamoqda. Yer, yerosti boyliklari, boshqa tabiiy boyliklar, avlod-ajdodlarning mehnati bilan yaratilgan iqtisodiy, ilmiy- texnikaviy va ma'naviy kuch-qudrat va imkoniyatlar milliy boylik bo'lib, odamlar farovonligining kafolati, ijtimoiy taraqqiyot va ravnaqning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Dunyodagi 125 mamlakat O'zbekistonning Davlat mustaqilligini tan oldi. 40 dan ziyod xorijiy mamlakatlar bilan diplomatiya munosabatlari o'rnatildi, davlatlarning elchixonalari ochildi. Tarixda ilk bor, 1992 - yilning 2 martida O'zbekiston xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Respublika Ovrupoda xavfsizlik va hamkorlikka bag'ishlangan Kengashning yakunlovchi aktini imzolab, Xelsinki jarayoniga qo'shildi. Mana shularning hammasi respublika taraqqiyotida mazmunan yangi bosqichni boshlab berdi va teng huquqli asoslarda xalqaro iqtisodiy ilmiy va madaniy sohalarda faol hamkorlik qilish imkoniyatini ochdi.

Endilikda O'zbekiston bir qator yetakchi xalqaro iqtisodiy va moliyaviy birlashmalarning - Iqtisodiy hamkorlik Tashkiloti, Ovrupu tiklash va taraqqiyot banki, Qora dengiz mamlakatlari iqtisodiy uyushmasining a'zosisdir. Xalqaro

³ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol taraqqiyot yo'li. - T., 1992.

valyuta fondi, Xalqaro qayta tiklash va taraqqiyot banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga va boshqa birlashmalarning tarkibiga a'zo bo'lish borasidagi tayyorgarlik ishlari nihoyasiga yetkazildi. O'zbekistonning qo'shimlagan davlatlar harakatiga, BMTning Osiyo va Tinch okean uchun Iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasiga hamda boshqa tashkilotlarga a'zo bo'lib kirishi to'g'risida arizalar yuborildi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'liga kiritganligi va u xalqaro miqyosda tan olinganligi shuni bildiradi, bundan buyon respublika mustaqil ichki va tashqi siyosatini olib boradi, hech kimning vositachiligidan o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatadi. Respublikani haqiqatan ham, uning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, xalqning azaliy turmush tarzi, an'analari, urfodatlari va ko'nikmalarini, mavjud beqiyos tabiiy boyliklarni har tomonlama hisobga olib, yuksaltirish amalda mumkin bo'lib qoldi.

Respublikani milliy-davlat, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy kamol toptiruvchi o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishimiz zarur. Bu murakkab va mas'uliyatli palladir. Hozir yashab turganlarimiz taqdiriga emas, balki ularning farzandlari, nevaralarining ham taqdiri, kelajak avlodlarning taqdiri ham shunga bog'liq bo'ladi. Respublika tang holatlarini qay darajada tezroq bartaraf etishi, yakkahokimlik tizimining illatlarini batamom tugatishi, rivojlangan madaniyatli mamlakatlar darajasiga chiqib olishi shu narsa bilan belgilanadi. Biz hozir o'z yo'lining boshida turibmiz.

Barqaror bozor iqtisodiyoti ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish provard maqsad bo'lib qolishi kerak. Shunday jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinligini kafolatlashi, milliy an'analar va madaniyat qayta tiklanishini, shaxs sifatida insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin.

Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish - mustaqil O'zbekiston ichki siyosatining negizi. O'zbekistonning chinakam manfaatli o'ziga xos sharoiti va imkoniyatlari pisanid qilmadi. Natijada xalq xo'jaligining nuqsonli, bir tomonlama xom ashyo tuzilmasi shakllandi. Respublika ayrim xom ashyo turlarini, yoqilg'i, asbob uskunalar va texnologiyasiga emas, balki hayotiy muhim oziq ovqat mahsulotlarini, xalq iste'moli mollarini chetdagi kelitirishiga majburdir. Mavjud korxonalarining texnikaviy darajasi, chiqariladigan mahsulot sifatida ishlab chiqarishni zamonaviy tashkil etish talablariga, jahon raqobatining qattiq talablariga mos kelmayotir. Amalda barcha sohalarda texnologiyaga asbob uskunalarini jismanan ishdan chiqqan, ma'naviy eskirgan va yangilashni talab qildi. Respublikaning tabiiy resurslariga va ekologik muhitga juda katta va ko'p jihatdan o'rinni to'ldirib bo'lmaydigan darajada zarar etkazildi. Bu hol, o'z navbatida, aholi turmush darajasining pasayishiga olib keldi. Yoppasiga pulning qadrsizlanishi, turmushning qimmatlashuvi, bir vaqt uchun yagona bo'lgan moliya, pul kredit tizimining barbod bo'lishi, tarkib topgan ko'p jalik aloqalarining buzilishi O'zbekistonni og'ir ahvolda solib qo'ydi.

Ayni bir vaqtda ikki murakkab masalalar hal etish bir tomondan, bozor iqtisodiyoti ga o'tishda chuqur islohotlar o'tkazish, ikkinchi tomondan

ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlashtirish, xalq farovonligining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

O'zbekiston o'tgan - yillarning og'ir asoratini bartaraf etish, inqirozidan chiqib olish, o'zining iqtisodiy mustaqilligiga erishish, rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiria imkonini beradigan etarli imkoniyatlarga egadir. Faqat uyushgan bozorgina bugungi kunda xalqning ijodiy va mehnat imkoniyatlarini ochib bera ola di, boqimandalikka xotima beradi, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni rivojlantira oladi, rag'batlantirishni va yo'qotilgan xo'jayinlik tuyg'usini qayta tiklaydi. Bozor iqtisodiyotining faqat ijobiy tomoniniga emas, balki uning salbiy tomonini ham ko'ra bilish kerak. Bozorga, ayniqsa, uning shaqillanish bosqichida o'zoq va chuqur iqtisodiy inqirozlar, ishsizlikning o'sishi, pulning qadrsizlanishi, ko'pgina korxonalarining sinishi va ishbilarmonlarning xonavayron bo'lishi, aholining moddiy ta'minot jihatidan keskin taborlashuvi, huquqqa zid xatti harakatlari va jinoyatlarning o'sishi xosdir. Bozorning bu illatlarini bilish, ularga tayyor turish, ularni bartaraf etish yuzasidan to'g'ri yechimlar topa bilish kerak.

Real tarkib topgan iqtisodiy vaziyat, ko'pchilik oilalarning turmush darajasi pastligi tufayli respublikada bozorga o'tishning shok terapiyasi yo'l nomaqbo'ldir. Bozor iqtisodiyoti sari buyuk sakrashlar inqilobiy qayta o'zgarishlar yo'li bilan emas balki sobitqadamlik va izchilik bilan bosqichma - bosqich harakat qilish kerak.

Bozor mexanizmlarini joriy etishdan oldin insonlarni ijtimoiy himoya qilish iudirlari amalga oshirilmog'i lozim. Davlat o'z aholisni himoya qila olgan taqdirdagina insonparvar hisoblanadi. Davlat kishilarga ayniqsa, yordamga muhtoj bo'lganlarga, ijtimoiy nochor qatlamlarga, etimlarga, bolalar, o'quvchilar, nafaqaxo'rlar va nogironlar, yolg'iz onalar, ko'p bolali va kam tamlangan oilalarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish kerak.

Ichki iqtisodiy strategiya har qanday siyosiy mafko'ra ta'siridan butunlay holi bo'lishi kerak. O'tgan - yillar iqtisodiyoti o'ta siyosiy lashtirib yuborilgan edi. Iqtisodiyot faqat unga xos bo'lgan ichki qonuniyatlar asosida rivojlanmog'i dardor.

Ichki siyosatning yetakchi printsiplaridan biri har bir kishining, korxonalar, tarmoqlar, mintaqalar va umuman davlatning manfaatlarini monand ravishda uyg'unlashtirishni ta'minlashdan iboratdir.

Bozorga o'tilgan sari iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlatning roli jiddiy o'zgaradi. Davlat, uning hokimiyati boshqaruv tuzilmalari to'g'ridan to'g'ri xo'jalik faoliyatiga aralashishdan chetdan bo'lishi kerak. Bozor iqtisodiyotining o'zini o'zi tartibga soluvchi mexanizmlari tobora katta rol o'ynaydi. Davlatda faqat iqtisodiy dastur va raqabatlantirish vazifalari qoldi. Iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat yo'li bilan tartibga solish qammagina mumkin dasturlar moliya, kredit, soliq, valyuta siyosati, narxlarni nazorat qilish qanda bilvosita ta'sir ko'rsatishning boshqa choralarini yordamida amalga oshiriladi. Xuddi shu yo'l bilan haqiqiy bozor munosabatlarga o'tish va u uchun zarur sharoitlar yaratish mumkin.

Respublikaning barcha fu qarolar va yuridik shaxslarga tashabbus ko'rsatish va ishbilarmonlikni rivojlantirish uchun xo'jalik faoliyatining qonun tomonidan man etilgan barcha turlarini amalga oshirish uchun teng imkoniyatlar yaratish. Davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini shakllantirishda muhim o'rin tutish kerak.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish bu bozorni shakllantirish yo'lidagi zaruriy va muqarrar bosqichdir. Uni ta'minlash uchun quyidagilar zarurdir. O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini musta hkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- vatanparvarlik.

Mustaqilik O'zbekistonning kuch qudrati manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimizning adolat, tenglik, ahqo'shinchilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab asratilgan kelmoqda.

"Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldiring

Iqtisodiyotda mavjud bo'lgan muammolar turi	O'zbekistonning o'ziga xos iqtisodiy taraqqiyot yo'lining ishlab chiqishda nimalar asos bo'ldi?	Muammolar yechimining borish

AMALIY VAZIYATNI BOSQICHMA - BOSQICH TAHLIL QILISH VA HAL ETISH BO'YICHA O'QUVCHILARGA USLUBIY KO'RSATMALAR

O'quvchilarga yo'riqnom

Ish bosqichlari	Maslahatlar va tavsiyanomalar
1. Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish	Avvalo keys bilan tanishng. "O'zbekistonning o'z istiqloq taraqqiyot yo'li" haqida tushuncha hosil qiling uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqish lozim. O'qish paytida vaziyatni tahlil qilish shoshilmang
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish	Ma'lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o'qib chiqing. Siz uchun muhim bo'lgan satrlarni belgilang. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga o'tishdan oldin, u ikki uch marotaba o'qib mazmuniga kirib boramiz

	Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qo'ying. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatingizni jalb qiling. Ushbu muammoli vaziyatni yechishda o'quvchi Prezident I.A.Karimovning "O'zbekiston o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li" va "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" asarlaridan foydalanishi tavsiya etiladi.
3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling. Asosiy muammo: "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'liga erishish omillari" Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling. <ol style="list-style-type: none"> 1. Iqtisodiyotda mavjud bo'lgan muammolar turini ayting? 2. O'zbekistonning o'ziga xos iqtisodiy taraqqiyot yo'lining ishlab chiqishda nimalar asos bo'lganligi haqida fikr yuritng. 3. Muammolarni yechimining borishini aniqlang. Asosiy muammo nimaga qaratilganini aniqlang. Muammoning asosiy mazmunini ajratib oling. Muammoli vaziyatni tahlil qilish - obyektning holatini aniqlang, asosiy qirralariga e'tibor qaratng, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qiling.
4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldirishga kirishing. Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq yechimini toping. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda ilova eting

Keys bilan ishlash natijalari yozma shaklda ilova etiladi

Keys - stadi uchun yozma ish talablari:
Ish A4 standartdagi varaqning bir tomonida (2-varaqdan oshmagan holda) tezis shaklida yozilishi kerak.
Yozma ishini jihozlash tartibi:
birinchi betda, o'ng tomonda o'quvchi ismi, sharifi va guruhini yozishi kerak;
varaqning markazida keysning mavzusi yoziladi, keyin esa keys bilan ishlash natijalari tezis shaklida yoziladi.
Keysda vaziyat tavsifi va axborot ta'minoti har xil hajmda bo'lishi (bir varaqdan bir necha yuz varaqqacha), tahlil etish uchun taklif etilayotgan

vaziyatlar tavsifida detallashtirish darajasi ham turlicha bo'lishi, axborot ko'pligi darajasi ham o'zgarishi mumkin bo'lgan - tahlilga aloqasi bo'lmagan ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin. Amaliy vaziyatni tahlil qilish vaqtida:

-taklif etilayotgan axborotlarni ko'rib chiqishda adashmang, ular orasida eng zarurini belgilang;

-vaziyatni tor istiqbolda ko'rib chiqmang: muammo birdaniga kichiklashib yoki umuman g'oyib bo'lishi mumkin;

-harakatlar rejasini vaziyatning tahlili tugallangan va muammo aniqlangandan so'ng shakllantiring.

Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (mustaqil auditoriyada va auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun) Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

O'quvchilar ro'yxati	Asosiy muammo ajratib olinib, taqdqiqot obyekti aniqlangan mak. 6 b.	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari aniqlanib ko'rsatilgan mak. 4 b.	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari aniqlanib ko'rsatilgan mak. 10 b.	Jami mak. 20 b.

2.6. Auditoriyada bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhlar ro'yxati	Guruh faol mak. 1 b.	Ma'lumotlar ko'rgazmali taqdim etildi mak. 4 b.	Javoblar to'liq va aniqlanib berildi mak. 5 b.	Jami mak. 10 b.
1				
2				
3				

3. Keyning ta'lim amaliyotiga joriy etilishi va tarix darstlarini o'qitish jarayonida keyslarni ishlab chiqish.

O'quv-uslubiy hujjatlar

O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan strategiya asoslari

- Respublikaning ajoyib tabiiy iqlim sharoitlaridan samarali foydalanish;
- Yerning irrigatsion va meliorativ holatini yaxshilash masalalariga e'tiborni kuchaytirish;
- O'zbekistonning gaz kondensanti, to'ldirgich va talab-ehtijojini to'la-to'kis ta'minlash;
- Respublikaning eng katta boyligi bo'lgan uning mehnatsevar xalqi uchun keng imkoniyatlar yaratish

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasidagi vazifalar

- Respublikaga Markaz tomonidan zo'rlab qabul qildirilgan paxta yakka hokimligiga qarshi izchillik bilan ko'rash olib borish;
- Paxta xomashyosini respublika ichida qayta ishlashni yo'lga qo'yish (2200 so'm/ga = 18-20 ming so'm/ga, ya'ni o'n barobar ko'p daromad hamda qariyb 100 xilga yaqin mahsulot olinishi mumkin);
- Paxta homashyosidan samarali foydalanish (hatto, g'oyapoy sharoitidan to'g'ri foydalanib, amaldagi daromad hajmini 3-5 barobar ko'paytirish mumkin);
- Paxtachilikda almashlab ekishni joriy etishga asoslangan ilmiy yo'l dan borish;
- Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun oziq-ovqat kompleksini ustun darajada rivojlantirish;
- Qayta ishlash sanoati korxonalarini qurilishini jadallashtirish

Aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar

- Ishlayotgan bir oyda 60 so'mdan, ishsiz nafaqa oladiganlarga 65 so'mdan to'landi;
- Bolali oilalar uchun mavjud nafaqalar miqdori salkam 2 barobar oshdi;
- Bola tug'ilganda bir marta beriladigan nafaqa 250 so'mga, ishlayotgan onalarga bolalariga qarash uchun beriladigan nafaqa esa 70 so'mdan 110 so'mgacha ko'paydi;
- Balog'atga etmagan bolalari bo'lgan oilalarga ham pul yordami belgilandi;
- Talabalarga beriladigan o'quv stipendiyalari, ularning oilaviy ahvoli va darstlarni o'zlashtirishiga qarab, 120 so'mdan 210 so'mgacha belgilab berildi;
- O'rta hisobda uch kishidan iborat oila 250 so'm, olti kishilik oila 400 so'm, to'qqiz kishilik oila esa 600 so'mdan ko'proq qo'shimcha mablag' olish imkoniga ega bo'ldi;
- Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun 16 milliard so'mdan ko'proq mablag' ajratildi

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o' muammolari va ularning hal etilishi

- O'zbekiston sharoitida bozor mexanizmining mohiyati va mazmuniga sergaklik bilan va har tomonlama real baho berish, o'tish davri keskinliklarini yumshatishga yordam beradigan zarur mexanizmlarni oldindan yaratib qo'yish;
- non, g'alla, paxta, yoqilg'i, metall va texnika narxlarining oshirilishida ma'lum mutanosiblikni ta'minlash;
- investitsiya va tarkibiy siyosatni tubdan qayta ko'rib chiqish;
- aholi ijtimoiy himoyasining aniq va ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish;
- ayrim davlat mulkidagi ishlab chiqarish obyektlarini mulkchilik va xo'jalik yuritishning boshqa shakllariga aylantirishni belgilab olish;
- mayda va o'rtacha korxonalar, filiallar va sexlar tashkil etilishini rag'batlantirish;
- qo'shma korxonalar tashkil etish ishini faollashtirish va boshqalar.

O'QITUVCHI TOMONIDAN KEYSNI YECHISH VA TAHLIL QILISH VARIANTI

Keysdagi asosiy muammo: "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'liga erishish omillari"

Muammoli vaziyatni yechish yo'llari

1. Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishamiz.

Avvalo, keys bilan tanishib chiqamiz. "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'liga erishish omillari" haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqamiz. Muammoni yechish darajasini aniqlaymiz.

Tanlangan mavzu bo'yicha Prezident I.A.Karimovning "O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li" nomli asaridan yangi yo'lni tanlash zarurati va milliy taraqqiyotning "O'zbek modeli" to'g'risida ma'lumot berish orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy g'oya kabi his - tuyg'ularini shakllantirish, yurtga sadoqat, xizmat qilish va ayniqsa, kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash nazarda tutiladi. Ushbu keysni yechishda o'quvchi I.A.Karimovning iqtisodiy masalalarni yoritishga qaratilgan boshqa asarlaridagi ma'lumotlar bilan ham qisman tanish bo'lishi kerak.

2. Berilgan vaziyat bilan tanishamiz.

Ma'lumotlarni yana diqqat bilan o'qib chiqib, biz uchun muhim bo'lgan satriarni tagiga chizib olamiz. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga o'tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o'qib mazmuniga kirib boramiz. Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qo'yamiz. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatimizni jalb qilamiz:

- o'zbek modeli;
- bozor iqtisodiyoti
- taraqqiyot yo'li;
- milliy boyligi;
- mulkchilik shakllari;
- davlatning rejali rivojlanishi;
- shok terapiyasi;
- regress;
- qashshoqlik;
- davlat mulkchiligi;

-evolyutsion rivojlanish;

- inqilobiy sakrash.

3. Muammoli vaziyatning tahlili.

Muammoli vaziyatni yechimini topishga harakat qilamiz. Iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi Prezident I.A.Karimov asaridagi asosiy g'oyalarni aniqlaymiz.

1. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish muammolari va ularning hal etilishi.
 2. Investitsiya va tarkibiy siyosat.
 3. Aholi ijtimoiy himoyasining aniq va ta'sirchan mexanizmlari.
 4. Qo'shma korxonalar tashkil etish ishini faollashtirish.
- Mazkur holatda qabul qilinishi mumkin bo'lgan muammoning barcha yechimlarini topamiz:

"Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldirish

Iqtisodiyotda mavjud bo'lgan muammolar turi	O'zbekistonning o'ziga xos iqtisodiy taraqqiyot yo'lining ishlab chiqishda nimalar asos bo'ldi	Muammolarning yechimini borishi
Bozor munosabatlar mexanizmining yaratilmaganligi, iqtisodiy hayotning normal emasligi, iqtisodiy erkinlik yo'q va korxonalar yo'q mavjud korxonalar talabga javob bermasligi.	Respublikaning qulay geografik-siyosiy imkoniyatga ega ekanligi, tabiiy xomashyoga boyligi, moddiy va ma'naviy hamda ishlab chiqarish potentsiali va kadrlar qudratiga egaligi.	Milliy boyligni ko'paytirishni ta'minlaydigan barqaror iqtisodiyot barpo etish, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish tamoyillariga amal qilish, mulk egalarini huquqini ta'minlash.

4. O'tkazilgan tahlillar va natijalar

Muammoli vaziyatni tahlil qilish - obyektning holati aniqlangandan so'ng, muammoning asosiy qirralariga e'tibor qaratib, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab olib, "T - sxema" jadvalini to'ldiramiz.

Mustabid davrda iqtisodiyotdagi salbiy holatlar va xatoliklar nimadan iborat edi ?	Mustaqillik davrida bozor iqtisodiyotiga o'tgach iqtisodiyotdagi ijobiy tomonlarni aniqlang ?
<ul style="list-style-type: none"> • Xalq iste'moli uchun tovarlarning taqchilligi; • Xususiy tadbirkorlik qonun yo'li bilan bo'lgan edi; • Raqobat yo'q edi; 	<ul style="list-style-type: none"> • Xalq iste'moli uchun tovarlar ishlab chiqildi; • Xususiy tadbirkorlikka yo'l ochildi; • Xalq xo'jaligida raqobatbardosh tovarlar ko'paydi;

• Xalq xo'jaligida sonlar ketidan quvish bor edi;

• Xususiy mulkchilik yo'q edi;

• Xaqaro iqtisodiy hamkorlik markazga bo'sundirilgan edi;

• Tabiiy resurslardan nooqilona foydalanildi;

• Ishlab chiqarishda asbob uskuralarda modernizatsiya yo'q edi.

• Xorijiy sarmoyalar kiritildi;

• Xususiy mulkchilikka keng yo'l ochildi;

• Xalqaro iqtisodiy hamkorlik kengaydi va xorijiy sarmoyalar kirib keldi;

• Tabiiy resurslardan oqilona foydalanildi;

• Ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarning kiritilishi

Yakuniy xulosa

Mustaqillik ruhida yangicha fikrlaydigan fozil, ma'naviy barkamol va komil inson, eng avvalo, fuqarolik burchini a'lo darajada his etadigan shaxs bo'lishi dardkor. Sodda qilib aytganda, har bir o'zbekistonlik fuqaro O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lidagi iqtisodiy masalalarini bilish kerak. Barkamol va komil inson, har birimiz: "Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?" deb emas, balki: "Men o'zim Vatanimga, elu yurtimga nima berdim?" deb o'ylashimiz va har dam shu aqida bilan yashashimiz kerak.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Kaysi texnologiyasi nima?
2. Kaysi texnologiyasi dastlab qayerda qo'llanilgan?
3. Kaysi yechish texnologiyasining qanday bosqichlari bor?
4. O'quv keyslarini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad?
5. Kaysilardan foydalanishning qanday usullari mavjud?
6. Kaysi muhokamasi tartibi qanday?
7. Kaysi muhokamada e'tiborni nimalarga qaratish tavsiya etiladi?
8. Kaysi usulidan foydalanib biror bir mavzu yuzasidan muammoni hal eting?

10-Mavzu: Tarix daralarida loyiha texnologiyalarini joriy etish

Reja:

1. Loyiha texnologiyasi haqida tushuncha.
2. Loyihaviy ta'limdanda foydalanishning ijtimoiy-pedagogik shartlari. Loyihaviy ta'limning asoslari.
3. O'quv loyihasi. O'quv loyihaviy faoliyat. O'quv loyihasing muddatlari.

Tayanch tushunchalar:

Loyiha, texnologiya, loyihaviy ta'lim, tayyorgarlik bosqichi, loyihalashtirish, loyiha faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish, kichik loyihalar, loyihalashtirish, haftaga mo'ljallangan loyihalar, o'zoq muddatli loyihalashtirish, haftaga mo'ljallangan loyihalashtirish, auditoriya ishi, loyihani bajarish bosqichi, taqdimot, loyiha, refleksiya, baholash.

Mavzuni va alohida savollarini o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 173.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Malakali pedagog kadrlar hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida. // Xalq so'zi, 2012. 29 may, № 10.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
4. Ismuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T., Nizomiy nomdagi TDPDU, 2009.
5. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. «Ta'limda innovatsion texnologiyalar» T.: 2008
6. S. Usmonov. «Pedagogik texnologiya asoslari» T.: 2004
7. Fuzailova G.S, Rahmatullaeva O.R. «Tarix fanini kasbiy sohalariga yo'naltirib o'qitish metodikasi». Usulbiy qo'llanma. – T., TDPDU, 2012.
8. Xodiyev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboev O.K. Keys-stadi - iqtisodiy oliy o'quv yurtidagi zamonaviy ta'lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo'llanma / Zamonaviy ta'lim texnologiyalari turkumi. – T.: TDIU, 2009.
9. J. Yo'ldoshev, F. Yo'ldosheva, G. Yo'ldosheva. «Interfaol ta'lim sifat kafolati». – T.: 2008

1. Loyiha texnologiyasi haqida tushuncha

Loyihaviy ta'lim - ta'lim modeli bo'lib, unda o'qituvchi tomonidan loyihalash ko'rinishiga ega, muammoni izlash, uni tadqiq etish va hal etish, muayyan, beqiyos, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega natija (mahsulot)ga erishish, uni omravviy taqdim etish va jamoatchilik tomonidan baholanishini tashkil etish va rejalashtirishni anglatuvchi, mustaqil o'quv faoliyati tashkil etiladi.

- Loyiha (design - dizayn) - ba'zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi.

Loyiha (projekt) - tushunchasi kengroq ifodalaniib, ma'lum natija (loyihalang beqiyos mahsulot)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

Loyihalashtirish («Loyiha» so'zidan) - real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni o'zgartiruvchi faoliyatni anglatadi. Loyiha - ko'pincha iqtisodiy-ijtimoiy yo'nalishda, qurilish, ilmiy ishlarni amalga oshirish xohlatlarida qo'llanilgan. Bu atama pedagogikaga XX asr boshlarida kirib kelgan. Bunday yo'nalishdagi o'qitish loyiha asosida itiqbolli o'qitish metodi deb qaraladi.

Ta'lim ma'nosidagi loyihalashtirish - o'qituvchi tomonidan o'quvchining muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil

etishdan to (intellektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus (laboratoriya sharoitlarida) tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

Loyiha asosida o'qitish o'quvchining mustaqil ishlashi, fikr yuritishi, o'z o'zlashtirib olishini kafolatlaydi. Bu metod o'quv maxsulini olishda samarali bo'lib, o'quvchining o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishda keng tavsiya etiladi.

Interfaollikni loyiha asosida tashkil etish hozirgi kunda eng aktual, yuqori samara beruvchi metod sifatida tan olinmoqda. Dars jarayonida loyihalar ustida ishlash aniq-sotsial-ijtimoiy masalalar yechimiga qaratiladi.

Jumladan, ilmiy izlanishlarni, ijodkorlikni, axborotlarni, amaliy masalalarni yechish va hal etishda qulaylik tug'diradi.

Loyiha asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar fikr almashdilar, izlanadilar, hamkorlikda yechimini topadilar. Loyiha asosidagi darslarni boshqa usullardan farqi shundaki, o'quvchilar axborotlarni izlab topib, qayta ishlab, umumlashtirib o'zlarini himoya qiladilar".

Dars loyihalari individual va guruhlariga mo'ljallab tuziladi. Yakkaxarakterli qaratilgan loyihalarning afzalligi shundaki: umumiy o'quv-biluv ko'nikmalarini egallashda o'quvchining o'z mehnatiga shaxsiy mas'uliyati juda yuqori bo'ladi. Chunki uning pirovard natijasi o'quvchi shaxsining o'ziga bog'liq bo'ladi.

Loyiha asosida guruhlariga bo'linib darsni tashkil etishda o'quvchilar orasida o'zaro hamkorlik, hamijodkorlik holatlari asosida ish yuritiladi va ishini bunday asosda tashkil etishda dars samaradorligi kafolatlanadi.

Har bir o'quvchi o'zining bor qobiliyatini ishga soladi. Loyiha yechimini topishga faol kirishadi.

Loyihali darslarni tashkil etish juda murakkab jarayon, bunda har bir o'quvchining mustaqil ishlashini tashkil etish muammosi yotadi. Ya'ni qayta vazifalarni o'qituvchi bajarishi kerak, qaysilarini o'quvchilarning o'zlarini o'zlarini kerak va qaysilarini o'zaro hamkorlikda amalga oshirishini oldindan ko'ra bilish kerak, bularning hammasi loyihadagi o'zda tutilmog'i talab etiladi.

O'quvchilarning mustaqil ishlashi ko'pgina omillarga jumladan: yoshligi, shaxsiy xarakteriga, moyilligiga, istak-xohishlariga, ilgari loyiha asosida ishlagan-ishlamaganligiga, loyiha mazmunining murakkabligiga, guruhlar ishtirok etuvchilarning o'zaro munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Loyiha asosidagi jarayonini olib borishda o'quvchining imkoniyati, qobiliyati, umumiyoyinglik darajalari hisobga olinmog'i lozim.

2. Loyihaviy ta'limdan foydalanishning ijtimoiy-pedagogik shartlari
Loyihaviy ta'limning asoslari.

Loyihaviy ta'lim quyidagi dolzarb ta'lim muammolarini hal etish imkoniyati beradi va davr talabiga mos keladi:

- ta'limni real hayotga yuqori darajada yaqinlashtirilgan vaziyatda amalga oshirishni ta'minlaydi;

- nazariy ma'lumotlarni amaliy faoliyat bilan baholash va o'quvchilarni mustaqil bilish jarayoniga jalb etish imkonini beradi;

- kasbiy va tayanch layoqatlarini shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlaydi.

O'quv loyihaviy faoliyat - bu o'qitilgan vazifaga erishish, ta'lim oluvchilar uchun muhim va aniq foydalanuvchiga mo'ljallangan biror-bir yakuniy ma'lumot ko'rinishida rasmiylashtirilgan, muammoni yechish uchun ta'lim oluvchilarning belgilangan ichkilikdagi harakatlari majmuasi.

Tayyorlarlik bosqichi: loyiha kirishish, loyiha faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish - auditoriya ishi.

Loyihani bajarish bosqichi: auditoriyadagi tashqari.

Yakunlovchi bosqich: loyiha taqdimoti, o'quvchilar mahsuloti va loyiha faoliyatining baholanishi, loyiha faoliyati refleksiya - auditoriya ishi.

O'QUV LOYIHAVIY FAOLIYATNING PROESSUAL TUZILMASI (1-BOSQICH)

Tayyorlov: "Loyihaga kirish" fazasi o'quvchilar amalga oshirishadi:

- vaziyatga moslashish;
 - muammoni shaxsan o'zlashtirish (muammoni tushunish va amaliy faoliyatning muayyan sohasi uchun uning yechimi dolzarb va muhimligini anglash);
 - loyihaning maqsadi, muammoni hal etish masalalarini qabul qilish, aniqlashtirish va muayyanlashtirish;
 - loyihaning natijasi (mahsuloti) va uni taqdim etish shakllarini anglash, loyihaning boshqa ishtirokchilari va o'qituvchi bilan muloqotning xarakteri.
- O'quvchilar loyiha ustidan ishlash shakllarini tanlashadi: alohida yoki guruh bo'yicha. Agar guruhli shakl tanlangan bo'lsa:
- guruhlariga birlashtirish;
 - loyiha bo'yicha ishlash turlarini ajratib, qatnashchilar orasida taqsimlashadi;
 - loyiha bajarish bo'yicha ishchi rejasini ishlab chiqishadi;
 - uni bajarishning optimal usullari va vositalarini tanlashadi;
 - natija taqdimotini rasmiylashtirish usullari va shakllarini belgilashadi;
 - loyiha ma'suli, hisobot va taqdimotni baholash mezonlarini muhokama qilishadi.

O'QUV LOYIHAVIY FAOLIYATNING PROESSUAL TUZILMASI (2-BOSQICH)

Loyihani bajarish.

Loyihaning ushbu davrida o'quvchilar o'zlarining vazifalari bilan muvofiq tarzda va ma'lum qilgan holda faol va mustaqil ishlaydilar:

- turli manbalardan axborot to'plash, tahlil etish va umumlashtirish ishlari olib boradilar;
- taqdiqot o'tkazadilar, hisob-kitoblarni bajaradilar;
- zarurat tug'ilganda maslahatlashadilar;
- oraliq natijalarni muhokama qiladilar;
- hammadan olingan natijalarning umumiy to'planishi va muhokamasini o'tkazadilar.
- hammadan olingan natijalarning umumiy to'planishi va muhokamasini o'tkazadilar.

O'QUV LOYIHAVIY FAOLIYATNING PROSESSUAL TUZILMASI (3-BOSQICH)

Yakuniy: taqdimot, himoya, baholash, refleksiya

- Loyihaning jamoa taqdimoti vaqtida quyidagilarni aks ettirishadi:
- muammo, maqsad va vazifalarni tushunish;
- ishini rejalashtirish va amalga oshirishni bilish;
- yechimlarni izlash jarayoni tahlil qilish;
- loyihalar va taqdimotning o'zaro baholashadi;
- faoliyat va natijaning refleksiya qilishini amalga oshirishadi: ish davomida va yakunida yuzaga kelgan yutuqlarini anglash, yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qilish, shaxsiy o'zgarishlarini anglashni namoyon etadi;

- loyiha faoliyati haqida hisobot topshirishadi.

O'quv loyihasi uslubiy pasportining tuzilishi:

1. Pedagogik annotatsiya.
2. Loyiha topshirig'i.
3. O'quvchilarga uslubiy ko'rsatmalar.
4. Loyihali ta'limning texnologik xaritasi.

Pedagogik annotatsiyaning tuzilishi

- O'quv predmeti
- O'quv mavzusi
- Qatnashchilar
- Ta'limning maqsadi
- Rejalashtiriladigan o'quv natijalari
- Oquvchilar loyihani muvaffaqiyatli hal etish uchun egallashi lozim bo'lgan oldingi bilim va ko'nikmalar ro'yxati
- Loyihaning turlanish belgilariga ko'ra tavsifnomasi
- Loyihani bajarish tartibi
- Loyihaning baholanishi
- Loyihaviy ta'limni tashkil etish bosqichlari
- Ta'lim modelining qisqacha tavsifnomasi
- Hammadan olingan natijalarning umumiy to'planishi va muhokamasini o'tkazadilar.

3.O'quv loyihasi. O'quv loyihaviy faoliyat. O'quv loyihasinin muddatlari.

3.1 O'quv jarayonini loyiha asosida tashkil etish:

1. O'quv predmeti mavzusini va mazmunini tanlash.
2. Darsning o'quv mavzusi yuzasidan yagona umummaqsadni belgilash.
3. Darsning o'quv mazmunini ishlab chiqish beriladigan nazariy va amaliy bilimlarni belgilash.

4. O'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, bilim, ko'nikma, malakalarni ifoda etish.

5. Darsning shakli, metod, vositalarini tanlash.

6. Tushuncha, bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish uchun ta'lim oluvchi tomonidan sarflanadigan vaqt birligi hisobini olish.

7. Har bir bosqich natijalarini olish uchun mashq va misollar tizimini yaratish.

8. Nazariy olib borish, testlar, savollarni ishlab chiqish.

9. Loyihani dars jarayoniga tatbiq etish.

10. Dars jarayonini olib borish va yakunlash mexanizmini yaratish.

3.2.Loyihali o'qitish faoliyati o'quvchining o'quv faoliyatini tashkil etuvchi jarayon hisoblanadi.

Bunda:

2. O'qituvchi tomonidan taklif etilgan o'quv loyihalari, kichik loyihalarning maktab o'quvchilari tomonidan bajarilishi ko'zda tutiladi.

3. O'quv loyihalari oldinda ishlab chiqilgan mezon ko'rsatkichlari asosida baholanadi, loyihada predmetlararo maqsadlar ko'zda tutilsa, yakuniy baholar ham chiqarilishi mumkin.

4. Loyiha asosida faoliyat tashkil etilganda o'quv-mavzularda rejalashtirilayotgan loyihani topshirish muddatlari ko'zda tutiladi.

5. Loyiha asosida o'quv faoliyatini tashkil etishga o'qituvchi rahbarlik qiladi va u loyihaning koordinatori hisoblanadi.

6. Loyihalar yakka shaxslarga va guruhlariga qaratilgan bo'ladi.

7. Loyiha topshirilgani aniq, ravon shakllantirilgan, uning maqsad va vazifalari tushunarli aniqlangan, o'quvchilar bilan uning ijro yo'llari va mexanizmlari kelishilgan bo'ladi.

8. Ayrim hollarda yuqori sinf o'quvchilarining xohish va istaklariga binoan loyihalarni shakllantirish loyiha rahbari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.

9. O'quv yili davomida o'rnatilgan tartibda tuzilgan loyihalar taqdimotini ilmiy konferensiyalarda, pedagogik kengashlarda, metod-birlashmalarda o'tkazish, himoya qilish yoki tanlovlar tariqasida o'tkazish mumkin.

3.3. Dars loyihalari o'zining davomiyligiga qarab:

- kichik loyihalar (bir soatli);

- qisqa muddatli loyihalar (4 soatga mo'ljallangan)

- haftaga mo'ljallangan loyihalar;

- uzoq muddatga mo'ljallangan loyihalar (ko'pincha bunday loyihalar darsdan tashqari ko'pincha ta'limni amalga oshirishga xizmat qiladi) bo'lishi mumkin.

Loyiha asosida tashkil etiladigan darslar o'qituvchidan darsni tashkiliy jihatidan puxta o'ylangan, sifati, ishchanlik muhitida, o'quvchilarni jarayonga qiziqitira oladigan tarzda loyihalay olishni talab etadi. O'quv jarayonini loyiha asosida tashkil etishda o'qituvchi faollikka ish yurituvchi emas, balki keng qamrovli ijodkor pedagog rolini o'tashi talab etiladi.

O'qituvchi loyiha raxbari sifatida yuqori madaniyatli, ijodkor, izlanuvchan, tashkilotchi bo'lmog'i kerak.


Loyihalar shunday tuzilishi kerakki, u o'quvchi shaxsiga qaratilib, uning shaxsiy rivojlanishiga xizmat etishi kerak.





Loyihalar asosida o'quv jarayonini tashkil etishda o'qituvchi fidoyilik ko'rsatishi, o'quvchini ruhlantirishi, ularni qiziqitirish orqali pirovard maqsadga erishishi talab etiladi.

Loyiha asosida tashkil etiladigan darslar va unga sarf etiladigan vaqt, tashkiliy ishlar, beriladigan va to'g'ri yo'lga soluvchi savollar oldindan rejalashtirilishi kerak.

Undan tashqari dars jarayonida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan kamchilik, xatolar, ularning oldini olish, jarayonning tahliiy tomonlari ham oldindan hisobga olinishi kerak.

Loyihaviy ta'lim texnologiyasi





O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Loyihaviy ta'lim nima?
2. Loyiha asosida o'qitishda qanday samaraga erishiladi?
3. Yakka shaxslarga qaratilgan loyihaning afzalligi?
4. O'quv loyihaviy faoliyat nima?
5. Loyihani tayyorlash necha bosqichda amalga oshiriladi?
6. O'quv loyihaviy faoliyatning 1-bosqichi qanday tashkil etiladi?
7. Dars loyihalari o'zining davomiyligiga qarab qanday turlarga ajratiladi?
8. Loyiha ta'limning asosiy maqsadi?

11-Mavzu: Tarix fanini o'qitishda hamkorlikda o'qitish texnologiyalari Reja:

1. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining mazmun mohiyati.
2. O'qituvchining tayyorgarigi.
3. Yuzaga kelgan muammoli vaziyatlar yechimini topishda hamkorlikdagi ta'lim texnologiyasidan amaliy foydalanish.

Tayanch tushunchalar:

Hamkorlikda o'qitish, interfaol texnologiyalar, organiyzerlar, Interfaol metodlar, hikoya, ma'riza, suhbat, ko'rgazmali metod, tasviriy namoyish.

Mavzuni va alohida savollarini o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. – T.: O'zbekiston, 1995.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
4. Og'ayev S. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. Xalq ta'limi jurnali, 2001, №3, 69-71 b.
5. Pedagogika. Pedagogicheskie teorii sistemi, texnologii. Pod.red. S.A.Smirnova – M.: Akademiya, 2004.
6. Roziqov O., Og'ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta'lim texnologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1999.

I. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining mazmun mohiyati.

Tanqidiy fikr – bu qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishni asoslangandir. Yana bu qoidaga aniqlik kiritadigan bo'lsak, fikrlash – bu o'qituvchi

yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Tanqidiy (tahliliy) fikr shu bilan ahmliyatlidir:

– hayotning murakkab o'zgaruvchanlik ma'nosini tushunib yetishga yordam beradi;

- jamoaning ochiq fikrini rag'batlantiradi;
- shaxsning rivojlanishiga sharoit yaratishi va boshqalar.

- ta'lim jarayonida tanqidiy (tahliliy) fikrlashning asoslanishi:

1. O'qituvchi (pedagog) o'quvchi-talaba o'rtasida hamda o'quvchi-talabani o'zaro hurmatini tarbiyalaydi.

2. Mashg'ulot jarayonida o'quvchi-talaba tajribasidan foydalaniladi.

3. O'quv mazmuni o'quvchi-talabning talablariga mos va aniq belgilanadi.

4. Muammoni hal qilishda o'quv materiallaridan foydalaniladi.

5. Har xil buyum va qarashlar interaktivlashadi.

6. Dastlabki shart-sharoitlar qabul qilinadi va tekshirib ko'riladi.

7. Ta'lim o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba, o'quvchi-talabani o'zaro munosabati orqali berib boriladi.

8. O'quvchi-talaba mustaqil ta'lim olishi uchun sharoit yaratiladi – o'quvchi-talabani tayyorlash darajasiga muvofiq metodlar tanlanadi.

Mashg'ulotlar jarayonida foydalaniladigan didaktik o'yinli texnologiyalar o'quvchi-talabalarining bilish faoliyatini faollashtirish, darslik va qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularni ongli ravishda kasb-hunarga yo'llash, didaktik o'yin davomida vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda mo'ljalni to'g'ri olish, har xil vaziyatlarni tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqarishga zamin hozirlaydi.

O'quv dasturlaridan o'rin olgan muammoli mavzular muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanilgan holda muammoli dars aqaliy hujum shaklida o'rganilishi tavsiya etiladi va munozarali mavzular munozarali dars shaklida o'rganilishi maqsadga muvofiq. O'quv jarayonida munozarali darslarning ikki xili: ilmiy munozara va erkin fikrlash darslaridan foydalaniladi.

Interfaol metodlar - o'zaro fikr almashishga, o'zaro fikrlarni to'ldirishga, noverbal va verbal ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlar o'zaro ta'sir asosida qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta'sir, turki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik subektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni ochishga, kashf etishga ko'mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarda ifodalinishi mumkin.

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarining bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda quyidagi interfaol metodlar qo'llaniladi:

- o'qitishning ko'rgazmali metodi;
- mustaqil ishlash metodi;
- muammoli evristik modellashirish metodi;
- ilmiy tadqiqot metodlari;
- o'qitishning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi;
- o'qitishning induktiv va deduktiv metodi;

- o'qitishning nazorat va o'zini o'zi nazorat qilish metodi.

Metodlar quyidagi guruhchalarni o'z ichiga oladi:

1. O'quv axborotlarini eshitish orqali qabul qilish metodlari (og'zaki metodlar: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar).

2. O'quv axborotlarini ko'rgazmali kuzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metod, tasviriy namoyish qilish va boshqalar).

3. O'quv axborotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni yechish, mehnat harakatlari va boshqalar).

Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Bunda talabalarga kitoblar, daftar va boshqa usullardan foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha, bunday usullarni qo'llash rag'batlantiriladi.

Talabalarining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, muammolarni hal qilishda tayyor standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qilishga undash, talabalar ichki hissiyotlarini yuzaga chiqarib, ularni mantiqiy fikrlashga chorlash, ularni solishtirish, xususiy analitik fikr yuritishga o'rgatish, talabalar intellektual, zukkolik xislatlarini shakllantirish va ma'lum yo'nalishda yanada yuqori darajada rivojlantirish maqsadida muammoli uslubdan foydalaniladi.

Muammoli vaziyat qanday hisol qilinadi? Buning uchun bajarilishi lozim bo'lgan topshiriq e'lon qilinadi. Endi shu vazifani bajarish uchun talaba bor bilim va ko'nikmalarini eslaydi, topshiriqni bajarishda shu paytgacha egallagan bilimlarining yetishmasligini sezish bilan birga talaba shaxsida ma'lum psixologik qarama-qarshilik shaklidagi bahol yuz beradi. Galdagi muammo topshiriqni bajarish va shu topshiriqni bajarish uchun yangi bilim, iqtidor va ko'nikmalarni izlash muammosi paydo bo'ladi. Ana shu vaziyat yasa, muammoli tahsilning boshlanish jarayoni hisoblanadi.

Pedagog talabalarning topshiriqni mustaqil bajarish jarayonini zukkolik bilan boshqaradi, e'tibor bilan kuzatadi, kerak bo'lganda jonli muloqotga chorlaydi. Talabalar mantiqiy fikrlash davomida ularning jonli mushohadasi, fikr doirasi pedagog tomonidan izchillik bilan hisobga olinib tahsil oxirida faol talabalarga qo'yilgan ballar yoki baholarni e'lon qiladi. Talabalarda umumlashgan psixologik va uslubiy bilim, iqtidor va ko'nikmalarni shakllantirish, o'z tajribalarini tanqidiy nuqtayi nazardan yanada mustahkamlash, real haqiqiy amaliyotdagi sharoitda sinash va amaliy ko'nikmalarni yangi bilimlar bilan yanada boyitish maqsadida shu uslubdan foydalaniladi. Ma'lumki, har qanday fan o'qitilishi uchun, belgilangan maqsadga ko'ra, uning mazmuni, o'zlashtirish uchun mos metodlari, o'quv vositalari va ularga mos ravishda o'qitish shakli tanlanadi.

Talabalarining psixologik tayyorgarliklari, fikrlash darajalari yoki olgan bilimlarini o'zlashtirish darajalariga qarab, har bir talim bosqichi uchun mos mazmun va metodlar tanlanadi. Talimda har doim mazmun va metodlar muammosi mavjud, bu muammolar bir-biri bilan o'zviy bog'langan. Talim metodlaridagi muammolar «Kimni qanday o'qitamiz?» degan savol bilan bog'liq bo'lib, bundan talim metodlarini ishlab chiqish uning mazmuniga bog'liq

ekanligi kelib chiqadi. Bu ikki muammo o'zaro qarama-qarshilikda bo'lib, bir-birini to'ldirib boradi.

Metodikaning maqsadi mazkur fandan yangi o'quv fani (o'quv predmeti)ni yaratish va bu fanning o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat. Bunday o'quv fanlari talabani barcha talab va ehtiyojlarini qoniqtirishi, Pedagogik texnologiyar talabarlari asosida avval ko'qish so'ngra, bu o'qishga o'rgatish uchun o'qitish tamoyiliga asoslanishi, talabani o'quv materialini o'zlashtirishdagi darajalari, nazariy va amaliy bilimlarini egallashda «soddadan-murakkabga» qoqilasiga asoslangan nazorat topshiriqlarini belgilash talabalarga individual va tabaqalashgan yondashuv xususiyatlarini hisobga olishi lozim.

Hamkorlikda ta'lim berish va uni amalga oshirish shartlari

Asosiy nazariy mazmuni	Amalga oshirish sharti
Xshaxsga yo'naltirilgan g'oyalarni namoyon qiladi: (1) har bir talim oluvchilar tomonidan BMK, ularning shaxsiy xususiyatlarining ri-vojlantirish darajasiga muvofiq egallashi; (2) muloqot ko'nikmalarini shakllantirish: birga faoliyat olib borishni o'rgatish, ta'lim olish va yaratish, har doim bir-biriga yordamga kelishga tayyor bo'lish, omad qonv-chi yoki muvaffaqiyatsizlik alomini bo'lish.	Maqsadni belgilash jarayonida amalga oshiriladi. Mustaqil individual ish→ guruhlarda hamkorlikdagi ish- hamkorlikda ta'lim berishda bilish jarayonining dialektik o'zaro bog'liqligi shundan iborat.
Topshiriqni nafaqat birgalik-da bajarish, balki birgalikda o'rganish; musobaqa emas, balki hamkorlikda.	Ta'lim beruvchi vazifasining o'zgarishi: ta'lim oluvchilar bilan (ommaviy emas) yangi o'zaro harakatga tayyorgarligi va qodirligi. (1) shaxsiy tenglik va hurmat, to'laqonli muloqot va o'zaro tushunishga o'tish. (2) ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'zaro harakatining yangi shakllari: ta'lim beruvchi→ guruh→ta'lim oluvchilar, ta'lim oluvchilar→ta'lim oluvchilar.
Hamkorlikda ta'lim olishni tashkillashtirishning asosiy tamoyillari:	-topshiriqni bajarish uchun guruhga bir topshiriq beriladi;
-bir topshiriq bir guruhga;	-guruh hamma uchun yagona, hamkorlikdagi ish baholari jamlanishi, (umumiy natijaga erishish uchun guruhdagi barcha ta'lim oluvchilar harakati baholanadi), shuningdek har bir ishtirokchining shaxsiy qo'shgan hissasidan kelib chiqqadigan bahoni oladi;
-rag'batlantirish hamma uchun;	-o'zaro harakatni tezlashtirish yo'llari, ya'ni guruhli bahs, hamkorlik, o'z yordam, hamkoriy faoliyat;
-o'z omadi va boshqa guruh omadlari uchun har bir shaxsning mas'uliyati;	-har bir ta'lim oluvchi shaxsiy muvaffaqiyatlarini takomillashtirishga, madomiki boshqalar bilan birga baho olsa, ta'lim olishda shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak
-hamkorlik faoliyati;	
-muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar	

2. O'qituvchining tayyorgarligi.

An'anaviy metodikada talaba shaxsining rivojlanishini hisobga olgan holda uning bilimi ko'nikmaga, undan esa malakagacha rivojlanishiga ahamiyat berilmasligi ayon. O'qituvchi talabaga iloji boricha o'rganilayotgan mavzudan ko'proq axborot berishga harakat qiladi. O'qituvchi: axborotlarni to'plash, tanlash, qayta ishlash va o'rganigan axborotlarni qo'llash kabi bilishning uchta bosqichdan iborat modeliga rioya qilavermaydi. Keyingi navbatda talabaning bilish faoliyati (olgan bilimi) uning yangi pog'onasiga, ya'ni bilish faoliyatining faollashuv jarayoniga o'tishi kerak. Shundaygina bilim ko'nikmaga, ko'nikma esa malakaga aylanadi. Talabalar bilish faoliyatining faollashuvi qator tamoyillarga tayanadi: fanni o'rganishga qiziqtirish, tayanch iboralariga asoslanish, muammoli metodlarni qo'llash, mustaqil ishlarni tashkil etish, yalpi va yakka ishlarni tashkillashtirish, ko'rgazmali va texnik vositalardan foydalanish, ta'lim mazmunini tushum bilan bog'lash, fanlararo aloqadorlikni o'rnatish va hokazo. Bundan esa, ta'lim jarayonida o'qituvchi rioya qilishi kerak bo'ladigan asosiy tamoyillar kelib chiqadi:

- talabada o'z kuchiga ishonish hissiyotini uyg'otish;
- talabaga o'z vaqtida kerakli yordam berish.

O'qituvchi daraj jarayonida asosiy diqqat e'tiborini talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratmog'i lozim. Buning uchun o'qituvchidan yuksak aqliy zakovat va pedagogik mahorat talab etiladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q. Ammo tanqidiy fikrovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlar to'plami mavjud.

Tanqidiy fikrlash tajribasini egallashga quyidagilar kiradi:

- talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;
- talabalarining o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;
- har bir talabani tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hisini uyg'otish;
- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan talabalar:

- o'ziga ishonchni o'rnatish, o'z fikri hamda g'oyalarning qadrini tushunish;
- ta'lim jarayonida faol ishtirok etish;
- turli fikr va g'oyalarni e'tibor bilan tinglash;
- o'z hukmlarini shakllantirishga va undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Tanqidiy (tahliiliy) fikrlash talabalarining faolligi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, talabalar sustkash tinglovchilar bo'lishadi, ularda o'qituvchi bilimi yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlariga o'qituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan. Ta'lim jarayonidagi talabalarining faol ishtiroki va ta'limga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi, tanqidiy fikrlashga kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z g'oyasi va fikrlari bilan

o'zaro o'rtqalashishga da'vat etish kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini o'stiradi.

Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talabalarining fikrlari, tanqidiy tahlil natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'qituvchi (pedagog) talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan holi bo'lishi lozim. Bu esa talabalarda o'zgarish g'oyalarni mexanik tarzda qayta ishlash chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lgan g'oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish kerak. Talabalarining o'zlarini ham o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari hamda masalalarni muhokama qilish jarayonida o'ta muhim vazifa ekanligini tan olishlari kerak.

Fikrlash jarayoni talabalarining o'zaro bir-birlari bilan fikr almashishlarini ko'zda tutadi. O'zaro fikr almashishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlar tizimini so'rovchiga zo'rab o'tkazish va boshqa so'zlovchilar fikrini tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o'laroq talabalar o'zlariga tegishli bo'lgan g'oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o'z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g'oyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o'tkazishning bir necha modellari mavjud, ya'ni: o'ziga ishonch hosil qilish, ishda faol ishtirok etish, o'rtqol va o'qituvchi bilan fikr almashish, o'zgarish fikrini tinglay olish va boshqalar.

3. Yuzaga kelgan muammoli vaziyatlar yechimini topishda hamkorlikdagi ta'lim texnologiyasidan amaliy foydalanish.

Bunda yuzaga kelgan muammoli vaziyatlar yechimini topishda hamkorlikdagi ta'lim texnologiyasidan foydalanib quyidagi savollarga javob olinadi:

1. Ma'ruzani eshitib yozib bordim, lekin o'zlashtirilayotgan material mohiyatini bir davmning o'zida to'liq tushunib etmadim.
2. Oliy ta'limning mazmuni va shakli o'rta maktabnikidan nimasi bilandir farq qiladi.
3. Ilmii tushunchalar, atamalar va ta'riflardan foydalanishda qiyinchiliklarni his qilaman.
4. Ma'ruzaga va seminar mashg'ulotlarining mohiyatini tushuna olmayman.
5. Nazariy bilimlar bilan amaliyot o'rnatida birmuncha nomutanosibliklar mavjud.
6. Mustaqil faoliyatni rejalashtirishning oqilona usullari yetishmaydi.
7. Mustaqil bilim olish uchun juda oz vaqt qoladi.
8. O'quv yili davomida bir qancha materiallar individual ishlashga yig'ilib qoladi.
9. Reyting nazoratida his-tuyg'u barqarorligining yetishmasligi sababli diqqatni bir joyga to'play olmayman.

10.Seminar mashg'ulotlari va reyting nazoratiga tayyorlanish uchun birlamchi manbalarning yo'qligi yomon oqibatlariga olib keladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

- 1.Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi nima?
- 2.Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda qanday interfaol metodlar qo'llaniladi?
- 3.Tanqidiy fikrlash tajribasini egallashga nimalar kiradi?
- 4.Muommoli vaziyatlarni yechishda hamkorlikdagi ta'limning o'rni?
- 5.Hamkorlikda o'qitish jarayonida o'qituvchining roli qanday?
- 6.Hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan ko'zlangan maqsad?

TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR FANIDAN TEST SAVOLLAR

- 1) O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi necha bosqichda amalga oshirilmoqda?
A)3 bosqichda.
B)2 bosqichda.
C)4 bosqichda.
D)5 bosqichda.
- 2) Interfaol ma'nosini anglatadi?
Nuqtalar o'midagi qoldirilgan so'zni toping?
A)Ta'lim olish uchun o'zaro harakat qilish.
B) Kichik guruhlarda ajratish.
C) Guruhlarda ta'lim olish.
D) To'g'ri javob yo'q.
- 3) Tarixni o'qitishda innovatsion texnologiyalar qanday fan?
A) falsafiy fan.
B) aniq fan.
C) uslubiy fan.
D) ilmiy pedagogik fan.
- 4) Bilishga oid soha nima deb ataladi?
A) affektiv.
B) kognitiv.
C) psixometr.
D) bunday soha yo'q.
- 5) Ta'lim berishning asosiy kategoriyalari...
A) ilmiy, nazariy, amaliy, isbotlilik, joriy etilganlik.
B)og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, laboratoriya ishlari, eksko'rsiyalar.
C)bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez, baholash.
D)ilmiylik, tushunarlilik, ongillik va faollik, o'zviylik.
- 6) Pedagogik texnologiya dastlab qachon va qayerda qo'llaniladi?
A) XX asrda AQSHda.
B) XX asrning 2-yarmida Angliyada.
C) XX asrning 1-yarmida Angliyada.
- D)XX asr o'rtalarida AQSHda.
7) 80-yillarning boshida pedagogik texnologiya deb...
A)texnika vositalari yordamida o'qitish hisoblangan.
B)kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratish tushunilgan.
C)darslarni loyihalashtirish tushunilgan.
D)dasturlashtirilgan ta'lim tushunilgan.
- 8) Test so'zi qaysi tildan olingan?
A) Nemischa bilish.
B) Ingilizcha sinash.
C) Lotincha o'rganish.
D) Yunoncha sinash.
- 9) An'anaviy dars sxemasi qanday tuzilgan?
A)Yangi mavzuni mustahkamlash, nazoratni baholash,o'rganish.
B) Testni yangi mavzuni baholash.
C) Mustahkamlash, baholash, tushuntirish -yangi mavzu.
D)Mavzuni tushuntirish.
- 10)Mamlakatimizda pedagogik innovatsiyani rivojlantirish muammolari ustida kimlar tadqiqotlar olib borishgan?
A) Azizxo'jayeva, B.Farberman, O'.Nishonaliyeva, N.Saidaxmedov.
B) G.A.Mekretchiyan, B.Farberman, M.Ochilov, N.Azizxo'jayeva.
C) V.I.Slobodchikov, M.Ochilov, V.A. Slostenin.
D) M.Ochilov, N.Azizxo'jayeva, O'.Nishonaliyeva, K.Angilovskiy.
- 11) Nima uchun innovatsion texnologiyadan foydalanamiz?

- A) Bilimlarni nazorat qilish uchun.
 B) An'anaviy ta'lim texnologiyasini saqlash uchun.
 C) O'quv jarayoniga yangilik va o'zgarishlar kiritish uchun.
 D) Baholashni yangi turini qo'llash uchun.
- 12) Innovatsiya tushunchasini ilk va ulkan nazaryachilari kimlar hisoblanadi?
 A) I.Shumpater, N. Konderativ.
 B) G.A.Mekretchian, K. Anglikskiy.
 C) S.I.Ko'zmina, G.I.Gorskaya.
 D) V.A.Kon-Kalik, B.Farberman.
- 13) Yangi pedagogik texnologiya bo'yicha ishlashda o'quv jarayoni...
 A) O'rta o'quvchilarga yo'naltiriladi.
 B) Bilimsiz o'quvchilarga yo'naltiriladi.
 C) A'loch o'quvchilarga yo'naltiriladi.
 D) Har bir o'quvchiga yo'naltiriladi.
- 14) Darsning texnologik xaritasi nima uchun xizmat qiladi?
 A) Bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun zarur hajmini shakllantirish hamda ishlab chiqarish malakasini yanada oshirishni maqsad qilib qo'yadi.
 B) O'qituvchi va talaba faoliyatini hamda unga taqsimlangan vaqt me'yorini har bir bosqich bo'yicha to'g'ri belgilashga.
 C) Talabalar faoliyatini faollashtiradi.
 D) Mashg'ulotni tashkil etish uchun xizmat qiladi.
- 15) Respublikamizda KTMD ning 3-bosqichini amalga oshirishga qachondan kirishildi?
 A) 2001 yildan.
 B) 2002 yildan.
 C) 1997yildan.
 D) 2005 yildan.
- 16) Ta'lim vositalariga nimalar kiradi?
 A) Ta'lim berishning texnik vositalari, yordamchi texnik vositalar va o'quv uslubiy materiallar.
 B) Sinf xonasi, stol-stullar.

- C) O'quv binosining yorug'ligi, ictish tizimi.
 D) Dars jadvali, e'lonlar.
- 17) Yordamchi ta'lim vositalarini toping?
 A) Diaproyektor, blaknot, stend.
 B) Grafik chizmalar, diagrammalar.
 C) Na'munalar, chizmalar va sxema.
 D) Doska, xaritalar, eslatma.
- 18) Quyidagilardan modelli vositalarga nimalar kiradi?
 A) Maketlar, materiallar.
 B) Tarixiy obektlar, matnlar.
 C) Grafik, chizmalar.
 D) Xaritalar, doska-blaknot.
- 19) Aqliy hujumning vazifasini toping?
 A) Nutq madaniyatini rivojlantirish.
 B) Mantiqiy fikrlashga o'rgatish.
 C) Yangi g'oyalarni yaratish.
 D) Erkin fikrlashni tarbiyalash.
- 20) Tarqatma materiallarni tayyorlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
 A) Ta'lim oluvchilarga ko'p tarqatma materiallar tarqatish kerak.
 B) Matin tushunarli qisqa bo'lish kerak, matn shrifti 12 dan kichik bo'lmasligi kerak.
 C) Tarqatma materiallar ko'zga tashlanmasligi kerak.
 D) Tarqatma materiallarda chalkashliklar ataylab ko'paytirilishi kerak.
- 21) „Klaster“ so'zi qanday ma'noni anglatadi?
 A) To'plam.
 B) Chizma.
 C) Bog'lam.
 D) Grafik.
- 22) Metodologiya nima?

- A) Fanlarni o'qitish qoidasi.
 B) Metodologiya – metod haqidagi ta'limot yoki metodlar nazariyasi.
 C) Fanlarni o'qitish nazariyasi.
 D) Metodga asoslanmagan o'qitish usullari.
- 23) Quyidagi tushunchalarning soddadan murakkabga tomon to'g'ri joylashish tartibini ko'rsating?
 A) Metodika → metodologiya → metod → texnologiya → usul.
 B) Metod → metodika → usul → metodologiya → texnologiya.
 C) Texnologiya → metodologiya → usul → metod → metodika.
 D) Usul → metod → metodika → metodologiya → texnologiya.
- 24) O'quv qo'llanmaning darslikdan farq qiluvchi jihati toping?
 A) Muayyan mavzularni darslikka nisbatan kengroq yoritadi.
 B) Ular o'rtaida farq bo'lmaydi.
 C) Darslikning dastlabki nusxasi.
 D) O'quv qo'llanma ma'ruzalar matnidan iborat.
- 25) Qaysi chet mamlakatida o'z vaqtida ta'lim olmagan katta yoshdagilar uchun bilim olish imkoniyati yaratib qo'yilgan?
 A) AQSh.
 B) Fransiya.
 C) Germaniya.
 D) Yaponiya.
- 26) Qaysi chet mamlakatida oliy ta'lim beruvchi universitetlar o'z talabalariga uch siklda ta'lim beradilar?
 A) Fransiya.
 B) AQSh.
 C) Yaponiya.
 D) Germaniya.
- 27) AQSh oliy ta'lim nechta asosiy bosqichda amalga oshiriladi?
 A) 3.
 B) 4.
 C) 5.

- D) 2.
 28) Fransiya „nafosat ta'limi“ qanday muhim bosqichlardan iborat?
 A) Musiqi, san'at va sport.
 B) San'at va adabiyot.
 C) Musiqi va tarix.
 D) Sport va badiiy gimnastika.
- 29) Quyidagi qaysi mamlakatning birida ta'lim tizimining kasb-hunar ta'limi tizimiga katta e'tibor beriladi va katta ahamiyatga ega hisoblanadi?
 A) Germaniya.
 B) Yaponiya.
 C) Fransiya.
 D) AQSh.
- 30) Test so'rovining asosiy afzalligi to'g'ri berilgan javobni toping?
 A) Ko'p sonli talabalar bilimni kam vaqt ichida nazorat qilib, baholash imkonini beradi.
 B) Bilimlar obyektiv sharoitda aniqlanadi.
 C) To'g'ri javob tez aniqlanadi.
 D) O'qituvchi oson baholaydi.
- 31) Fakultativ darslar bu...
 A) To'garak ishi.
 B) Qo'shimcha o'qish.
 C) Konsultatsiya.
 D) O'quvchilarning qiziqishlariga qarab mavzuni chuqurlashtirib o'tiladigan dars.
- 32) O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni necha bo'lim va moddadan iborat?
 A) 5 bo'lim, 34 modda.
 B) 4 bo'lim, 24 modda.
 C) 3 bo'lim, 30 modda.
 D) 2 bo'lim, 38 modda.
- 33) Tarix o'qituvchilari necha yilda malaka oshirishlari zarur?
 A) Uch yilda bir marotaba.
 B) Ikki yilda bir marotaba.

muayyan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir.

B) O'quv jarayoniga yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan iborat.

C) Ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarini qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

D) Avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir.

42) Sinfga to'g'ri berilgan ta'rifni toping?

A) Yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan muayyan o'quvchilar guruhiga aytiladi.

Bir sinf o'quvchilar jamoasiga aytiladi.

B) Bir guruh o'quvchilar yig'indisiga aytiladi.

C) Bir sinf o'quvchilar jamoasiga aytiladi.

D) O'quvchi boshchiligidagi jamoaga aytiladi.

43) O'quv dasturi qaysi hujjatlar asosida tayyorlanadi?

A) Kalendar ish reja asosida.

B) O'quv reja, DTS asosida.

C) Ko'nikma va malakalar hajmiga qarab.

D) Darslik asosida.

44) Ta'lim mazmunini tashkil etuvchi rasmiy hujjatlar...

A) Fanlar bo'yicha mustaqil ish.

B) Texnologik xarita, dars.

C) Sinf jurnali.

D) DTS, O'quv rejasi, o'quv dasturi, darslik.

45) «Standart» tushunchasi nimani anglatadi?

A) Me'yor, Qolip.

B) Hujjat, shartnoma.

C) Shablon, o'lchov.

D) Namuna, o'lchov.

46) O'zbekistonda majburiy ta'lim necha yil?

A) 10 yil.

B) 11 yil.

C) 12 yil.

D) 15 yil.

47) Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda bitta dars qancha vaqt davom etadi?

A) 80 minut.

B) Ta'lim muassasasi belgilaydi.

C) 45 minut.

D) 1 soat.

48) Ma'ruza so'zi qaysi tildan olingan?

A) Arabcha.

B) Franso'zcha.

C) Ispancha.

D) Nemischa.

49) Axborotlarni bayon qilinishiga ko'ra ma'ruzalar turini aniqlang?

A) Dogmatik, axborot, namoyish qilish, muammoli.

B) Dialogik, tematik, suhbat, munozara.

C) Kirish, tematik, umumiy-yakuniy.

D) Hamma javob to'g'ri.

50) Ma'ruzachi o'z ma'ruzasining har bir blokini necha minut davom ettirilishi tavsiya etiladi?

A) 15-20.

B) 25-30.

C) 30.

D) 20.

51) Talabalarni yakka tartibda suhbatga tortish necha minut davom etishi mumkin?

A) 1.

B) 2.

C) 3.

D) 5.

- C) Bir yilda bir marotaba.
 D) To'rt yilda bir marotaba.
- 34) Yosh o'qituvchi o'zining ish faoliyatida qanday psixologik muammolarga duch keladi?
 A) Yolg'on xushomad qilish, kasbga bo'lgan salbiy munosabat, yoqtirish-yoqtirmaslik.
 B) Ijtimoiy munosabat, guruhdan qo'rqish, talaba va o'qituvchi o'rtasida ziddiyatning hosil bo'lishi.
 C) Mensimaslik, buyruq, ayblash, kesatiq.
 D) Do'stlik, hamjihat bo'lib ishlash, xizmatdagi mutanosiblik.
- 35) Kichik guruhlarda ishlash usuli nima sababdan qo'llanadi?
 A) Ajratilgan vaqt kamligi uchun.
 B) Pedagogik texnologiyada bunday usul yo'q.
 C) Guruhda bolalar soni kam bo'lganligi uchun.
 D) Barcha muhokamada ishtirok etishi, o'z fikrini bildirishi va boshqalarga yordam berishi uchun.
- 36) Tarix o'qitish metodikasi deganda nimani tushunasiz?
 A) Tarixiy material vositasida o'quvchilarga bilim berish tushuniladi.
 B) Tarixiy voqelikni o'rganish.
 C) O'quvchilarning tarixni o'rganishni tashkil etish.
 D) Tarixiy voqeaga to'g'ri baho berish.
- 37) Vazirlar mahkamaisining O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi qarori qachon qabul qilingan?
 A) 1996-yil aprelida.
 B) 1997-yil avgustida.
 C) 1998-yil iyunida.
 D) 1998-yil iyulida.
- 38) FSMU texnologiyasi o'quvchiga nimani o'rgatadi?

- A) Muammoli vaziyatni yuzaga keltirishni o'rgatadi.
 B) Vaziyatni tahlil qilish va tadqiq etishni o'rgatadi.
 C) Rol ijro etish texnikasini o'rgatadi.
 D) Guruhlarda jamoa bo'lib ishlashni o'rgatadi.
- 39) Interfaol ta'lim berish usulini izohlang?
 A) Dialogli ta'lim berish usuli bo'lib, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi, ta'lim oluvchi va kompyuter o'ratsidagi o'zaro harakatni amalga oshiradi.
 B) Erkin fikrlash o'z fikrini asoslash va boshqalarga yetkazish usulidir.
 C) Tarix ta'limini real hayotga yuqori darajada yaqinlashtirgan holda amalga oshirishni taminlaydi.
 D) Faqat kompyuter texnikasiga asoslangan usul.
- 40) Pinbord usulini tushuntiring.
 A) O'yinli so'rov ma'ruza jarayonida o'quvchilarning eslab qolgan narsalarini, yana bir marta aytilganlarni qaytarib aytish.
 B) Munozara usullari va o'quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat.
 C) Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydigan usul.
 D) Amaliy yoki ilmiy muammolar yyechish g'oyasini ko'pchilik bo'lib yuzaga keltirish.
- 41) Pedagogik texnologiyaga YUNESKO tomonidan berilgan ta'rifni aniqlang?
 A) Bu o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda

52) Keys usulidan qanday hollarda foydalanish mumkin?

A) O'qituvchining vaqti tig'izligi tufayli talabalar bilan to'liq savol-javob o'tkaza olmasa.

B) Darsni qiziqarli olib borish uchun.

C) Talaba darsni yaxshi o'zlashtira olmasa.

D) Keyingi mavzuga tayyorgarlik ko'rish uchun.

53) O'qituvchi talaba bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan mashg'ulot bu...

A) Anjuman.

B) Ma'ruza.

C) Konferensiya.

D) Seminar.

54) Seminar mashg'ulotlarini necha turga ajratish mumkin?

A) 1.

B) 2.

C) 3.

D) 4.

55) Laboratoriya mashg'ulotlarining tavsifi keltirilgan javobni belgilang.

A) Talabalar mustaqil ravishda vazifalarni bajaradilar yoki eksperiment o'tkazadilar.

B) Tematik bog'langan muntazam ko'rs chuqur o'rganiladi.

C) Talabalar mustaqil amaliy ishlarni bajaradi.

D) Bilimlarni mustaqil o'zlashtiradi

56) O'yinli texnologiyalarni tashkil etishda qanday maqsadlar ko'zda tutiladi?

A) Nazariy, ijtimoiy.

B) Didaktik, tarbiyaviy.

C) Tarbiyaviy, siyosiy.

D) Jismoniy, ma'naviy.

57) Insert jadvalidagi "V" belgisi nimaning anglatadi?

A) Bilaman.

B) To'g'ri kelmadi.

C) Yangi axborot.

D) Tushunmadim.

58) Insert jadvalidagi belgilar nechitani tashkil etadi?

A) 2 ta.

B) 3 ta.

C) 4 ta.

D) 7 ta.

59) Didaktik o'yin turlarini toping?

A) Savol-javob, munozara.

B) O'quv bahsi, aqliy hujum.

C) Sport o'yinlari

D) Ijodiy o'yinlar, anjumanlar.

60) Didaktikaning so'zma-so'z tarjimasini nima?

A) Didaktika inglizcha so'z bo'lib o'qitish nazariyasi demakdir.

B) Didaktika grekcha so'z bo'lib, o'qitish demakdir.

C) Didaktika grekcha so'z bo'lib «o'qitish» «o'rgatuvchi» degan ma'nolarni anglatadi.

D) Didaktika grekcha so'z bo'lib «o'rgatuvchi» degan ma'nolarni anglatadi.

61) O'yinli mashg'ulot o'tkazishdan necha kun oldin mavzu e'lon qilinishi kerak?

A) Bir hafta.

B) 10-12.

C) 5.

D) Ikki hafta.

62) Taqilid o'yinlarga o'z navbatida qaysi o'yinlar asos bo'lgan?

A) Harbiy-siyosiy.

B) Ilmiy.

C) Siyosiy.

D) Ijtimoiy.

63) Zakovat o'yinida o'yin ishtirokchilari qanday yordamida saralab olinadi?

A) Insho.

B) Savol-javob.

C) Test.

D) Suhbat.

64) Zakovat o'yinida necha kishi ishtirok etishi lozim?

A) 6-8.

B) 7-9.

C) 4-5.

D) 8-10.

65) Kim biladi o'yinida o'quvchilar nechta guruhga bo'linishi tavsiya etiladi?

A) 2 ta.

B) 3 ta.

C) 4 ta.

D) Jamoa bo'lish tavsiya etiladi.

66) Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy tamoyilini ko'rsating?

A) Ta'lim markaziga o'quvchi (talaba) qo'yiladi;

B) Ta'lim markaziga o'qituvchi qo'yiladi.

C) Ta'lim markaziga pedagogik jamoa qo'yiladi.

D) Ta'lim markaziga o'qituvchi va o'quvchi qo'yiladi.

67) Dars jarayonida yangi bilimlarni berishda asosiy o'rinni nima belgilaydi?

A) Laboratoriya.

B) Mustaqil ish.

C) Takrorlash.

D) Yangi mavzu bayoni.

68) Ko'nikma nima?

A) O'zoq vaqt davomida takrorlash natijasida paydo bo'ladigan kishining anglangan ish harakatlarini bajarishdagi avtomatlashgan usulidir.

B) Shaxsning bilim va ko'nikmalariga asoslangan holda ma'lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga tayyorligi.

C) Turli xildagi murakkab faoliyatni bajarishga tayyorgarlik;

D) Ma'lum ish-harakatning qanday bajarilishini tushunish va bunday harakatlarning bajarilishi tartibi bilan tanish.

69) Malaka nima?

A) Ma'lum ish-harakatning qanday bajarilishini tushunish va bunday harakatlarning bajarilishi tartibi bilan tanishish;

B) O'zoq vaqt davomida takrorlash natijasida paydo bo'ladigan kishining anglangan ish harakatlarini avtomatlashgan usulidir.

C) Shaxsning bilim va ko'nikmalariga asoslangan holda ma'lum faoliyatni bajarishga muvaffaqiyatli tayyorligi

D) Kishining amalda qo'llashi mumkin bo'lgan bilimlaridir.

70) Ta'lim texnologiyasi turlarini belgilang?

A) Nazariy, amaliy, aralash, mustahkamlash.

B) Muammoli, shaxsga yo'naltirilgan, masofaviy, modulli.

C) Noan'anaviy, an'anaviy, mustahkamlash.

D) Aralash, ma'ruza, masofaviy, nazariy.

71) Motiv nima?

A) Anglanmagan xatti-harakat istagi, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda aniq, tez va maqsadga muvofiq tarzda o'z-o'zidan bajarish darajasini ifodalaydi.

B) O'zoq maqsadlar bilan bog'liq bo'lmagan biron maqsad.

C) Ehtiyojni qondirishga moyil predmet.

D) Anglanmagan ish harakat bo'lib, biron ehtiyojning subyektiv ifodasini bildiradi.

72) Muammoli darsning tuzilishi va elementlari bu...

A) Talabalar egallagan bilimlarini faollashtirish, yangi bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

B) O'tilgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuni tushuntirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

C) Egallangan bilimlarni takrorlash, yangi ma'lumotni o'zlashtirish ko'nikma va malakalarni shakllantirish, egallangan bilimlarni nazorat qilish.

D) Ko'nikma va malakalarni shakllantirish, egallangan bilimlarni nazorat qilish va baholash.

73) Muammoli ta'lim metodining ta'rifi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

A) O'quvchilarni biron obyekt bilan tanishtirish, so'ngra uni tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganishdir.

B) Ilmiy bilish jarayonining obyektiv qarama-qarshiliklarini ochish va ularni hal qilishga qaratilgan, fikrlashga o'rgatish va bilimlarni ijodiy o'zlashtirishga qaratilgan ta'lim metodi.

C) O'qituvchi o'quvchilarning bilimiga tayanib, yangi materialni bayon qiladi hamda bilimlarni ijodiy o'zlashtirishga qaratilgan ta'lim metodlarini qo'llaydi.

D) Biror sohada yangi yutuqlarni tushuntiradi.

74) Ta'limdagi muammo nima?

A) Mustaqil ish uchun mo'ljallangan savol.

B) Pedagogik jarayonlarini amalga oshirishda o'quv uslubini qo'llash, ta'lim berishga hamda fanga oid o'quv materiallari to'g'risidagi ma'lumotlarni samarali o'zlashtirishiga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonini yo'lga qo'yish muammolari.

C) Hozircha javobi ma'lum bo'lmagan, lekin axborot manbalarida, o'quv materiallari yoki o'qituvchi orqali bajarilgan mashg'ulotlarda mavjud bo'lgan, bilim oluvchini bilimiga da'vat

etuvchi ta'lim - tarbiyaga oid muhim masala.

D) O'qituvchi va o'quvchiga orasidagi munosabat.

75) Muammoga berilgan to'g'ri ta'rifi aniqlang?

A) Jarayonida faqat bilish orqali vujudga keladigan vaziyat.

B) Biror bir voqea yoki xodisani xal etish holati.

C) Ilmiy bilishni rag'batlantirish zarurligini ifodalashning obyektiv shakli.

D) Muammoli vaziyatda, ya'ni jamiyat rivojlanish jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida vujudga keladigan vaziyat.

76) Quyidagilarning qaysi birida muammoli ta'limning muvaffaqiyatli kyechish shartlari keltirilgan?

A) O'quv materialini muammolashirish, o'quvchining faolligini tashkil etish, o'qitishning o'quvchi hayoti, turmush tarzi, mehnati bilan aloqasi.

B) Faqat o'quv materialini muammolashirish.

C) O'quvchini faolligini tashkil etish.

D) O'qituvchi o'z faoliyatidan kelib chiqib tushuntirishi.

77) Bir savolning o'ziga har xil fikrlarni bildirish bu...

A) O'quvchilarni to'g'ri fikrlashga o'rgatish.

B) Muammoli vaziyat yaratish usullaridan biri.

C) Zakovat o'yini qoidalaridan biri.

D) O'qituvchini mavzuni yaxshi bilmasligi alomati.

78) Muammoli ta'limda o'qituvchi o'quvchiga biron bir masalani

yyechishda topshiriqni qay holda beradi.

A) Unga tayyor qo'llanma va darsliklar beradi.

B) Muammoni qanday bajarish yo'lini aytadi.

C) O'qituvchi uni qanday bajarish mumkinligini aytmaydi.

D) Muammoni yyechishda hamkorlik qiladi.

79) Muammoli ta'lim an'anaviy ta'limdan qanday farq qiladi?

A) Faqat metod jihatdan.

B) Faqat vazifasi jihatdan.

C) maqsad, prinsp, metod va vazifalar jihatdan.

D) Faqat prinsipi jihatdan.

80) Muammoli vaziyat qanday jarayon hisoblanadi?

A) Intellektual qiyinchilikda paydo bo'lgan vaziyatdan chiqish jarayoni.

B) Boylik orttirish yo'lidagi jarayon.

C) Bilimlar o'rganish jarayoni.

D) Muammo yuzaga kelmasdan oldingi jarayon.

81) Quyidagi holat muammoli ta'limning nechanchi bosqichi hisoblanadi? "O'qituvchi muammoni to'liq yoritadi va uni yyechimini topib beradi, qarshi savollar yordamida o'quvchilarni fikrlashga ixtiyoriy majbur etadi".

A) 1 bosqich.

B) 4 bosqich.

C) 3 bosqich.

D) 2 bosqich.

82) Tarix darslarida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish orqali qanday natijaga erishish mumkin?

A) Bo'lib o'tgan voqea va hodisalarga erkin fikr mulohazalarni bildira olish, taqqoslash, xulosa chiqarish ko'nikmasi hosil bo'ladi.

B) Bo'lib o'tgan voqea va hodisalarga manbalar va ko'rsatilganidek baho beradi.

C) Faqat muhim statistik ma'lumotlarni esda saqlab qoladi.

D) Tarix darslarida hech qanday foyda bermaydi.

83) KEYS texnologiyasini tushuntirib bering?

A) Ma'lum natijaga olib keluvchi harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni anglatadi.

B) muamoli vaziyat yaratish usuli.

C) Turli xil jadvallar umumlashmasi.

D) O'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltiradigan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasi.

84) Keysda ishlash necha bosqichdan iborat va ular qaysilar?

A) 1-bosqichdan individual ishlash.

B) 2-bosqichdan individual va jamoa bo'lib ishlash.

C) 3-bosqichdan ikki kishilik, uch kishilik va to'rt kishilik.

D) Ko'p bosqichli.

85) Keys ta'lim texnologiyasi quyidagilarni qaysi biriga asoslanadi?

A) Muammoni faqat yyechimiga.

B) Muammoni keltirib chiqarish sababiga.

C) Muammoni oldingi muammo bilan solishtirishga.

D) Muammoni ifodalashda real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil etishga.

86) Keyslardan foydalanish usulidan biri keltirilgan javobni toping?

- A) Guruhlarda muhokama qilish va so'ngira guruhda munozara o'tkazish.
B) O'qituvchidan yordam olish.
C) Senariy tuzish.
D) Muammoni o'ylab topish.
- 87) Keys ta'lim texnologiyasini yiechishdagi muammoli vaziyat jadvali necha qismdan iborat?
A) 2 qismdan.
B) 3 qismdan.
C) 5 qismdan.
D) 6 qismdan.
- 88) Keys – stadi uchun yozma ish talablari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?
A) A4 standartdagi varaqning bir tomonida tezis shaklida yozilishi kerak. Tezis 2 varaqdan oshmasligi shart.
B) A4 standartdagi varaqning ikki tomoniga yoziladi.
C) A4 standartdagi varaqda 4 bet yoziladi.
D) 1 ta vatman qog'ozda yoziladi.
- 89) Keysni baholashda auditoriyadan tashqarida bajarilgan ish uchun maksimal ballni belgilang?
A) 10 ball.
B) 15 ball.
C) 20 ball.
D) 17 ball.
- 90) Keys ta'lim texnologiyasida o'tkazilgan tahlillar va natijalar yiechimining aniq variantlari tanlab olinib, qanday jadval to'ldiriladi?
A) Bliits so'rov jadvali.
B) Insert jadvali.
C) Qarorlar shajarasi jadvali.
D) T-sxema jadvali.
- 91) Loyihalash metodi nima?
A) Loyihalash an'anaviy o'qitishga xos bo'lgan ma'lum ish-harakatning qanday bajarilishini tushunish va bunday harakatlarning bajarilishi tartibi bilan tanishish.

- B) Loyihalash ta'limda metodika vazifasini bajaradi.
C) Loyiha bu ta'lim rejasidir.
D) Loyihalash metodi – didaktik maqsadga erishish uchun muammolarni topish, aniqlash va ularni ishlab chiqish (texnologiyalarni) usullaridir.
- 92) Loyihaviy ta'lim – bu...
A) Ta'lim modeli.
B) Ta'lim bosqichi.
C) Ta'lim maqsadi.
D) Ta'lim jarayoni.
- 93) Quyidagilarni qaysi biri loyihaviy ta'limning tayyorgarlik bosqichiga kiradi?
A) Auditoriyadan tashqari ish.
B) Kirish va faoliyatni tashkil etish.
C) Loyiha taqdimoti.
D) Faoliyatni baholanishi.
- 94) Loyihani bajarish bosqichini aniqlang?
A) Faoliyatga kirish.
B) Auditoriya ishi.
C) Loyiha taqdimoti.
D) Auditoriyadan tashqari ish.
- 95) Dars loyihalari o'zining davomiyligiga qarab necha bosqichga bo'linadi?
A) 1 bosqichga bo'linadi.
B) 2 bosqichga bo'linadi.
C) 3 bosqichga bo'linadi.
D) 4 bosqichga bo'linadi.
- 96) Kichik loyihalar necha soatga mo'ljallanadi?
A) 1 soatga.
B) 4 soatga.
C) 6 soatga.
D) 10 soatga.
- 97) Ko'pincha o'zoq muddatga mo'ljallangan loyihalar qanday ta'limni amalga oshirishga xizmat qiladi?
A) Auditoriyada.

- B) Lobaratoriya.
C) Seminarda.
D) Darsdan tashqari.
- 98) Tanqidiy fikr – bu...
A) Qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'zgalar fikrini tasdiqlash.
B) Bildirilgan fikrlarni taqqoslash.
C) O'zgalar fikrini hurmat qilish.
D) Qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalar fikrini rad etish.
- 99) Hamkorlikdagi ta'lim – bu ...
A) O'qituvchi va ta'lim vositasi o'rtasidagi jarayon.
B) O'quvchi va oila hamkorligi.
C) O'qituvchi, o'quvchi va guruhlar o'rtasidagi hamkorlik.

- D) Guruhlardagi individual hamkorlik.
- 100) Hamkorlikdagi ta'limni qo'llash orqali o'qituvchi nimalarni bilishi aniq keltirilgan?
A) O'quvchilarni oilaviy muammolarini.
B) O'z darsini eng samarali dars ekanligini.
C) Guruh o'quvchilarini fiziologik nuqsontlarini.
D) O'quvchilarni o'qituvchiga bo'lgan ishonchini, ularni qiynayotgan muammolar nimalarda ekanligi va asosiy berilayotgan ta'lim samarali yoki samarasizligini.

TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR FANIDAN QISQACHA IZOHLI LUG'AT

Affektiv (hissiyotga oid soha) - oddiy idrok qilish, qiziqish, qadriyat yo'nalish va munosabatlarini o'zlashtirishga tayyor bo'lish, talabalarni atrof-muhitga nisbatan hissiy-shaxsiy munosabatda bo'lishini shakllantiruvchi maqsadlar kiradi.

Audio vizual vositalar-matnga ovoz berish, lingafon vositalari, radio eshittirishlaridan foydalanish, stenogramma materiallari, turli xildagi disklar va hazokolar.

Doska – bloknot – bu varaqalanadigan qog'ozli doska bo'lib, unga marker bilan yoziladi. U turli muhokamalar yakunlari va natijalarni yaqqol namoyish etishda hamda eng muhim axborotlarni qayd etishda qo'llaniladi. Uning afzalligi shundaki, xohlagan vaqtda oldingi yozilganni qo'yish ham mumkin.

Doska – stend – mashg'ulotlarda o'quv muvazalarini, aqliy hujum, guruh ishlari va boshqa muhokamalar natijalarini hujjatlashtirishda foydalaniladigan o'qitishning texnika vositasidir. Bunda stendga o'sha kattalikdagi qog'oz qo'yiladi va unga turli rangdagi hamda shakldagi kartochkalar yopishtiriladi. Mashg'ulot vaqtda stendda mazkur kartochkalar yordamida sxemalar, tuzilmalar, sharhlar va shu kabilarni tuzish mumkin.

Grafoproektor – shaffof plyonkadagi tasvir (slaydlar) ni ekranga proyeksiyalash uchun qo'llaniladigan jihoz hisoblanadi. Undan ma'ruza vaqtda materiallarni namoyish qilish uchun, shuningdek guruh ishlari taqdimotida yordamchi vosita sifatida foydalaniladi. Kodoskop foydalanish uchun qulay moslashuvchan vosita bo'lib, bir marta tayyorlangan plyonkadan ko'p marta foydalanish mumkin, bundan tashqari doska bo'lmagan hollarda asosiy tushuncha g'oyalari va natijalarni o'qituvchi plyonkaga flomaster yordamida to'g'ri ridanto'g'ri yozib ko'rsatishi ham mumkin.

Ijtimoiy texnologiyada: xomashyo va uni qayta ishlash mahsuloti sifatida inson omili turadi. Unda qayta ishlashga yo'naltiruvchi narsa inson omili va undagi xususiyat o'zgarishlari bo'ladi (masalan, o'qitish texnologiyalarining o'zgarishi).

Innovatsion faoliyat — bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi, yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining mavjud me'yor bilan tuknashuvi natijasida vujudga kelgan majmualarni muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir,- deb ta'kidlaydi V.I.Slobadchikov. Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyektlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo'lib, u ma'lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo'lishtir. O'qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

Innovatsion jarayon deb innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi.

Innovatsiyaning maqsadi - sarflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli — tuman o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangiliklardan farqli o'laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qiluvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Innovatsiya (inglizcha innovation)-yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Interfaol ("Inter"- bu o'zaro, "ast"- harakat qilmoq) - o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqat tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyatlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladi, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Interfaol darslarda o'qituvchining o'z qisman talabalarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Ishchi varaqalar – guruhlarda, juft bo'lib va individual mashqlar bajarishda qo'llaniladi. Ular turli jadvallar shaklida bo'lib, ta'lim oluvchilar tomonidan to'ldirish talab qilinadi.

Ishlab chiqarish texnologiyalari: xomashyoni hamda uning asosidagi polufabrikatarni ishlash va qayta ishlash (neft, ruda, yog'och) va uning asosidagi polufabrikatlar (metall, prokat, tarket, gipsokarton v.b.).

Keys-stadi - inglizcha "sase" - to'plam, aniq vaziyat, "studi" - ta'limdir. Keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzda yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli vaziyatni tahlil etishga asoslaniladi.

Kognitiv (bilishga oid soha) - o'rganilgan materialni eslab qolish va uni takroran aytib berish, o'zlashtirilgan bilimlarni mustaqil to'la anglash, ularni oldin o'rganilgan uslub, usullar bilan uyg'unlashtirish tasavvur etishgacha bo'lgan muammolarni hal etishini o'z ichiga oladi.

Loyihalashtirish - («loyiha» o'zidan) - real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni o'zgartiruvchi faoliyatni anglatadi. Loyiha - ko'pincha iqtisodiy-ijtimoiy yo'nalishda, qurilish, ilmiy ishlarni amalga oshirish holatlarida qo'llanilgan. Bu atama pedagogikaga XX asr boshlarida kirib kelgan. Bunday yo'nalishdagi o'qitish loyiha asosida istiqbolli o'qitish metodi deb qaraladi.

Loyihaviy ta'lim - ta'lim modeli bo'lib, unda o'qituvchi tomonidan loyihalash ko'rinishiga ega, muammoni izlash, uni tadqiq etish va hal etish, muayyan, beqiyos, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega natija (mahsulot)ga erishish, uni ommaviy taqdim etish va jamoatchilik tomonidan baholalanishni tashkil etish va rejalashtirishni anglatuvchi, mustaqil o'quv faoliyati tashkil etiladi.

Ma'ruzaga qo'yiladigan talablar - Ma'ruza ma'lum bir yo'nalishga: yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirish, hayot kechirish tarzini tanlashning tarbiyaviy ahamiyatini oshirishi lozim.

Ma'ruzaning funksiyalari - professional ta'lim berish va dunyoqarashni shakllantirish, talabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, ularni axloqiy, ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi, mehnatga munosabati, sosial-psihologik hislatlarini shakllantirish, bilim berish, o'rganayotgan fani bo'yicha axborot olish, olgan axboroti asosida tadqiqot o'tkazib, xulosa chiqarishga o'rgatish.

Matnlar - mashg'ulot mavzusi bo'yicha tayyorgarlik ko'rishda, mashg'ulot davomida shuningdek bilimlarni mustahkamlashda foydalanish uchun ta'lim oluvchilarga taqdim etiladi.

Matnli vositalar - o'qituvchi va o'quvchilar uchun: o'quv predmetini o'qitish metodikasi bo'yicha qo'llanmalar, shaxsiy metodika, o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan metodik ishlanmalar, mantiqiy strukturalar, fan darsliklari, mavzu yuzasidan kelib chiqqan holda tarixiy badiiy adabiyotlar, fan bo'yicha ma'ruzalar matni.

Muammo - ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning subyektiv shakllidir. U muammoli vaziyatda, ya'ni jamiyat rivojlanish jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida obyektiv ravishda vujudga keladigan vaziyat. Ta'lim maqsad va vazifalariga ko'ra muammoli va an'anaviy bo'lishi mumkin.

Muammoli ta'lim - Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini faollashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Nazorat varaqalari - mashg'ulot yakunida ta'lim oluvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirishda qo'llanilib, ular test savollari, masalalar va shu kabi shakllarda bo'lishi mumkin.

O'quv - uslubiy materiallar - o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular talabalarning mustaqil ishlashlarini faollashtirishga yordam beradilar (Ish varaqasi, eslatma, nazorat varaqasi, matnlar).

Pedagogik texnologiya — bu tizimli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir tizimga keltirishdir.

Pedagogik texnologiya — bu o'qitishga o'ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalinishi, texнокratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi. (B. L. Farberman.)

Pedagogik texnologiya — ta'limning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti. (I. P. Volkov.)

Pedagogik texnologiya — texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi (YUNESKO).

Pedagogik texnologiya — turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta'riflari mazmunini o'zida mujassam etuvchi ummallashtirishdan iborat. (G. K. Selevko.)

Pedagogik texnologiya — o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir. (V. P. Bepalko.)

Pedagogik texnologiya — o'quv jarayonining o'quvchilar va o'qituvchi uchun so'zsiz qulay sharoitlar ta'minlashni loyihalash, tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha hamma detallari o'ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli. (V. M. Monaxov.)

Pedagogik texnologiyaning ijtimoiy asosi - har bir shaxs jamiyat va davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va yoki ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini, tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi. U shaxsning, jamiyatning va davlatning rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning didaktik asosi - uning ta'lim-tarbiya qoida va tamoyillarga muvofiqligini belgilaydi. Pedagogik texnologiyaning didaktik jihatdan to'g'ri bo'lishi uning yuqori samaradortligining zaruriy sharti hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi - uning maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarining falsafiy jihatdan to'g'ri yo'nalishda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiya falsafiy yo'nalishi uning to'g'ri yoki noto'g'riligini, jamiyatning ma'lum maqsadlariga muvofiq yoki zidligini ko'rsatadi. Bu pedagogik texnologiyaga baho berishda asosiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning fiziologik asosi - bunda ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan fiziologik ta'lablarni hisobga olish sog'lom avlodni voyaga yetkazishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning gigenik asosi - ta'lim-tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash talablariga rioya qilishdan iborat unda turli zararli va ortiqcha ta'sirlarni bartaraf qilish, o'quv sharoiti: yoritilganlik, harorat, havoning tozaligi, o'qituvchi va o'quvchining ish o'ri, jihazlar, o'quv yuklamlar me'yorlari, sharoiti, tabiat fiziologiya, ekalogiya talablariga insonparvarlik va xalqparvarlik g'oyalari muvofiq bo'lgan ilmiy asoslarda belgilab boriladi.

Pedagogik texnologiyaning huquqiy-me'yoriy asoslari - bu ta'lim-tarbiya jarayonning tashkil qilish bilan belgilanadi. - «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni — KTMD — DTS - o'quv reja va dasturlar - Prezidentning ta'lim-tarbiyaga oid farmonlari, Vazirlar Mahkaması qarori, XTV qaror va buyruqlari, nizomlar...

Pedagogik texnologiyaning iqtisodiy asosi - ta'lim menejmenti xulosasiga va marketing tadqiqotlari natijalariga muvofiq belgilanadi. Pedagogik texnologiya ijtimoiy sohadagi faoliyat bo'lganligi bois uning iqtisodiy samarasi aniqlanadi va ta'limning masalalarini hal qilib boriladi. Pedagogik texnologiya iqtisodiy asosining mustahkam bo'lishi uchun amaliyotda davom ettirish uchun zaruriy sharti hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning mafkuraviy asoslari - bunda milliy istiqlol g'oyasi va mafko'rasi tamoyillarini o'zida mujassam etish va ularni amalga

o'shirligiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Barkamol avlod tarbiyasi - mustaqil fikrlab oladigan - xulq-atvori boshqalarga ibrat bo'la oladigan bilimli, ma'rifatlil, ijtimoiy faol bo'lishi pedagogik texnologiyaning dolzarb masalasi.

Pedagogik texnologiyaning metodologik asosi - uni amalga oshirishga qanday metodlar asoslanishini belgilaydi.

Pedagogik texnologiyaning pedagogik asosi - zamonaviy pedagogika fanining ilmiy xulosalaridan kelib chiqadi. Bunda pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibiy tuzilishini, mazmuniy shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayoning tashkil qilinishi, olib borilishi, diagnostikasi, monitoringi, o'quv-mavzu rejalarning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiyaning psixologik asosi - psixologiya fanining ilmiy xulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida psixologik bilimlardan o'z o'rinda, to'g'ri foydalanish orqaliligina kutilgan natijaga erishish mumkin. (diqqat, sezgi, qobiliyat, his-tuyg'u...) - Umumiy psixologiya - Yosh davrlar psixologiyasi - Pedagogik psixologiya.

Pedagogik texnologiyaning tarixiy asosi - ta'lim-tarbiyaning shakllantirishni turli tarixiy davrlarda amalga oshirishning shakli va usullari, pedagogik nazariyalar asos bo'ladi.

Psixomotor (harakatga oid soha) - u yoki bu harakat faoliyatida, harakat yo'nalishlarini tez o'zgartirish, asab-muskullarni muvofiqlashtirib boshqarishni shakllantirishga oid maqsadlar kiradi.

Real vositalar - tarix darslarida muzey eksponatlari, maket va mulyajlar, arxeologik matreallar, tarixiy obyektlar.

Sinf doskasi - o'quv materialini vizual namoyish qilishning an'anaviy va qulay vositasidir. Undan o'quv materialining asosiy tayanch nuqtalarini belgilashda, yoki biror narsani tez yozish lozim bo'lganda foydalanish juda qulaydir. Bundan tashqari sinf doskasi ta'lim muassasasining har bir o'quv xonasida mavjuddir.

Ta'lim texnologiyasi — didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi. (M. Choshanov.)

Ta'lim vositalari - o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi

Ta'lim vositalari o'qituvchi uchun, o'quvchi uchun, hamda dars o'tkazish uchun alohida variantlarini to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega.

Ta'limning texnik vositalari - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi (diaproyektor, grafoproyektor, doska-bloknot, doska-stend, flipchart).

Tarqatma materiallar - ta'lim oluvchilar uchun o'rganilayotgan mavzuga oid asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, hajmi uncha katta bo'lmagan (1-2 varaq) yozma o'quv materiali hisoblanadi. Mazkur materiallar mashg'ulotni qiziqarli qilish imkonini berib, ko'p hollarda ta'lim oluvchilar uchun mustaqil ravishda o'qib chiqib, muhokama qilish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Tasvirlil vositalar - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini

tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi (vediproyektor, vediofilmlar, rasmlar, haykallar, portret).

Texnologik xaritaning tuzilishi va mazmuni ko'rsatkichlari - O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi uch qatorni o'z ichiga olib, 1-1, 5-2 varaqda jadval ko'rinishida bajariladi: (1) o'quv mashg'uloti boshqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati; (3) ta'lim oluvchi faoliyati.

Texnologiya - ensiklopedik lug'atda bu «biror bir material, yarimfabrikat, yoki xomashyoni qayta ishlash, tayyorlash, uning holatini o'zgartirish, xususiyatlarini boshqacha qilishga yo'naltirilgan metodlar majmuasidir»

Texnologiya — biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yigindisi. (Izoxli lugat).

Yordamchi (ijhoz) vositalar - grafoproyektor, doska-bloknot, doska-stend, flipchart, va boshqalar).

Yordamchi ta'lim vositalari - grafiklar, chizmalar, na'munalar va boshqalar (model-mulyajlar, deagranmalar, sxema, xaritalar va boshqalar).

**TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION
TEKNOLOGIYALAR FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL
ETISH BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMA**

Tarixni o'qitishda innovatsion texnologiyalar bo'yicha talabalarining mustaqil ishini tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlari va talabalarining bo'lg'usi pedagogik va metodik tayyorligini amalga oshirishda tutgan o'rinni hisobga olgan holda mustaqil ishning quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

Umumiy o'rta ta'lim maktablari va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida fanni o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish yuzasidan ilg'or tajribalar, va metodik qo'llanmalarini o'rganish va tahlil etish;

Institut portali va xorijiy metodik adabiyotlar materiallari asosida muayyan nazariy masalalarni mustaqil o'rganish va ma'ruza tayyorlash;

Fandan yaratilgan elektron darsliklarni o'rganish va fan darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan o'zviy foydalanish bo'yicha dars ishlanmalarini loyihalash;

Tarixni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning dolzarb muammolariga bag'ishlangan anjumanlar uchun ma'ruza va taqdimot materiallarini tayyorlash;

Tarixni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning xususiy masalalarini metodik qo'llanmalar orqali o'rganish va ma'ruzalarni tayyorlash;

Talaba fandan kafedrada tasdiqlangan mustaqil ta'lim mavzularini I tasini tanlaydi Tanlangan mavzusi bo'yicha 5 ta vazifani bajaradi Bu vazifa mavzusi bo'yicha adabiyotlar ro'yxati va shu adabiyotlar asosida referat, maqola yozish, test tuzish, BMI (bitiruv malakaviy ishi) rejasini tuzishdan iborat.

V a z i f a l a r				
1	2	3	4	5
Adabiyotlar ro'yxati	Referat yozish (5 bet)	Maqola yozish (2 bet)	Test tuzish (10 ta)	Mavzu bo'yicha BMI rejasini tuzish

Eslatma: Mustaqil ta'lim mavzulari va oraliq nazorat topshiriqlari darsning 1-kunida talabalarga beriladi, bajarish muddati 2 oydan kam bo'lmagan holda o'tkazilish kuni aytiladi va guruh jurnaliga yoziladi. Mustaqil ta'lim mavzulari va oraliq nazorat topshiriqlari I ta daftarda jamlangan holda belgilangan kunda yozma va og'zaki shakllarda auditoriyada o'tkazilishi talabalarga e'lon qilinadi.

Mustaqil ishini baholash mezonlari: joriy va oraliq nazorat ishlariga ajratilgan ballardan o'quv fani soatiga ko'ra 2 ballidan 10 balgacha olinadi.

1. Adabiyotlarni baholashda:

- talabang tanlangan mavzusiga oid kerakli adabiyotlarni tanlay olishi (Prezident asarlari, qarorlar, dasturlar, nizomlar, monografiyalar, risolalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, jurnallar, internet saytlari) va foydalana olishi malakasiga asosiy e'tibor beriladi.

- Adabiyotlar 10 tadan ko'p bo'lsa va keltirilgan adabiyotlar mavzuga oid bo'lsa va adabiyotlar ro'yxatida Prezident asarlari, qarorlar, dasturlar, nizomlar, monografiyalar, risolalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, jumallar, internet saytlari berilgan bo'lsa hamda referat, maqola yozishda test tuzishda, bitiruv malakaviy ishi rejasini to'g'ri tuzishda foydalana olsa -2ball;

- Adabiyotlar 10 tadan ko'p bo'lsa va keltirilgan adabiyotlar mavzuga oid bo'lsa va adabiyotlar ro'yxatida monografiyalar risolalar darsliklar va o'quv qo'llanmalar, jurnallar omaviy nashrlarda berilgan bo'lsa hamda referat, maqola yozishda test tuzishda, bitiruv malakaviy ish rejasini to'g'ri tuzishda foydalana olsa -1,6 ball;

- Adabiyot ro'yxati to'liq bo'lsayu, lekin bitta manbadan foydalangan bo'lsa va shu asosida referat, maqola yozgan, test va bitiruv malakaviy ishi rejasini to'zgan bo'lsa -1,2 ball;

2.Referatni baholashda:

- Referatda mavzu to'liq ochilgan, to'g'ri xulosa chiqarilgan ijodiy fikrlari bo'lsa -2- ball;

- Referat mavzusi mohiyati ochilgan. Faqat xulosasi bor -1.6- ball;

- Mavzu mohiyati yoritilgan. Ammo iqtiboslar berilmagan, ayrim kamchiliklar bo'lsa -1.4 ball;

- Faqat mavzu mohiyati ochib berilgan bo'lsa -1.2- ball;

3.Maqolani baholashda:

- Mavzuda o'rganilayotgan ob'ekt chuqur tahlil qilinib, asos, gepoteza ilgari surilgan, muammo yechimlari ko'rsatilgan bo'lsa -2- ball;

- Mavzu tahlil qilingan muommolarga oid taklif berilgan bo'lsa -1.6 ball;

- Mavzuda ilmiy faraz ilgari surilgan bo'lsa -1.4 ball;

- Mavzu targ'ibot shaklida ifodalangan bo'lsa -1.2 ball.

4.Test savollarini baholashda:

- Tuzilgan savollar mavzu mohiyatini to'liq ochib bergan, muhim qoidalar, g'oyalari, qonuniyatlar to'g'ri bayon qilingan bo'lsa -2 ball;

- Savollar to'g'ri tuzilgan, lekin ayrim kamchiliklar bo'lsa -1.6 ball;

- Tuzilgan savollar umumiy va g'alizliklar bo'lsa -1.2 ball;

5. Bitiruv malakaviy ish (BMI) rejasini baholashda:

- MI rejalarini o'rganilayotgan mavzuning o'zagiga, mohiyatiga chuqur kirishga, mavzuning dolzarbligini yoritishga, muammo yechimiga qaratilgan bo'lsa -2 ball;

- BMI rejalar o'rganilayotgan mavzu bilan yaqindan tanishish, muayyan bilimga ega bo'lishga qaratilgan bo'lsa -1.6 ball;

- BMI rejalarini o'rganilayotgan mavzuga munosabat bildirish asosida tuzilgan bo'lsa -1.4 ball;

- BMI rejalarini referat shaklida bo'lsa -1 ball.

**TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR
FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMNING TAXMINIY MAVZULARI
(O'zbekiston tarixi fani bo'yicha)**

MUNDARIJA

1. Tarix darslarida ma'ruza matnlarini tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar.
2. Tarix darslarida muammoli seminar mashg'ulotlarining texnologik xaritasini ishlab chiqish.
3. Tarix fanining predmeti nazariy uslubiy asoslari va uni o'rganishning dolzarb muammolari mavzusini o'qitishda insert jadvalidan foydalanishning qulay tomonlari.
4. Ibtidoiy jamoa to'zumi mavzusini o'qitishning metod va usullarini ishlab chiqish.
5. O'rta Osiyoda paleolit davri mavzusini o'rganishda baliq skeleti metodidan foydalanish.
6. Mezolit davrining o'ziga xos xususiyatlari va manzilgohlari mavzusini o'rganishda tarqatma materiallar tayyorlash.
7. O'rta Osiyo bronza va temir davrida mavzusini o'rganishda audio-vizual vositalarni tayyorlash metodikasi.
8. O'rta Osiyoning eng qadimgi davlat uyushmalari mavzusini o'rganishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish.
9. Zardushtiylik dini va Avesto mavzusini o'rganishda loyihal ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish.
10. O'zbekiston hududini Eron ahamoniyarlari tomonidan bosib olinishi mavzusida tasvirli vositalarni ko'llash va uning afzalliklari.
11. Aleksandr Makedoniskiyning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari mavzusida B/BX/B jadvalini qo'llashning yutuq va kamchiliklari.
12. Qang' va Dovon davlatlari mavzusini o'rganishda modelli vositalardan foydalanish.
13. Buyuk ipak yo'li – shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va hozirgi zamon mavzusini o'rganishda keys ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish.
14. Xiyoniylar, Kidariylar va Eftaliylar davlati mavzuni o'rganishda guruhlariga bo'lib ishlash texnologiyasi va uning samaradorlik shartlari.
15. O'rta Osiyo Turk xoqonligi davrida mavzusini tarix darslarida o'rganishda o'quv-uslubiy materiallar tayyorlash.
16. O'rta Osiyo Arab xalifaligi davrida mavzusini o'rganishda venn diagrammasidan foydalanish.
17. O'rta Osiyoning IX-XII asrlar davri madaniyati mavzusini o'rganishda rolli hamda ishbob o'yinlar ishlab chiqish va uning talabalar o'quv-biluv faoliyatidagi ijobiy tomonlari.
18. Mug'ullar bosqini davrida O'rta Osiyo mavzusini o'rganishda nima uchun? Chizmasini ishlab chiqish.
19. Amir Temur va Temuriylar davlati mavzusini o'rganishda tarixiy-ilmiy manbalar bilan ishlash.
20. Mavoraunnahrda Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat ravnaqi mavzusini o'rganishda tasvirli vositalardan foydalanish.

Kirish.....	4
Tarix fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar faninig mazmun-mohiyati...	6
Tarix darslarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish texnologiyasi.....	19
Tarix ta'limi vositalaridan foydalanishga innovatsion yondashuv.....	35
Tarix fanini o'qitishda chet el tajribalarini o'rganish va foydalanish.....	57
Tarix ta'limi shakllari – ta'lim berish texnologiyasining tarkibi.....	63
Tarix fanini o'qitishda ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini loyihalashtirish.....	69
Tarix fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish.....	89
Tarix fanini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.....	99
Tarix ta'limida keys-texnologiyasidan foydalanish.....	106
Tarix darslarida loyiha texnologiyalarini joriy etish.....	122
Tarix fanini o'qitishda hamkorlikda o'qitish texnologiyalari.....	131
Tarixni o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan test savollari.....	138
Tarixni o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan qisqacha izohli lug'at....	148
Tarixni o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma.....	154
Tarixni o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan mustaqil ta'limning Taxminiy mavzulari.....	156

Farrux AQCHAYEV

UO`K: 325.575.1

BBK: 71.05(5Y)

F82

**TARIX FANINI O`QITISHDA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR**

O`quv - uslubiy qo`llanma

Mas`ul muharrir:

Abdurasul Amanlayev

Texnik muharrir:

Javlon SHERATOV

Musahhih:

Tursunoy NORQO`ZIYEVA

Kompyuterda tayyorlovchi:

Zulfiya XO`JABEKOVA

«Sangzor» nashriyoti 130100

Jizzax shahri, Sayiljoyi ko`chasi, 4-uy

Terishga berildi: 07.01.2014 y. Bosishga ruxsat etildi: 05.02.2014 y. Qog'oz bichimi 60x42 1/8. Ofset usulida chop etildi. «Times New Roman» garniturasida. Nashriyot hisob tabog'i: 10,0+04. Buyurtma 80. Adadi 500. Narxi shartnoma asosida.

«Jizzax PRINT» mas'uliyati cheklangan jamiyat bosmaxonasida chop etildi.

Jizzax shahri, Sayiljoyi ko`chasi, 4-uy.

8/n

ISBN 978-9943-358-90-2



9 789943 358904